



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.– 255.B

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (DSc),
professor Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

Сўз боши

Ассалому алайкум, ҳурматли устозлар, зукко тилшунослар, тиббиёт лингвистикаси соҳасида фаолият юритаётган тадқиқотчилар!

Бугунги кунда жаҳон миқёсида кечаётган интеграция ва глобаллашув жараёнида ўзбек тилини дунёвий тиллар даражасига олиб чиқиш ҳаётий заруриятдир. Тил – муқаддас ва эъзозланган тушунча, ҳар бир инсон учун ўз онаси каби азиз ва мўтабар. Юқори ривожланган давлатлар даражасига эришиш ва рақобатдош бўлиш учун Ўзбекистон фуқаролари халқаро тилларни билишлари муҳим, албатта. Чунки биз глобал ривожланиш тенденцияларидан орқада қола олмаймиз, лекин шуни унутмаслик керакки, ўзбек тили дунёдаги барча расмий тиллар қатори суверен тил мақомини олган экан, ҳар бир Ўзбекистон фуқароси давлат тилини билиши шарт. У қайси касб эгаси бўлишдан қатъий назар. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақоми ва нуфузини ошириш борасида ҳар бир соҳада ниҳоятда муҳим ўзгаришлар, янгиланишлар амалга оширилмоқда.

Кейинги икки йилда Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан ўзбек тилининг нуфузини ошириш бўйича иккита Фармон қабул қилинди. Вазирлар Маҳкамасининг кўплаб қарорлари ишлаб чиқилди. Соҳанинг ҳуқуқий базаси тубдан янгиланди. Энг қувонарлиси, 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли Фармон асосида 21 октябрь мамлакатимизда “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилингани тарихий воқеа бўлди. Нафақат бу ўзбек тили мутахассисларига, балки, барча юртдошларимизда ғурур бағишлади ва аждодларимизнинг асрий орзуларини рўёбга чиқарди.

Бугунги кунда Президентимиз Фармони билан Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида ташкил этилган Давлат тилини ривожлантириш департаменти давлат тили ва унинг амал қилиши билан боғлиқ муаммолар ечимида ташаббус кўрсатмоқда. Департамент томонидан аниқ вазифалар кўйилмоқда. Албатта, мамлакатимизда она тилимизга бўлган бундай юксак эътибор ва ғамхўрлик сув ва ҳаводай зарур эди. Негаки, энг катта муаммомиз бўлган ташқи рекламалар, бинолар пештоқидаги ёзувларни қонунчиликка мувофиқлаштирилишида, миллий менталитетимизга уйғунлаштиришимизда турли шакл-шамойилдаги аралаш-қуралаш ёзувларга нисбатан жамоатчиликнинг муросасиз муносабатини шакллантириш долзарб масала бўлиб қолмоқда. Бу борада кенг кўламли таҳлилий ўрганишлар ҳам амалга оширилди.

Давлатимиз Раҳбарининг 2020 йил 20 октябрда қабул қилган ПФ-6084-сонли Фармони тизимда кенг кўламли стратегик вазифаларни белгилаб берди. Айтиш жоизки, ушбу ҳужжат асосида 2020-2030-йилларда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тасдиқланган. Давлат мактабгача таълим тизимида ўзбек тили гуруҳлари сонини 2025 йилгача 72 фоизга, 2030 йилгача 80 фоизга етказиш белгиланган. Бу, албатта, таълим тизимининг илк босқичида она тили ўқитиш тизимини кенгайтириб, болаларда ижодкорликни, теран тафаккурни, ёзиш кўникмаларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, 2030 йилга қадар умумтаълим мактабларида ўзбек тили фанини

Ўқитиш кўламини амалдаги ҳафтада 84 соатдан 110 соатга ошириш, олий таълим муассасаларида ўзбек тили кафедраларини 2025 йилга қадар 120 тага, 2030 йилгача 140 тага етказиш кўзда тутилган. Бу мутахассислар учун жуда катта имконият бўлиб, Президентимизнинг маданиятимизга, маънавиятимизга бўлган юксак эътибори ва ишончининг натижасидир.

Энг аҳамиятлиси, Фармон асосида жорий йилнинг 1 апрелидан бошлаб, раҳбар кадрлар учун давлат тилини билиш даражасини аниқлаш бўйича тест тизими ҳамда масъул лавозимларга тайинланадиган шахслар учун давлат тилини билиш бўйича даража сертификатлари жорий этилди. 2021 йилнинг 5 май куни Давлат тест маркази томонидан илк бор кадрларнинг давлат тилида иш юритиш даражасини аниқлаш бўйича тест синовлари ўтказилди. Айтмоқчиманки, бундай фаол тил сиёсати келгусида ўзбек тилининг нафақат оғзаки, балки ёзма мулоқот кўламини ҳам кенгайтиради. Бу эса банк-молия тизими, саноат, ишлаб чиқариш, ҳуқуқшунослик, ҳарбий иш, тиббиёт каби ханузгача рус тилининг таъсири сақланиб қолаётган соҳа ва тармоқларда ўзбек тилининг имкониятларидан самарали фойдаланишга, оддий, равон ўзбекона атама ва терминларни кенг қўллашга ундайди. Айни шу йўналишда бугун Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Атамалар комиссияси ҳам фаолият юритмоқда. Глобаллашув шароитида тилимиз софлигини сақлаш, унинг луғат бойлигини мунтазам ошириб бориш вазифаси қўйилмоқда.

Бугун дунёда ҳар қайси халқ ўз она тилини асраб-авайлаши ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлаётир. ЮНЕСКОнинг “Йўқолиб кетиш хавфи арафасида турган жаҳон тиллари атлас”ида келтирилишича, Европада 50 та, Тинч океан минтақасида 200 та тил ана шундай хавф ёқасида. Африкадаги 1400 та тилдан 250 таси яқин йилларда, 600 таси келажакда бутунлай йўқолади. Бу рақамлар маданиятга бефарқ бўлмаган ҳар қандай инсонни ўйлантиради. Ҳозирда ўзбек тилида гаплашувчилар сони дунё бўйича 50 миллионга етмоқда. Айниқса, Афғонистон, Тожикистон, Қирғизистонда миллионлаб ўзбеклар истиқомат қилишади. Жаҳоннинг 60 га яқин университетларида, 100 га яқин мактабларида ўзбек тили ўрганилмоқда. Илмий изланишлар олиб бораётган чет эллик олим ва тадқиқотчилар сони ҳам ошиб бормоқда. Президентимизнинг БМТ Бош ассамблеясининг 75-сессиясида юксак халқаро минбардан туриб, ўзбек тилида нутқ сўзлагани, тилимиз тарихида унутилмас воқеага айланди. Дунёнинг энг етакчи тиллари қаторида ўзбек тили ҳам илк бор халқаро доирада баралла янграгани ҳар бир юртдошимизда фахр-ифтихорни, миллий ғурурни, улуғ аждодларимизга муносиб ворислик туйғуларини оширди.

Энг муҳими олдимизга қўйилган масъулиятли вазифаларни амалга оширишда она халқимизга бўлган фарзандлик меҳри ва садоқати билан ёндашишимиз ҳам қарз, ҳам фарз. Билдирилган юксак ишончни шараф билан адо этиб, ёшларимизни ўз ортимиздан эргаштириб, дунёга юз тутаётган она тилимиз ислоҳотларида камарбаста бўлмоғимиз зарур. Бу эса дахлдорлик хиссини ошириб, ҳар биримизни фаол ва ташаббускор бўлишга ундайди.

Ҳамидов Обиджон Ҳафизович
Иқтисод фанлари доктори, профессор

Қутлов

Тиббиёт ва тил муштараклиги

Иноятов Амрилло Шодиевич *

Ассалому алайкум, ҳурматли анжуман иштирокчилари! Аввало, ўзбек тилининг нуфузини ошириш борасида мамлакатимизда кейинги йилларда олиб борилаётган ислохотлар бирин-кетин ўз самарасини кўрсатмоқда. Тил ўзини луғатларда намоён қилади. Шу маънода, мутахассис олимлар ташаббуси билан ўзбек тилини ривожлантириш жамғармаси маблағлари ҳисобидан 20 дан ортиқ умумий ва соҳавий луғатлар яратилди.

Айниқса, бугун тиббиёт соҳаси вакиллари ана шундай луғатларга эҳтиёжи ортиб бормоқда. Бугун тиббиёт ва тилшунослик интеграцияси ривожланмоқда. Шифокорлар нутқи ўрганилмоқда, улар учун турли хилдаги электрон луғатлар яратилмоқда. Бу эса соҳа ходимларининг деонтологик фазилатларини шакллантириш баробарида, уларнинг касбга алоқадор этикаси, дори-дармон, умуман, давонинг таъсирини оширишга қаратилган хулқ-атвор таомилларини белигилаб беради. Деонтология, яъни кишининг хулқи, одоби ҳақидаги тушунча XIV асрнинг бошларида инглиз файласуфи ва иқтисодчиси И.Бентам томонидан муомалага киритилган. Тиббиёт деонтологиясига оид маълумотлар узоқ тарихга эга бўлиб, кенг фалсафий мазмун касб этади. Деонтология шифокор билан бемор ўртасидаги муносабат, шифокор билан беморнинг яқинлари ўртасидаги муносабат, шифокорнинг ҳамкасблари билан муносабати каби бир неча йўналишдан иборат. Деонтологиянинг муҳим факторида – нутқий омил етакчи ўринни эгаллайди. Нутқий омил ривожи эса, тиббий атамаларга эҳтиёж сезади.

Табиб ўз фанининг моҳир билимдони бўлиши, беморларга меҳр-шафқат билан муомала қилиши, асл тиб илмига табиати келишмоғи, донишмандлар сўзига риоя қилиб, уларга эргашмоғи, мулойимсўз, бемор кўнглини кўтарувчи, андишали, хушфеъл бўлмоғи керак. Абу Али ибн Сино табибнинг касални даволашдаги уч таянч қуроли: сўз, гиёҳ, тиг орасидан сўзни биринчи ўринга қўйган ҳолда, шифокорнинг кўзи бургутники каби ўткир, қўллари кизнинг қўллари каби нозик, юраги шерникидек довюрак ва ақли илон каби бўлишини эътироф этганлиги диққатга сазовордир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида таъкидланган “соғлиқни сақлаш тизими... аҳолининг тиббий ёрдам сифатига доир истак ва талабларига жавоб бераётганлиги” тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш соҳавий терминлар луғати, электрон луғатлар, электрон дарсликлар, уларнинг мобил иловаларини яратиш заруратини юзага келтирмоқда. Амалий грант лойиҳаси асосида ташкиллаштирилган ушбу амалий анжуман ҳам мана шундай муаммолар ечимига қаратилган деб ўйлайман. Барча анжуман иштирокчиларига омад тилайман.

* Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшлар, фан, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият ва спорт масалалари бўйича маслаҳатчиси ўринбосари

Til va madaniyat

Daminov Mirzohid Исломович*

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning rivojlanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlar, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi – inson huquqlari va manfaatlarini to'la-to'kis ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan: “Shu zamon donishmandlarining biridan xalqning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalayotganini qanday bilish mumkinligi to'g'risida so'ralganda, donishmand uch narsani sanagan ekan. Birinchisi, o'sha xalqning qahramonlik eposi jonli ijroda yozib olingan bo'lishi, ikkinchisi, o'sha xalq tiliga oid izohli lug'at tuzilgan bo'lishi, va nihoyat, shu xalqning Milliy ensiklopediyasi mavjud bo'lishi lozim ekan”. Shukurki, bizda har uchalasi bor.

XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g'oyasi keng yoyildi. Bu bejizga emas. Chunki jahondagi ko'pgina mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ham ega bo'ldi. 1989-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so'ng o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro'y berdi. Til haqidagi qonunning qabul qilinishi ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining muhofazasini ta'minladi. Hayotimizning barcha sohalarida ona tilimizdan keng qo'llanila boshlandi. O'zbekistonning mustaqil suveren davlat sifatida dunyo xaritasidan joy olishi esa mazkur qonunning kuchini yanada oshirdi. Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo'lsa, ona tili ham shu qadar aziz va muqaddasdir. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga yetishida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk ma'rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: “Millatning ikki a'zosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri

* Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti direktori

sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur". Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi.

Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri o'zbek tilini dunyo tillari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. O'tgan davr mobaynida biz ona tilimizning barcha bo'limlarini muayyan darajada o'rgandik, o'rganyapmiz. Endi tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, uni millat nufuzi sifatida ko'tarishimiz kerak. Bu kabi anjumanlar ana shu maqsad yo'lida ilk qadam bo'lishi lozim.

Давлат тили - миллатнинг тирик нафаси

Қаҳҳоров Отабек Сиддиқович*

Ўттиз икки йиллик тараққиёт ўзбек тили давлат тили сифатида обрў-эътибор қозонганлигига етарлича гувоҳлик беришига ҳеч қандай шубҳа йўқ. Аммо унинг давлат тили сифатида қўлланилиши, она тили сифатида ўрганилиши ва ўқитилиши билан боғлиқ айрим муаммолар борки, уларни бартараф этиш миллат ва давлат равнақи учун беҳад зарур.

Авваламбор, ўзбек тилининг айрим давлат ташкилотлари ва хусусий ишлаб чиқариш корхоналари, ҳатто давлат ва жамият бошқарув органлари иш фаолиятида, айниқса, иш қоғозларининг юритилиш жараёнида давлат тили сифатида тўла амал қилмаётганлигини алоҳида қайд этиш керак: юридик кучга эга расмий ҳужжатлар, иш қоғозлари, хусусан, низом, далолатнома, ҳисобот ва ҳатто қарорлар ҳамон рус тилида расмийлаштирилаётганлиги давлат тили барча соҳаларда бирдай қўлланмаётганлигидан далолат беради. Ижтимоий тармоқлардаги айрим маълумотларнинг имловий хатоликлар билан қайд этилиши ачинарли ҳол албатта.

Шунингдек, жамият аъзоларининг ўзаро алоқаси ва мулоқотида давлат тилининг асоси – ўзбек тилининг сайқал топган шаклидан тўғри, ўринли ва моҳирона фойдаланиш, айниқса, оғзаки нутқ орқали таъсир доираси кенг ва кучли, оқибати ибрат намунаси бўлган журналистика, телевидения, театр, таълим, тарбия, фан, тиббиёт, давлат бошқаруви, дипломатия (в.б.) каби соҳаларнинг мутахассис ва ходимлари (журналист, сухандон, актёр, режиссёр, ўқитувчи, мураббий, тадқиқотчи, олим, шифокор, сенатор, депутат, дипломат в.б.) нутқий фаолиятида ўзбек адабий тили меъёрларига мувофиқ сўзлаш маҳоратини шакллантириш, қолаверса, нотиклик санъати даражасига етказиш маданий нутқ, миллий маданий савиянинг юксалишига хизмат қилади.

Бугун эътирофли жиҳати таълим тизимида миллий тилимизнинг ўқитилиши ва она тили ёки давлат тили сифатида ўрганилиши билан алоқадор қатор муаммолар ечими, унинг сифати ва самарадорлигини оширишга бугун олимларимиз жамоаси беминнат хизмат қилиб келмоқдалар.

* Бухоро давлат университети Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, и.ф.д. (DSc)

Нафақат айна шу кунларда, балки ўтган йиллар давомида ҳам миллатсевар тилшунослар, маърифат зиёлиларини ўзбек тилининг расмий талабларини кучайтириш, миллий мартабасини ошириш, барча соҳа вакилларининг адабий тил меъёрларига амал қилишига эришиш каби долзарб муаммолар хаамиша ўйлантириб, мунозарага чорлаб келган.

Бундан ташқари талабалар орасида тилга доир турли илмий танловлар ва тадбирларнинг ҳам ўтказилиши тилимиз ривожига замин яратади.

Сўнги йилларда университетда олиб борилаётган туристик ислохотлар, халқаро битимлар тузилиши ўзбек тилининг халқаро миқёсда обрўи ошиб, фаол мулоқот воситасига айланиб бораётганлигидан далолат беради. Турли даражадаги расмий учрашув ва музокараларда тилимиз кенг қўлланаётгани, хориждаги қатор таълим даргоҳларида, илмий муассасаларда ўзбек тили марказлари ташкил этилиб, уларда она тилимизни ўрганишга қизиқувчилар сони кўпайиб бораётгани бунинг яққол далилидир. Айниқса, филология таълими йўналишида олиб борилаётган илмий-инновацион ўзгаришлар, кенгашлар фаолиятининг фаоллиги, амалий лойиҳалар натижалари, ўқув қўлланмалар, дарсликлар, илмий нашрлар каби бир қатор ютуқлар таҳсинга сазовордир. Тилимиз нуфузини ошириш мақсадида кўплаб илмий-амалий ишлар олиб борилди. Филология факультетида ўзбек тилини халқаро муносабатларда расмий таржима тиллар сафига киритиш мақсадида ҳар томонлама мукамал мутахассис устозлар ўз фаолиятини олиб бормоқдалар. Иқтисодиётимизнинг барча секторларида ўзбек тилида иш юритиши, малакали мутахассислар тайёрлаш учун дарслик ва ўқув қўлланмалар яратилмоқда. Тил ва тиббиёт интеграцияси платформасини яратиш мавзусида 900 млн сўмлик амалий лойиҳа ўз иш фаолиятини олиб бормоқда. Илмий даражалар берувчи илмий кенгашлар фаолияти самарали йўлга қўйилди. Жорий йилда 4 нафар устозларимиз фан доктори (DSc), 10 дан ортиқ изланувчиларимиз филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)дипломларини муваффақиятли қўлга киритдилар. Институт жамоаси билан бундай анжуманларнинг сонини кўпайтириб, фаоллаштиришимиз даркор. Ишончим комилки, бу каби тизимли ишларнинг самараси ўлароқ ўзбек тилимизнинг давлат тили сифатидаги мақоми янада мустаҳкамланиб, жаҳон ҳамжамиятида ҳам ўзининг муносиб ўрнига эга бўлади. Тилимизнинг келгуси тараққиётига оид бир қатор ишларни амалга ошириш ҳар биримизнинг Ватаний бурчимиздир.

Соҳа лингвистикасини ривожлантириш – давр талаби

Хусейнова Абира Амановна *

Тил инсонларнинг ўзаро алоқа воситаси бўлиб, яратувчининг инсонга берган бебаҳо неъматидир. Дунёда ҳар бир халқнинг ўз тили унинг бебаҳо бойлиги, ифтихори, нажоти ҳисобланади. Ҳикматли сўзлар, шеър у дostonлар, қўшиқлар аввало бирор бир миллатнинг она тилисида дунёга келади. Миллат бор экан, унинг тили ҳам яшайди, тили яшар экан у миллат

* Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис сенати

бошқа миллатлар орасида ўз нуфузи, обрўсига эга бўлади. Ҳар бир халққа ўз тили азиз ва ардоқлидир.

Тилнинг ҳақиқий яратувчиси халқ ҳисобланса ҳам, унинг ўзлигини намоён қилишида олимларимизнинг, шоиру ёзувчиларимизнинг, педагогларнинг ҳамда оммавий ахборот воситаларининг роли ниҳоятда катта. Айниқса, тилшуносларнинг самарали меҳнати туфайли тилшуносликнинг кўпгина йўналишлари бўйича тил тизимидаги кўпгина мунозарали масалалар ўз ечимини топди.

Бугун ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақомини мустаҳкамлаш ва амалиётда буни тасдиқлаш, қонун-қоидаларини такомиллаштириш ва муаммоларини ҳал қилиб бориш учун зарур чоратadbирлар кўрилмоқда. Бугунги тезкор давр бизга ўз қонун-қоидаларини белгилаб бермоқда. Оламда нафақат ҳар куни, балки ҳар соатда содир бўлаётган воқеа ва ҳодисалар дунё тилларининг ҳар бирига минг-минглаб янги тушунчалар ҳамда уларни ифодаловчи лексик бирликларни олиб кирмоқда. Сўзлар оқимининг асосий қисми махсус терминологик тизимларга тўғри келади. Давр руҳи билан тараққий этаётган ва энг бой захирага эга бўлган соҳалардан бири бу – **тиббиёт терминологиясидир**. Ҳозирда катта тиббиёт қомусий луғатлари уч юз минг ва ундан зиёд терминларни ўз ичига камраб олади. Бу эса ўз навбатида ушбу терминларни ўрганиш, тартибга солиш ва меъёрлаштириш жараёнларини ўткир ақл-идрок, ўта синчковлик ва талабчанлик билан ташкил этишни тақозо этади.

Бугун ташкил этилган мазкур анжуман икки соҳа – **тилшунослик ва тиббиёт фанларининг ўзаро ҳамкорлиги**, тиббий маданий нутқ, тиббий оммабоп нутқ масалаларига қаратилганлиги билан аҳамиятли деб ўйлайман. Зеро мутахассис ва номутахассис (тиббиёт ходими – бемор) ўртасидаги мулоқотнинг самарали чиқиши учун тил илмидан бохабарлик ўзаро бир-бирини тушуниш, бир-бирини англашни, мулоқотни муваффақиятли ташкил қилишда самара бериши тайин.

Государственный язык - неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства

Аслонова Эмма Сергеевна*

В. Гумбольдт: "Язык есть как бы внешнее проявление духа народа; его язык есть его дух, и его дух есть его язык – трудно себе представить что-либо более тождественное".

Язык – тысячелетнее творчество народа, тут его характер и душа, свобода и память, философская система. Известно, что язык – один из важнейших признаков нации, он органически связан с культурой, он развивается в ней и выражает её. Государственный язык является важной структурой в развитии социально- политического и экономического строя. И сегодня как никогда необходимо понимать важность сохранения и уважительного отношения к государственному языку. И именно сегодня,

*Депутат Законодательной палаты Олий Мажлис

когда наша страна находится на пути третьего ренессанса, когда идёт внедрение широкомасштабных реформ, когда изменения затрагивают все сферы общества. Государственный язык требует неотъемлемой поддержки государственной политики. Наше общество должно осознавать органическую связь своей цивилизованности с родным языком.

Язык - никогда не увядающий и вечно вновь распускающийся цветок народа и всей его духовной жизни. В национальном языке одухотворяется весь народ, вся его жизнь, история, обычаи. Узбекский язык- это история народа, путь цивилизации и культуры от истоков до наших дней. И именно родной язык является частью духовной культуры человека, а духовная культура представляет собой деятельность, направленную на духовное развитие индивидуума и общества. Это – гармония мысли, чувства, воли. Духовная культура пробуждает, поддерживает и развивает человека как личность. Культура – это развитие человеческого творчества. Человек – творец, через культуру он открывает и изменяет мир, а также самого себя. К сожалению, следует отметить, что в последние годы духовность начинает терять свои позиции, что непосредственно отражается и в языке. Люди становятся менее грамотными. Новая реальность, в которой оказалось человечество на пороге третьего тысячелетия, обусловленная усилением тенденций глобализации в ключевых областях деятельности (экономике, политике, языковой сфере, культуре и т.д.) в целом ряде отношений определяется проявлением различных противоречий и именно языковая коммуникация есть способ услышать друг друга, чтобы разобраться в условиях возникших противоречий, выявить механизмы их реализации. Огромный поток иностранной лексики охватил многие слои нашего общества. Наша страна, как и многие другие, под влиянием процессов глобализации переживает вторжение широкого пласта чужеземной культуры. И дело не только в Интернете, вся рабочая терминология которого основана на английском. Примером проблемы расшатывания норм литературного языка могут служить резкие изменения в газетно-публицистическом стиле, в широком использовании молодёжного сленга. Слова-паразиты всё чаще засоряют разговорный язык, прорываясь в литературный стиль, игнорируется пунктуация, наблюдаются явления некорректной ассимиляции и аккомодации. Сегодня необходимо осознавать важность сохранения чистоты и красоты родного языка. Осознавать насколько государственный язык является средством трансляции культуры, язык прорастает в неё и выражает её. Поэтому Узбекский язык необходимо рассматривать составной частью культуры, её орудием, действительностью нашего духа, ликом культуры. Язык обнажает специфику национальной ментальности. Он есть одновременно и продукт культуры, и её важная составная часть, и условие существования культуры. Более того, язык – специфический способ существования культуры, фактор формирования культурных кодов. Культура живёт и развивается в «языковой оболочке». Но человечество в своём большинстве воспринимает язык как данность, как само по себе разумеющееся, то, что не является экологическим объектом. На самом же деле язык не только орудие общения, он – бесценный памятник истории и

сокровищница культуры народа. Культура, в том числе и речевая, как панцирь, защищает цивилизационное ядро нации, актуализируя в нашем сознании духовно-нравственные ценности общества. Самым большим богатством человека является культурная идеология, распространение культурных ценностей, получение образования – в центре всего этого стоит язык.

Необходимо учитывать так же роль Государственного языка и во взаимодействии культур. Здесь важно содружество национальных культур, которое может осуществляться лишь на основе взаимного изучения языков, стремления преодолеть противоречия и кризисные явления. Знание языков позволяет приобщиться к национальному богатству других народов, помогает организовать обмен достижениями культуры. И решение проблемы сохранения языка и духовности, которая не только остаётся, но и встаёт особенно остро в последние годы, необходимо с учётом многонациональности нашего государства. И именно государственный язык должен служить важнейшим фактором единения всех узбекистанцев

Язык – явление очень живое, постоянно меняющееся. Язык, как и культура в целом, отражает все изменения в жизни общества, что ведёт к появлению неологизмов и заимствований В процессе развития духовной культуры у человека создаются новые образы, приобретаются знания. Любое историческое событие оставляет свой след, как в языке, так и в культуре. Подводя итоги, хочется сделать следующие обобщения: национальный язык и национальная духовная культура взаимосвязаны. Чем, выше культура человека и общества, в котором он находится, тем выразительнее и красочнее его родной язык. Именно язык является своего рода лакмусовой бумажкой, которая свидетельствует о культурном уровне не только самого человека, но всего общества. Язык является частью духовной культуры, а духовная культура – это гармония мысли и чувства

Список литературы:

1. Исаев М. И. Взаимосвязь и взаимообусловленность языка и культуры // Русский язык.
2. Ожегов С. И. Словарь русского языка / под ред. Н. Ю. Шведовой. М.: Русский язык, 1989.
3. Человек в мире культуры: исследования, прогнозы: материалы Междунар. науч. конгр. (Казань, 17-18 апр. 2007 г.) / Федеральное агентство по культуре и кинематографии РФ. М
4. Харисов Ф. Ф. Язык – путь к цивилизации и культуре // Филология и культура. 2013. № 2

Тилшунослик самара берсин

Менглиев Бахтиёр Ражабович*

Аннотация. Мақолада мамлакатимизда шиддат билан ривожланаётган тилшуносликнинг мақсадли йўналишлари, истеъмолчи талаби асосида бажариладиган иқтисодий ва ижтимоий самарадор соҳалари ривожланиши учун айрим учраётган муаммолар ҳамда соҳа ривожини учун бажарилиши лозим бўлган ечимлар ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: *соҳа тилшунослиги, лингвистик, сунъий чеклов, табиий тил, социолингвистика, лингвокультурология*

Ўзбек тилшунослиги бўйича ҳозирги тадқиқотларда кўп ҳолларда амалий аҳамиятсиз, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий самарадан холи, фақат “тил ўзида”, “тилшунослик илмий даражалар учун” тамойиллари асосида иш кўрилади. Бу аксарият тадқиқотларнинг аллақачонлар эскириб кетган андоза ва ўтмишда қолган талаблар асосида амалга оширилаётганлигидан ҳам маълум.

Муаммо аломатлари қуйидагиларда кўзга ташланади:

– тилшунослик доирасидаги давлат илмий тадқиқот грантларига даъвогар ҳар қандай анъанавий мавзудаги лойиҳани долзарблигидан қатъи назар, ўзаро шахсий ёки бошқа муносабатлар асосида тўла маъқуллаш ёки осонгина рад этиш мумкин;

– аниқ, табиий, иқтисодий фанлар бўйича янги талаблар асосида диссертация ҳимояларига кенг йўл бўлгани ҳолда, тилшунослик соҳасида кўплаб сунъий чеклов ва уларни “айланиб ўтиш” имконияти мавжудлиги;

– лингвистик йўналишда тайёрланган ва ҳимояга қўйилган ҳар қандай диссертацияни субъектив асосда, сифати ва аҳамиятидан қатъи назар, истаганча юқори баҳолаш ёки хоҳлаганча чиппақка чиқариш мумкин.

Бу – аччиқ ҳақиқат.

Муаммо сабаби шундаки, собиқ тузум даврида тилшунослик бўйича илмий ишлар давлат буюртмаси асосида эмас, балки фақат тадқиқотчилар ташаббуси билан, асосан, илмий даража олиш мақсадида олиб борилар, фан харажатлари ҳам аслида аниқ ва табиий фанларга ажратилган маблағлар ҳисобидан қопланганлиги сир эмас.

Бугунги кунда мақсадли талаб ва таклиф муносабатига эътибор қаратмайдиган социалистик тилшунослик фани тўла-тўқис инқирозга юз тутди дейиш мумкин. Аниқроғи, алмисоқдан қолган мақсад ва фойдасиз вазифалар асосида иш кўраётган, натижаларини истеъмолчилар сўрамаётган “жонсиз” ва амалий татбиқсиз мазмундаги тилшунослик фани тўлиқ боқиманда соҳага айланиб қолган десак, муболаға бўлмайди. Шунинг учун

* Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, филология фанлари доктори

ҳам ҳимояга қўйилган диссертацияларга ОАК томонидан билдирилаётган асосий ва ҳақли эътироз – улар натижаларининг, юмшоқроқ айтганда, амалиётга татбиқ этилмаганлиги (аслида татбиқ этиб бўлмаглиги) дир. Ҳатто янги йўналишлар сифатида қаралувчи, аслида Ғарбга тақлид руҳидаги социолингвистика, “гуркираб ривожланаётган” когнитив тилшунослик, лингвокультурология соҳалари ҳам ижтимоий тараққиёт учун қай даражада аҳамиятли эканлигини, тилни ёки ундан фойдаланишни қанчалик такомиллаштириши ҳақида озгина ўйлаб кўриш уларнинг моҳиятини англашга етарли.

Ҳар қандай тадқиқот бевосита ёки билвосита ё ўрганиш объектини, ёки ундан фойдаланишни такомиллаштириш билан шуғулланади. Шу маънода тилшуносликдаги анъанавий луғатшунослик соҳаси билан боғлиқ ишлар, гарчи санокли бўлса-да, таҳсинга лойиқ, албатта.

Тилшунослик ўтган асрда шахс саводхонлиги учун лингвистик база тайёрлаш мақсадида таълимий йўналишда ривожланган бўлса, XXI асрда унинг компьютер “саводхонлиги”, яъни компьютернинг табиий тилни “эгаллаши” учун математик моделлаштиришга, шахс маънавияти ва маданиятини юксалтиришга хизмат қиладиган замин ҳозирлаши жуда зарур. Шу маънода ўзбек тилшунослиги (математик) моделлаштирувчилар, гиперлексикография мутахассислари, маънавий-маърифий тузилмалар томонидан бериладиган тизимли буюртмаларни кутиб қолмоқда.

Мамлакатимизда шиддат билан ривожланаётган бозор муносабатлари тилшуносликнинг мақсадли йўналтирилган, истеъмолчи талаби асосида бажариладиган иқтисодий ва ижтимоий самарадор соҳалари ривожланишини кучли тақозо қилаётир.

Муаммо ечими қуйидагиларда намоён бўлади:

биринчидан, тегишли соҳа вазирлик ва қўмиталари, корхона ва ташкилотлари лингвистик тадқиқот йўли билан ҳал қилинадиган масалаларни аниқлаб, муаммолар банкини яратиш, уларни фан йўналишлари бўйича таснифлаш, илмий иш бажарувчи ташкилот ва корхоналарга юбориши лозим;

иккинчидан, тилшунослик бўйича фаолият юритадиган илмий ва ўқув-илмий муассасалар тегишли соҳалардаги тадқиқот йўли билан ҳал қилинадиган масалаларни аниқлаш, муаммолар банкини яратиш ва таснифлашда уларга қўмаклашиши зарур;

учинчидан, тил муаммолари бўйича фаолият юритадиган илмий ва ўқув-илмий муассасалар ички имкониятидан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш соҳалари бўйича фундаментал, инновацион ва амалий тадқиқотларни ичига оладиган хизмат тизими ва структурасини ишлаб чиқиши керак;

тўртинчидан, тегишли фан йўналишлари бўйича фаолият юритадиган илмий ва ўқув-илмий муассасалар ишлаб чиқариш соҳалари бўйича фундаментал, инновацион ва амалий тадқиқотларни ичига оладиган хизматларини тақлиф этиш лозим;

бешинчидан, юридик шахсларнинг ушбу фан йўналишларига ҳомийлик хизматини жорий қилиш ва бунинг учун уларга имтиёз ва қулайликлар яратилиши керак.

Тилшунослик фан ва ишлаб чиқариш узвийлиги тизимида бундай йўсинда иш юритишга ҳали ўтгани йўқ. Масалан, инфор­мацион технологиялар учун ўзбек тилининг лингвистик базасини яратиш ёки тил ва маънавий яхлитлиги ҳақида гап кетар экан, маънавий-маърифий фаолият самарадорлиги учун зарур тилшунослик тадқиқотларига тегишли муассасалардан ҳануз бирорта ҳам буюртма берилгани йўқ десак, хато бўлмайди. Ҳолбуки, янги асрда фақат амалий татбиққа эга, натижаларини истеъмолчилар сўрайдиган ва уларга **ижтимоий-иқтисодий самара таклиф этадиган тилшунослик** ўз кучи билан яшашга ҳақли.

Лингвистика ва тиббиёт ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида

Абузалова Меҳринисо Кади­ровна*

Аннотация. Мақолада тилшуносликнинг тиббиёт билан фаол интеграциялашувини таъминлаш, айрим тиббий терминларнинг атамалар орқали ёритилиши, аниқ ва ихчам терминлар билан бир қаторда уларнинг сермазмун изоҳларининг берилиши хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: *тиббиёт, интеграция, тиббий терминлар, атамалар, метафора, эвфемизм, перифраза*

“Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинганига ўттиз икки йил тўлди. Ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш мақсадида миллатимиз тилига кейинги йилларда жиддий эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон **Фармонига** кўра *давлат тилининг софлигини сақлаш, уни бойитиб бориш ва аҳолининг нутқ маданиятини ошириш соҳасида* 2020 йилда ўзбек тилининг луғат бойлигини оширувчи лингвистик, соҳавий-терминологик, изоҳли луғатлар яратиш вазифаси белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармонига кўра эса **2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси ҳам қабул қилинди** ва унда тил такомиллига хизмат қилувчи қатор вазифалар белгиланди. Яъни, замонавий, янги авлод ўқув луғатларини тузиш ҳамда уларнинг электрон шаклларини ва **соҳалар бўйича атамалар луғатини яратиш**; барча олий таълим муассасаларининг бакалаврият босқичида «**Касбий нутқ маданияти**» **фанини жорий қилиш**; мамлакат ҳаётининг барча соҳаларида, жумладан, давлат бошқаруви, замонавий ва инновацион технологиялар, саноат, банк-молия тизими, ҳуқуқшунослик, дипломатия, ҳарбий иш, тиббиёт ва бошқа соҳаларда давлат тилининг имкониятларидан тўлиқ ва тўғри фойдаланишга эришиш; **илмий асосланган янги сўз ва атамаларни мунтазам равишда расмий муомалага киритиб бориш** каби

* Бухоро давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Ўзбек тилини бор бойлиги билан сақлашга қаратилган амалий ишларга кенг йўл очиб берилди.

“...янги даврда тилшунослик бошқа соҳаларга кўмакчи бўлиб қолиши керак. Математик лингвистика, биологик лингвистика, физик лингвистика, тиббий лингвистика, компьютер лингвистикаси, психологик лингвистика, таълимий лингвистика, санъат лингвистикаси, диний нутқ лингвистикаси, ортология ва ҳоказо. ... Ҳар бир соҳа бўйича луғатчилик лингвистик асосда тараққий этиши лозим... лингвистика билан тиббиёт ҳамкорлиги зарур. Тиббий терминологиянинг илмий ва оммабоп вариантлари фарқланиши керак. Тиббий илмий ва оммабоп матн фарқланиши, илмий тадқиқ қилиниб, лингвистик тавсиялар ишлаб чиқилиши зарур”, дея таъкидлайди Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, филология фанлари доктори Бахтиёр Менглиев [Б.Менглиев, 2019].

Айтиш керакки, тиббий терминология бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилган. “Русча-ўзбекча-лотинча фармацевтик терминлар луғати” [А.Қосимов, Х.Холматов, 1990:128], “Инглизча-ўзбекча-русча, ўзбекча-инглизча-русча анатомик терминлар луғати” [А.Қосимов, М.Қосимова, 2006: 176], Ёлқин Тўракулов муҳаррирлигида 7000 дан ортиқ терминни ўз ичига олган “Тиббиёт комусий луғат” [1994: 288], ҳозирги замон тиббиётида қўлланиладиган 10000 атрофидаги клиник терминлар ва тиббий тушунчаларни ўз ичига қамраб олган “Катта тиббиёт ўқув луғати” [А.Усмонхўжаев, Э.И.Баситханова, М.С.Тўраханова, 2011] нашр қилинган. Бундан ташқари жуда кўплаб тиббий терминларга оид онлайн луғатлар, таржима луғатлари, изоҳли луғатларнинг электрон вариантлари яратилган. Аммо уларнинг халқона, ўзбеккона ва оммабоп вариантлари хусусида алоҳида ишлар амалга оширилмаган.

Бугунги кунда терминологик тизимларнинг шаклланиши ва соҳага хос терминологик луғатларни яратишнинг лингвистик муаммолари билан нафақат тилшунослар, балки профессионал мутахассислар шуғулланади, шунинг учун фанларнинг амалий жиҳатидан муқаррар интеграцияси мавжуд. Ўрганилаётган билим соҳасининг концептуал аппаратига эга бўлиш касбий муваффақият ва терминологик саводхонликнинг юқори даражасига эришишнинг муҳим шартидир. Шифокор жамиятнинг элита қисмига мансуб бўлиб, унинг нутқи меъёрий, коммуникатив, ахлоқий ва эстетик жиҳатларга жавоб бера олиши керак.

Қадимдан кишилар бир-бирларига нарса-ҳодисалар ҳақида шунчаки маълумот берибгина қолмасдан, балки уларнинг муҳим хусусиятларини тасвирлаб, қиёслаб, муҳим деб ҳисоблаган жиҳатларини бўрттириброк кўрсатишга ҳаракат қилишганки, бундай нутқий эҳтиёж натижасида ифода шакллариининг турлича тасвирий воситалари юзага келган. Маълумки, тиббиётда қадим замонлардан то ҳозирги кунгача қатъий терминлар эмас, балки мажозий номлар, образли иборалар, метафоралар қўлланган. Бу бериладиган маълумотни кодлашнинг ўзига хос усули, узоқ ўтмишда, инсон танасининг тузилишини махсус ўрганиш диний эътиқодлар томонидан тақиқланган пайдан бошланган. Дарҳақиқат, бўёқдор сўзлар воситасида

тасвирланган маълумотларнинг яхшироқ ва тўлиқ ўзлаштирилиши барчага маълум. Ўзбек тили қардош тиллар орасида нутқий ифода воситаларига ўта бойлиги билан, ҳар хил ифода воситаларини нутқий жараённинг ўзидаёқ ясаб олиш имкониятига эгаллиги билан ажралиб туради. Ана шундай воситалар сирасига лингвистик перифраза, эвфемизмлар, метафора, синонимия ҳодисалари киради.

Биз 2020 йилда Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан эълон қилинган “Олима аёллар гранти”га “Тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш” мавзусидаги амалий лойиҳа билан иштирок этиб, ғолибликни қўлга киритдик ва айтилган 2021-2023 йилларга мўлжалланган А-ОТ-2021-2 рақамли мазкур лойиҳа устида фаолият олиб бормоқдамиз. “Тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш” мавзусидаги амалий лойиҳа айнан айрим тиббий терминларнинг атамалар орқали ёритилиши, аниқ ва ихчам терминлар билан бир қаторда уларнинг сермазмун изоҳларининг берилиши, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилишига қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Таъкидлаш лозимки, тиббиёт соҳасида лексик бирликларнинг қоида тариқасида иккита варианты мавжуд: халқаро (лотин ва юнон) ва миллий. Шулардан иккинчиси(миллий) “бу ҳодисани она тили имкониятлари орқали тушунтириш” истаги билан боғлиқ. Тиббий бирликларнинг семантик базасини таснифлаш, яъни тиббий лингвистиканинг эвфемик, метафорик, перифрастик, гендер хусусиятларини лингвомаданиятшунослик нуқтаи назаридан изоҳлаш; ўзбек тилида қўлланиладиган маҳаллий тиббий лингвистик бирликларнинг мазмун-моҳиятини ўрганиш; ҳудудий фарқланишларни ўрганиб ўзбек маданиятида мавжуд тиббий атамаларнинг тил маданиятида тутган ўрнини мустаҳкамлаш, йўқолиб бораётган ноёб тиббий атамаларни тўплаш, уларнинг тасвирий изоҳли луғатини тартибдаш, шифокорларга лингвистик ёрдам бериш; Абу Али ибн Сино қаламига мансуб “Тиб қонунлари” асарида қўлланган атамаларни изоҳли луғат билан қиёслаш, муштарagini истеъмолга киритиш ва тавсифлаш (дейлик, “Тиб қонунлари”[Абу Али ибн Сино,1993:304], табобат масалаларини оммабоп ҳолда назм билан изоҳловчи «Уржуза»(1326 байт тиббий ўғит) [Абу Али ибн Сино,1999:159] номли тиббий асарларда “мохов” касаллиги “шер касаллиги”; болаларда кечадиган оғиз оғриғи, стоматит - ширча; витилего-баҳак; теридаги оқ доғлар, сочларнинг айрим жойлари тўкилиши - тулки касаллиги билан номланган); тилшуносликнинг тиббиёт билан фаол интеграциялашувини таъминлаш ҳам ўзбек тилшунослиги олдида турган улкан вазифалардан саналади.

Кўпинча профессионал мулоқотда муваффақиятсизликлар тилни етарли даражада билмаслик эмас, балки у ёки бу терминнинг бошқа бир вариантларини билмаслик оқибатидир. Дарҳақиқат, миллий атамалар, асосан, турли ижтимоий қатламда сўзлашувчилар томонидан тушунилади ва улар кўпинча шифокор-бемор мулоқотида ишлатилади, лотин-юнон атамаларини эса тадқиқотчиларнинг кўп қисми тушунади, одатда, шу касб эгалари - профессионаллар ўртасида маълумот алмашиш учун ишлатилади.

Телевидение, интернет, ёзма ОАВ, турли маърузалар, суҳбатларда ўринли ва ишлатилиши қулай айрим тиббий бирликлар қўлланмоқдаки, булар ҳам тингловчи, ҳам ўқувчи учун ёқимли ва эшитимлидир. Масалан, биргина **хотин-қизларнинг хомиладор бўлиш жараёни билан боғлиқ қатор тасвирий ифодалар парадигмасига** мансуб юкли бўлмоқ, бошқоронгу бўлмоқ, бўйида бўлмоқ, гумонаси бор, жиддий давр, иккиқат бўлмоқ, мўъжизали тўққиз ой, нишона пайдо бўлмоқ, оғироёқ, тўлишмоқ, фарзанд кутмоқ, иккижон бўлмоқ каби миллий, халқона эквивалентлар ҳамда **хотин-қизларнинг болали бўлиш (туғиш) жараёни билан боғлиқ** бола кўрмоқ, болали бўлмоқ, бўшалмоқ, бўшалиб олмоқ, вужудга келтирмоқ, дунёга келтирмоқ, ҳаётга келтирмоқ, дунё юзини кўрсатмоқ, енгил бўлмоқ, жонидан жон бунёд этмоқ, кўзи ёримоқ, кўпаймоқ, она бўлмоқ, ўгил кўрмоқ, қизли бўлмоқ... ифодалар парадигмаси борки, бу ўзбек халқининг ўз тилига бўлган юксак муҳаббатини ҳамда нутқий маданиятини исботлай олади. Пандемия туфайли бир қанча бирликлар нутқимиздан мустаҳкам ўрин эгаллади. Биргина коронавирус билан боғлиқ ўндан ортиқ кўзга кўринмас ёв, тождор вирус, инсониятни иложсиз қолдирган вирус, тождор вируснинг тожи, хавфли ёв, тожли душман, кўзга кўринмас митти офат, тож кийган вирус, дунё иқтисодини емирувчи касаллик, инсон саломатлигининг кушандаси, чекинмаётган ёв, оламий фалокат каби перифрастик, метафорик бирликларнинг фаол қўлланишда эканлигини кузатамизки, булар бевосита тиббий нутқ билан боғлиқ. Ўзбек тилида *врач, доктор, дўхтир, шифокор, табиб, эмчи, луқмонча, ҳаким* қаторидан ўрин олган сўзлар чет тилида фақат бир-иккита сўз билан ифодаланади, холос.

Айни кунларда тавсифий тилшунослик ўз ўрнини соҳавий-тавсиявий тилшунослик йўналишларига бўшатиб берган экан, тиббий соҳага тегишли атамаларни ҳам миллий, ўзбекона, оммабоп вариантларда тайёрлаш – шу соҳадаги илмий муаммонинг ечимига хизмат қилади. Қадимдан сайқалланиб келган, аждодлардан мерос бўлиб қолаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни авайлаш, асраш, кўриқлаш барчамизнинг вазифамизга киради. Биз ўзбек атамашунослиги захирасини бойитиш мақсадида тиббий бирликларнинг электрон платформасини яратишга жазм қилмоқдамизки, ушбу платформада терминларнинг атамалар орқали ёритилиши, аниқ ва ихчам терминлар билан бирга уларнинг сермазмун изоҳларининг берилиши, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилиши, уларни яратишда она тили имкониятларидан кенг фойдаланиш асос қилиб олинган.

Тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш тиббий эвфемизмлар луғати, тиббий перифразалар, тиббий лексика метафоралари луғати, уларнинг электрон варианты, мобил иловаларини яратиш заруратини юзага келтирмоқдаки, бу яратилажак ўзбек тили миллий корпуси учун ҳам ғоят аҳамиятлидир. 1.Биз лойиҳа доирасида мазкур луғатларни тартиб беришга ҳамда уларнинг мобил иловаларини яратишга, тиббий соҳага тегишли терминларнинг миллий, оммабоп вариантларини аниқлашга ва улар нашр йўллари орқали тарғибот қилишга маълум маънода эришдик, деб ўйлайман. 2.Бундан ташқари лойиҳа мавзуси асосида БухДУ ўзбек

тилшунослиги кафедраси мустақил изланувчи У.Аҳмадова 2021 йилда “Ўзбек тилида социал перифразалар” мавзусида фалсафа доктори (PhD) диссертациясини ёклади. Диссертациясида ҳар бир социал гуруҳ перифразаларини ўрганаркан, тиббиётга тегишли тасвирий ифодаларни алоҳида қатлам сифатида тадқиқ этди. 3. БухДУ инглиз тилшунослиги кафедраси мустақил изланувчи А.Қобилова томонидан тиббий перифразалар қардош бўлмаган тиллар кесимида ўрганилмоқда ва мазкур мавзу дастлабки экспертизадан ўтди. 4. 5А.120102-Лингвистика (Ўзбек тилшунослиги) мутахассислиги магистранти Дилнура Ахмедованинг “Ўзбек тилида тиббий метафоралар” мавзусида диссертацияси бажарилди. 5.БухДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси таянч докторанти Д.Собированинг “Тиббий рекламанинг социопрагматик хусусиятлари” мавзусидаги 10.00.01 – Ўзбек тили ихтисослигида филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этиладиган тадқиқот иши ҳимоя қилинади. Унинг мавзуни қамраб олган қатор мақолалари миллий журналларда нашр этилди. 6. “Web of Science Core Collection”, “Scopus” маълумотлар базасида индексланган нашрларда 3 та йирик мақола нашр этилди. 7. Лойиҳа мавзуси доирасида “Ҳозирги ўзбек тили” ўқув курсидан бадиий, оммабоп матнларда тиббий бирликларнинг ифодаланишига доир курс иши ва малакавий битирув ишлари режалаштирилди. 8. Тиббиётга оид мақоллар, ривоятлар, халқ дурдоналари жамланган қўлланма тузилиб унинг дастурий таъминоти яратилади. 9. Ҳамкорликда режалаштирилган халқаро анжуман материалларида ҳам айнан мавзуга дахлдор масалалар ҳамда муаммолар кўтарилди.

Барча жаҳон тилларида бўлгани каби ўзбек тилидаги терминларни, атамаларни жонлантириш, шу билан бирга, тиббиёт йўналишлари бўйича ҳам ҳар томонлама қулай бўлган, ўзбек тили қатида мавжуд бўлган атамаларни ҳам муомалага киритиш, умумтилда қўлланиш доирасини кенгайтириш зарурати туғилмоқда. Қайд этиш керакки, тиббиётга доир тушунчаларнинг шаклланиши узоқ ўтмишга бориб тақалади - туркий луғатчилигининг асосчиси Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари, эски ўзбек тилига асос солган Алишер Навоий, мемуар асар муаллифи З.М. Бобур ва бошқа ижодкорларнинг бадиий, илмий-бадиий асарлари тиббий терминларнинг ривожланишида ўзига хос ўрин тутган манбалар ҳисобланади. Ўзбек тилида тиббий атамаларни ўрганиш ва жамлаш; имкон қадар тиббий терминларни соҳалар бўйича ёки бўлимларга ажратган ҳолда луғат-китобларни нашр қилиш ҳозирги янги Ўзбекистон шароитида тиббиёт терминологиясининг бойиб боришига хизмат қилмай қўймайди.

Адабиётлар:

- 1.Абу Али ибн Сино.Тиб қонунлари. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. Электрон китоб. Уч жилдли сайланма.1-жилд.– 304 б.
- 2.Абу Али ибн Сино. Уржуза ёки 1326 байт тиббий ўғит. Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1999. –159 б.
3. Қосимов А., Холматов Х. Русча-ўзбекча-лотинча фармацевтик терминлар луғати. Тошкент: Ибн Сино нашриёти, 1990. –128 б.

4. Қосимов А., Қосимова М. Инглизча-ўзбекча-русча, ўзбекча-инглизча-русча анатомик терминлар луғати. Тошкент: Мехридарё, 2006. –176 б.

5. Тиббиёт қомусий луғат. Ёлқин Тўрақулов муҳаррирлигида/ Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. –288 б.

Психология пациента и этика врача

Чудакова Вера Петровна*

Аннотация. Цель данной статьи - исследовать этику речи врача, а также ее лингвистические характеристики. В нем описываются и объясняются слова, фразы, лингвистические и методические особенности речи врача с примерами. Была рассмотрена необходимость научного исследования сферы применения таких терминов, т. е. их прагматики. Статья объективно подкреплена данными о контакте врача с пациентом и его этике. Это подчеркивает важность слов в нашем общении. В статье подчеркивается важность постановки достоверных и правильных диагнозов на основе подробностей, сообщаемых пациентом врачу, или правильного использования медицинских эвфемизмов, перифразов и перифразов во время информирования врача о заболевании.

Ключевые слова: *медицинский язык, медицинский эвфемизм, медицинский парафраз, коммуникация, терминология, название болезни, лексика, лингвопрагматика, речь, понимание, психология*

Вступление. Медицина уникальна тем, что она часто неразрывно связана с повседневной жизнью человека. Сегодня, независимо от образования, его концепции, теории, достижения, возраст и социальный статус хорошо известны широкой публике и следуют за каждым от рождения до смерти. Язык отражает этот механизм, потому что он открыт для всех жизненных моделей и изменений. Язык медицины, развивавшийся на протяжении многих веков и быстро развивающийся в наше время, представляет собой обширную многоуровневую систему, охватывающую как область повседневной жизни, так и научное понимание, а также пространство, в котором обе области влияют друг на друга. Предыдущее заметно. Это разнообразие особенно очевидно в медицинском устном языке - контакте между врачами и пациентами. Природа этой формы общения, несомненно, требует научного понимания и реалистичного объяснения лингвистами. Беседа “врач -пациент” необходима врачу для постановки диагноза пациенту на основе любого комментария, сделанного пациентом.

"Keksa" ma'nosidagi "yoshi bir joyga borib qoldi" yoki "endi olma bilan o'rik bo'larmidi" kabi birikmalarning muqobili sifatida "mature (yetuk)", "senior (katta)", "advanced in years (tajribali yoki yoshi katta)" kabi variantlar taklif qilinadi. Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi "ko'r" (blind), nogiron (invalid), semiz (fat), aqldan ozgan (mad) kabi birliklarning o'rniga "ko'zi ojiz" (unseeing - ko'rmaydigan); handicapped (aqliy yoki jismoniy nuqsonga ega bo'lgan, imkoniyati cheklangan odam), ortiqcha vaznli odam (overweight), ruhiy kasal (mentally sick) kabi evfemik ifodalardan foydalaniladi. Shuningdek, tana a'zolari, homiladorlik, o'lim bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina evfemizmlar mashg'ulot davomida bahslarga sabab bo'ladi. Aytish joizki, AQSHning turli shtatlaridan kelgan talabalar tibbiyot yoki boshqa soha bilan bog'liq bo'lgan, lekin lug'atlarda uchramaydigan o'ziga xos, spetsifik evfemik ifodalarni bilishlari, ularni qo'llashlari mumkin. Bu esa soha lingvistikasini qiyoslab o'rganish bo'yicha yangidan-yangi tadqiqotlarni olib borishga turtki bo'ladigan holatdir.

Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi borasida AQSH ta'lim tizidagi e'tiborga loyiq bo'lgan yana bir jihatga qisqacha to'xtalamiz. Nyu-York, Los-Anjeles, San-Fransisko, Denver, Orlando, San-Diego kabi shaharlardagi universitetlar qoshida, sog'liqni saqlash sohasida tadqiqotlar olib boruvchi yirik markazlar qoshida "Medical English" ("Shifokorlar uchun ingliz tili") deb nomlangan maxsus kurslar tashkil qilingan [<https://extension.ucsd.edu/International-Programs/Medical-English-4-week>]. Bunday kurslarning maqsadi ingliz tilini o'rganayotgan shifokor va bo'lajak shifokorlarga mutaxassislik tilini maqsadli va tizimli o'rgatish, aynan tibbiyot tizimida qo'llaniladigan o'ziga xos so'z va iboralarni, evfemizmlarni, tibbiy terminologiyani o'rgatish, shifoxona yoki klinik sharoitda inglizabon bemorlar hamda hamkasblar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini yaxshilashdir. Yuzma-yuz o'tkaziladigan yoki onlayn tarzda tashkil etiladigan bu mashg'ulotlarda maxsus audio-videomateriallardan, qo'llanmalardan foydalaniladi [Ewa Donesch-Jezo, 2014: 72] Taklif etilayotgan mavzular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AQSH sog'liqni saqlash tizimi;
- bemor bilan muloqot ko'nikmalari;
- inson anatomiyasi va fiziologiyasi;
- anamnez olish jarayoni;
- jarohatlar va shoshilinch tibbiy yordam;

- diagnostika va terapevtik muolajalar;
- taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish va hokazo.

Fikrimizcha, bizning yurtimizda ham shu kabi kurslar tashkil etilsa, ularda o'zbek va boshqa tillarda aynan tibbiyot xodimlariga dars berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, O'zbekisonga kun sayin ko'plab mutaxassislar tashrif buyurmoqdalar, ular o'zaro kasbiy hamkorlik doirasida, malaka oshirish maqsadida, yangi qo'shma tibbiyot muassasalarini barpo etish maqsadida kelmoqdalar. Bu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirib borish uchun turli xalqaro konferensiyalar o'tkazish, ularda fikr almashinish, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashinish kabi ishlar ham tilshunoslik, ham tibbiyot sohalari rivojiga katta hissa qo'shadi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Палютина З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития// Медицинский вестник Башкортостана. Том 8. № 3. 2013. – С.104.

2. N. Azimova, Uzbek: An Elementary Textbook, Georgetown University Press, 2010.

3. Как обойти грубое или "непристойное" выражение? Эвфемизмы в английском языке. <https://languagereal.ru/post/96>

4. <https://extension.ucsd.edu/International-Programs/Medical-English-4-week>

5. Ewa Donesch-Jezo. Teaching of vocabulary to medical students in ESP courses // LangLit. Vol 1. Issue-1. August, 2014. -P.72.

Ўзбек тилини тадқиқ этишда янгича ёндашувлар

Ражабов Дилшод Зарипович *

Аннотация. Мақолада жамиятимизда олиб борилаётган тил сиёсати доирасида Бухоро давлат университети жамоаси ва филология факультети билан бирга олиб борилган ютуқлар ҳақида изоҳ берилган.

Калит сўзлар: *лингвистика, лингвоперсонология, антропонимия, эвфемология, метафоралогия*

Айни кунларда ўзбек тилига берилаётган эътиборни, ўзбек тилшунослигининг бугунги ривожини олдинги йиллардан фарқлаш қийин эмас. Ўзбек тилшунослиги нишонланаётган тил байрамининг 32 йиллиги арафасида жуда кўп ютуқларга эришди. Ўзбек лингвистикасининг ранг-баранг соҳалари ривож топди. Жаҳонда XX асрнинг сўнгги чорагида содир бўлган глобал ўзгаришлар бошқа фанларда бўлгани сингари дунё тилшунослигида ҳам истиқболли илмий қарашлар, ғоялар ва ёндашувларга эга бўлган янги фанларнинг пайдо бўлишига ва таракқий этишига сабабчи бўлди. Таъкидлаш лозимки, кейинги йилларда тилларни ҳар тарафлама ўрганиш ва тадқиқ этишга ёндашув тубдан ўзгарди.

* Бухоро давлат университети доценти, ф.ф.д (DSc)

1. Лингвоперсонология, яъни тилнинг шахс, жамият, маданият, урф-одат билан муносабатини ўрганадиган *амалий тилшунослик* равнақ топди (антропонимия, эвфемиология, метафоралогия...)
2. Бугунги кунда ўзбек тилининг ҳам *дунё тиллари қаторидан ўрин олишини мақсад қилиб қўйган тил корпуси* ҳам ривож топмоқдаки, бу қувонарли ҳол. Айни кунларда кўплаб тилшуносларнинг диққати Ўзбек тилининг миллий корпусини яратишга қаратилган. Шунинг учун миллий корпуснинг талабига кўра турли мазмундаги луғатларни яратишга аҳамият қаратиляпти. Бу соҳада факультетимиз тадқиқотчилари айнан ўзбек тили миллий корпусининг таъминоти бўйича тадқиқотларини яқунлаб амалиёт учун тақдим этмоқдалар.
3. Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедрасининг илмий тадқиқот режаларига мувофиқ «Ўзбек тилшунослигида тил, шахс ва жамият муносабатлари тадқиқи муаммолари» мавзусидаги илмий тадқиқот йўналиши доирасида соҳа лингвистикасини равнақ топтириш мақсади кўйилди. Режага мувофиқ айни кунларда грант лойиҳаси асосида тиббий мулоқот бирликларининг атамалар луғати ва электрон платформасини яратиш режалаштирилган. Бундан ташқари Бухоро жой номлар (топоним)ини ҳам ўрганишга катта аҳамият қаратилмоқда ва бу борада тадқиқотлар режаси белгиланган.
4. Сўнгги йилларда нуфузли халқаро илмий журналларда (**Web of Science Core Collection**) ёки “**Скопус**” (**Scopus**) маълумотлар базасида индексланган хорижий нашрларда мақолалар чоп эттиришга аҳамият қаратилмоқдаки, айнан мана шу журналларда жамоамиз томонидан ўзбек тилини тарғиб қилишга қаратилган бир қанча мақолалар, жумладан, тиббиёт лингвистикаси йўналишида илмий қарашлар муҳокама этилмоқда.

Бу соҳада ҳали қилинажак ишларимиз бисёр. Бугунги куннинг долзарб масалаларига қаратилган ушбу анжуман ишига муваффақият тилайман.

**TILSHUNOSLIKDA TIL, SHAXS, JAMIYAT MUNOSABATLARI
TADQIQI MUAMMOLARI VA INNOVATSION G`OYALAR TIZIMINI
SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Rus va o‘zbek tillarida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishi:
boshqaruv kategoriyasi**

Ahmedov Bahodir Yaxshimurodovich*

Annotatsiya. Maqolada rus va o‘zbek tillarida boshqaruv kategoriyasini shakllantirishda kelishik qo‘shimchalarining ishlatilishi, hokim va tobeso‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, bosh va tobe so‘z, kategoriya, flektiv til, ko‘makchi, predlog, qo‘shimcha*

So‘z birikmalarining yasaliş usuli xilma-xil bo‘lib, turli tillarda jiddiy farqlanadi. Har xil qurilishga mansub tillardagi so‘zlarning grammatik bog‘lanishini qiyosiy o‘rganish esa ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik. Binobarin, “so‘z birikuvi qoidalarida va turli tip hamda xildagi so‘z birikmalarining paydo bo‘lish qonuniyatlarida tilning milliy xususiyati yaqqol namoyon bo‘ladi” [3,11].

So‘zlarning tobe aloqa turlari ichida boshqaruv aloqasi ancha murakkab hisoblanadi. Rus va o‘zbek tilida boshqaruv deganda, odatda, shunday tobe aloqa tushuniladiki, unda tobe so‘z (ot, olmosh) hokim so‘z talab qilgan kelishikda bo‘ladi yoki ko‘makchi bilan birga keladi[5.7].

Tobe bog‘lanishning bir turi bo‘lgan boshqaruv aloqasi o‘zbek tilshunosligida sintaksisga doir ayrim ishlarda ma‘lum darajada o‘rganilgan [1.2.5]. Ularda tobe so‘zning kelishik shakllari yoki ko‘makchilar yordamida bosh so‘z (fe‘l, ot, sifat, son, undov va modal so‘zlar) bilan sintaktik aloqaga kirishi va so‘z birikmalari komponentlari o‘rtasida hosil bo‘ladigan sintaktik munosabatlar tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada rus va o‘zbek tillarida boshqaruv aloqasiga ta’sir etuvchi asoslarni chog‘ishtirib o‘rganish natijasida so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi sintaktik aloqa vositalari, birikma komponentlari qurilishi va semantikasi, ular o‘rtasidagi sintaktik munosabatlardagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni aniqlashga harakat qilamiz.

Har bir tilda boshqaruv munosabati bilan bog‘lanib kelgan so‘zlar o‘ziga xos sintaktik aloqa vositalariga ega. Rus tilida so‘zlarning sintaktik aloqalari tobe so‘zning shakli, yordamchi so‘zlar va so‘z tarkibi ko‘magida ifodalanadi.

Masalan: *преданность Родине, держать рукой, дружба между народами.*

O‘zbek tilida so‘zlar kelishik qo‘shimchalari, yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi vositasida sintaktik aloqaga kirishadi. Masalan, *Vatanga sadoqat, qo‘l bilan ushlamoq, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik.*

* Buxoro viloyat XTXQTMOHM dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Ko‘rib o‘tilganidek, boshqaruv komponentlari aro sintaktik aloqa vositalari rus va o‘zbek tillarida o‘zaro mos tushadi. Lekin mazkur tillarning Grammatik qurilishini tadqiq qilish natijasida shu narsa oydinlashadiki, bu shakily o‘xshashliklar ortida tub farqlar ham yotadi.

Flektiv til bo‘lmish ruschada tobe so‘zning shakli, uning padejlardagi o‘zgarishlari so‘zlarning birikma hosil qilishida katta rol o‘ynaydi. Tobe so‘z padej shaklining o‘zgarishiga esa grammatik rod bilan bog‘liq uch xil turlanish sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, bir padejning o‘zida kelgan otlar, negizning yumshoq, qattiqligiga qarab, turlicha qo‘shimcha oladi, мужской va средний roddagi otlarning винительный padejdagi qo‘shimchalari иминительный hamda родительный padejlarning qo‘shimchalari bilan predmetning jonli va jonsizligiga ko‘ra mos tushadi.

Rus tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida tobe so‘zning kelishik qo‘shimchalari qat‘iy bir tizim bo‘yicha o‘zgaradi: har bir kelishik muayyan qo‘shimcha oladi. Taqqoslang:

Помочь другу- do ‘stga yordam bermoq;

Помочь судье- sudyaga yordam bermoq;

Помочь обществу- jamiyatga yordam bermoq;

Помочь герою- qahramonga yordam bermoq;

Помочь студентке- talaba qizga yordam bermoq.


Har ikkala tilda boshqaruv ikki turga bo‘linadi: vositasiz (ruschada - predlogsiz; ozbekchada - ko‘makchisiz) va vositali (ruschada - predlogli, o‘zbekchada - ko‘makchili).

Predloglar bilan birga tobe so‘zlarning shakl o‘zgarishi ham ishtirok etadigan rus tilidagi “vositali” boshqaruvdan farqli ravishda, o‘zbek tilidagi ko‘makchi-otlar boshqaruvida tobe so‘zlarning kelishik shakli qatnashmaydi, o‘z leksik ma‘nosini saqlagan holda, ko‘makchi boshqaruvchi so‘z talab qilgan kelishik qo‘shimchasini oladi (*deraza oldiga kelmoq, stol tagiga qo‘ymoqva h.k.*).

Grammatik boshqaruv komponentlarining joylashish tartibi bo‘yicha ham bu ikki til bir-biriga o‘xshamaydi. Boshqaruv aloqasi bilan yuzaga keladigan rus tilidagi so‘z birikmalarida odatda tobe so‘z hokim so‘zdan keyin o‘rin oladi.

O‘zbek tilida esa bunga teskari tartibda, birikmaning birinchi komponenti tobe, ikkinchisi bosh so‘z tarzida joylashadi.

Taqqoslang:



Ma‘lumki, rus tilida boshqaruv aloqasiga uch asos: 1) bosh so‘zning leksik-semantik xususiyatlari; 2) uning so‘z yasovchi elementlari; 3) tobe so‘zning leksik-grammatik tabiati va uning gapdagi vazifasi sabab bo‘ladi. O‘zakning umumiyliigi va so‘z yasalishi bilan bog‘liq har xil so‘z turkumlari, ko‘p hollarda, boshqaruvning ayni shaklini saqlab qoladi:

работатъ над рукописью – работа над рукописью,
работатъ со словарём – работа со словарём,

*заведовать кафедрой – заведующий кафедрой,
управлять машиной – управляющий отделением.*

Lekin so‘z yasalishi jihatidan bir-biri bilan o‘zaro aloqador so‘zlar turli padejlarni boshqarishi ham mumkin. Bu hodisa tobe aloqaga kiruvchi so‘zlarga grammatik ta’sir bilan izohlanadi.

Qiyoslang:

*Защищать Родину – защита Родины
интересоваться наукой – интерес к науке,
наградить героя – награда герою.*

O‘zbek tilida juda kam hollarda boshqaruvchi so‘zning ot yoki otdan yasalgan fe’l ekanligiga qarab, tobe so‘z turli xil kelishik qo‘shimchalarini oladi. Masalan,

*Kosmonavtga mukofot – kosmonaftni mukofotlamoq,
Dushmanga nafrat – dushmandan nafratlanmoq.*

Ko‘p hollarda bir o‘zakli boshqaruvchi so‘zning u yoki bu so‘z turkumiga mansubligidan qat’i nazar, boshqarilayotgan so‘zshakli o‘zgarishsiz qoladi. Masalan,

*kitob o‘qimoq – kitobga qarash,
binoga qaramoq – binoga kirish,
deputatlikka saylanmoq – deputatlikka saylov.*

Rus tilida boshqaruv xarakteri ba’zan boshqaruvchi so‘zning morfologik tuzilishiga, jumladan, undagi u yoki bu old qo‘shimchani mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu bog‘liqlik old qo‘shimcha va predloglar o‘rtasidagi muayyan munosabatga asoslanadi, bunda ayrim predloglar ham ma’no, ham shakl jihatidan old qo‘shimchalarga o‘xshab ketadi. (masalan, *добраться до станции* va h.k.) yoxud faqat ma’no tarafidan old qo‘shimchalar bilan aloqador bo‘ladi (*выйти из дома, подойти к столу* *переехать через реку* va h.k.).

O‘zbek tilida old qo‘shimchalar bilan so‘z yasash hodisasi mavjud emas. Shu bois turli old qo‘shimchalar ko‘magida yasalgan ruscha so‘zlarning leksik ma’nosi o‘zbekchada tomoman boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalanadi. Taqqoslang:

*ходить в комнате – хонада урмақ,
выходить из комнаты – хонадан чиқмақ,
отходить от комнаты – хонадан нарикетмақ,
входить в комнату – хонага кирмақ.*

Rus tilining xarakterli xususiyati bo‘lgan tobe so‘zshakliga bosh so‘z morfologik tuzilishining ta’siri, shuningdek, ayrim old qo‘shimcha va predloglarning o‘zaro munosabati natijasida yuzaga kelgan birikmalar o‘zbek tilida boshqa o‘zakli so‘zlar bilan beriladi va tobe so‘z ko‘makchisiz qo‘llaniladi.

Daraja kategoriyasi fe’lning shaklini va leksik ma’nosini o‘zgartirib, boshqaruv aloqasiga ta’sir qiladigan asoslardan biridir. Fe’l darajalari subyekt va obyektning bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan) harakatga bo‘lgan munosabatini bildirib, u boshqarilayotgan so‘zning shaklini ham o‘zgartirishi mumkin. Misol,

Дочь обняла мать – Она обнялась с матерью.

Меня восхищает его знание – Я восхищаюсь его знанием.

O‘zbek tilida bir fe’lning o‘zi daraja shakli o‘zgarishi bilan turli xil kelishiklarni boshqara oladi, ba’zan fe’l darajalari shakllari belgisiz qo‘llanilib,

bosh darajaga mansub bo‘lgan boshqaruv shakliga teng bo‘lib qolishi ham mumkin. Masalan,

xat yozmoq, do‘sti bilan xat yozishmoq.

o‘quvchigaxat yozdirmoq.

Boshqaruv aloqasi tobe so‘zning leksik ma‘nosiga ham bog‘liq bo‘ladi. Turli leksik ma‘nolarga ega otlar bir bosh so‘z bilan aloqaga kirishib, birikma komponentlari orasida sintaktik munosabatni o‘zgartirishi mumkin.

на кого?

Наступать на противника (obyekt munosabati),

куда?

Наступать на юг (holatmunosabati)

на что?

опоздать на поезд (obyektmunosabati)

на сколько?

опоздать на час (holatmunosabati)

So‘nggi paytlarda o‘zbek tilida otli so‘z birikmalarining faollashishi kuzatilmoqda. Ularning tuzilishida “qilmoq”, “etmoq”, “bo‘lmoq” fe‘llari bilan yasalgan qo‘shma fe‘llar katta o‘rin tutadi. Yordamchi fe‘llarning tushirib qoldirilishi munosabati bilan otli so‘z birikmalari hosil bo‘ladi.

Va‘daga vafo qilmoq – va‘daga vafo

Do‘stga yordam bermoq – do‘stga yordam

O‘zbek tilshunosligida “bo‘yicha” ko‘makchisi bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmalarining ancha faollashgani qayd etilgan.

Hisoblash texnikasi bo‘yicha muhandis.

Futbol bo‘yicha O‘zbekiston birinchiligi.

O‘zbek tili bo‘yicha olimpiada va. h.k.

Qayd etilgan so‘z birikmalari o‘zbek tilining leksik va morfologik materiallari asosida tilning o‘ziga xos jihatlari inobatga olib tuzilgan.

Xullas, boshqaruv vositasida hosil bo‘ladigan so‘z birikmalari rus va o‘zbek tillarida qator umumiylik kasb etishiga qaramasdan, bu aloqali qurilishlar har ikki tilda aniq nutqiy vaziyatlarda farqlanadi va ular har bir til uchun o‘ziga xosdir.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov D. So‘zlarning boshqaruv munosabatlari // O‘zbek tilida adabiyoti, 2011. –1-son. –66-b.
2. Abdullayev F. So‘zlar o‘zaro qanday bog‘lanadi? –Toshkent, 1974.
3. Грамматика русского языка. Синтаксис. Т. II, ч. I. –М., 1980. –С.: 11.
4. Komilova X. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. –Toshkent, 2001.
5. Скобликова Е.С. Согласование и управление в русском языке. –М., 2001. –С.: 26.

6. Виноградов В.В. Грамматика русского языка. Т. II, ч. II, ч. – М., 2005. – С.: 22.

7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo., Idosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish

Atullo Rakhmatovich Akhmedov*

Sevara Mahmud qizi Po'latova**

Annotatsiya. Ushbu maqola arealogiyaning asosiy maqsadi sanalgan xaritalashtirish masalasidir. Bunda xaritalashtirishning turlari va dialektologik atlaslarning na'munalari borasida fikr yuritilgan. Xaritalashtirishdagi turli usullar muayyan xaritaning maqsadiga, mazmuniga, foydalanish shakliga va boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: *dialektologik atlaslar, diagramma, kartodiagramma, kartografiya, dialektografiya, anketa*

Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig'indisi dialektologik atlas sanaladi. Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini, uning millat bo'lib shakllanishini o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Xaritalar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin [1;45]. Masalan, harakatdagi hodisalarni ifodalovchi xaritalar. Bunda harakatdagi hodisalar alohida tasvirlash usuli sifatida xaritada ko'rsatiladi. Masalan, tojik tilining kengayib borish harakati, singormanizmning yo'qolib borish tezligi. Harakatdagi belgilar joylashish xarakteri bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin: nuqtali, chiziqli, maydonli, yoyilgan, uzluksiz. Xaritani maqsadiga va xaritaga olinayotgan hodisaning xususiyatiga mos holda harakatdagi belgilar yordamida harakatlanayotgan hodisaning yo'lini, harakat usulini, yo'nalishini va ko'chib yurish tezligini, sifatini, quvvatini ko'rsatishi mumkin. Grafik vositalar sifatida sterelkalardan, shuningdek har xil rangdagi, sur'atdagi va kenglikdagi chiziqlardan foydalaniladi.

Xaritada biror hodisani taqsimlanishini ma'lum hududiy bo'linish birligi ichida joylashtiriladigan va hodisani har xil hududiy birlik chegarasida jamlangan (yakuniy, umumiy) qiymatini (miqdorini) ayrim paytda esa tarkibini yoki dinamikasini ifodalaydigan diagrammalar yordamida tasvirlash usuliga kartodiagramma deyiladi.

Kartodiagrammalarni ko'rgazmali taqqoslash uchun, masalan hodisalarning tarqalish darajasini ko'rsatishda foydalaniladi. Kartografiyada chiziqli diagrammalar – ustunchalar, tasmachalar va shu kabi vositalardan foydalanish qulay.

Xaritalarda kamdan-kam hollarda bir xil usul ishlatiladi. Ikkita yoki uchta va undan ko'p usullarni birgalikda qo'shib ishlatish, muayyan xaritaning maqsadiga,

* Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi a.r.ahmedov@buxdu.uz

** Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi E-mail: sevaramahmudqizi@gmail.ru

mazmuniga, foydalanish usuliga va boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan. Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar quyidagilar: Venker va Vredelarning «Nemis tili atlası» (1876-1926-yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlası»; Qiperon va Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlası» (1902-1912-yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va Yudning 8 jildli «Italyan-Shveytsar atlası» (1928- 1940-yillar mobaynida yaratilgan). Moskvada tuzilgan «Moskva shahridagi markaziy oblastlar rus xalq shevalari atlası» (1957-yili nashr etilgan); «Shimoli-g'arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlası» (nashrga tayyorlangan) va respublikalarda nashr etilgan «Ukrayin tili xalq shevalari atlası», «Belarus tili xalq shevalari atlası» va boshqalar [2; 60].

O'zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o'zbek dialektologiyasi o'zining boshlang'ich etapi – dialektografiya bosqichini o'tab, endi u to'plangan boy material – baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug'ullanish bosqichiga o'tdi.

O'zbekistonda dialektologik ishlar uch yo'nalish bo'yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o'rganilmagan o'zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o'zbek shevalari lug'atini tuzish va o'zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

O'zbek tili shevalarini monografik o'rganish sohasida anchagina ishlar qilindi. Bunday kuzatishlarning natijalari maxsus monografiyalar, maqolalar va to'plamlarda e'lon qilindi. Ayrim tekshirishlarda keltirilgan leksik materiallar va ekspeditsiyalarda to'plangan materiallar asosida o'zbek shevalarining lug'ati tayyorlandi va nashr etildi.

O'zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan o'rganish ishi 1944-yilda boshlangan edi. Prof. A.K.Borovkov o'zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida «O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol - javoblar» anketasini tuzdi. Shu anketa asosida 1945-1950-yillar mobaynida Farg'ona vodiysi shevalaridan materiallar to'plandi. Lekin o'sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo'qligi bu materiallarni ishlab chiqish va kartalarga ko'chirish imkonini bermadi. Oradan 20 yil o'tgandan keyin 1965-yildan boshlab, o'zbek shevalari xususiyatlarini kartalashtirish ishi yana kun tartibiga qo'yildi va dialektal materiallar to'plana boshlandi.

O'zbek dialektlarini kartalashtirish ishini prof. V. V. Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini lingvistik tekshirdi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni kartaga ko'chirdi. O'zbek dialektologiyasida birinchi bo'lib o'zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi.

M. Mirzayev 1955-yilda «Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa», professor A.Aliyev 1964-yilda «Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa», 1976-yilda professor A. G'ulomov, A. Aliyev, K. Nazarovlar tomonidan «O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma» yaratdilar [3; 24].

O'zbek shevalarini lingo-geografik metod asosida ilmiy-tadqiq qilishda A.Shermatov samarali hissa qo'shdi. U «Qashqadaryo guruh shevalari kartasi» ni

tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o'z yakunini topdi.

Keyingi yillarda Orol bo'yi o'zbek shevalari, janubiy va shimoliy Tojikistonda yashovchi o'zbek shevalari, janubiy Qozog'istondagi O'zbek shevalarining lingvistik kartasi ustida qizg'in ish olib borildi.

O'zbek tili dialektologik atlasini tuzish o'zbek adabiy tili imlo va talaffuz normalarini fonetik tuzilishi sistemasi, grammatik qurilishi leksik tarkibini normallashtirishda aniqliklar kiritish uchun; o'zbek shevalarining mavjud tasniflarini to'ldirish, mukammallashtirish; adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri natijasida adabiy tilning o'zbek shevalararo normallashtirishini tezlashtiradi.

O'zbek dialektologlari o'z milliy tillari atlasini yaratish bilan bir qatorda, qardosh dialektologlar bilan birga «Turkiy tillar atlasini»ni ham tuzishni maqsad qilganlar. Bunday atlasni tuzish akademik V.M. Jirmunskiy tashabbusi bilan boshlangan edi.

Uning so'roqligi va programmasi 1960-70-yillarda bir necha bor muhokama qilinib, tasdiqlandi.

Har 3-4 yilda turkiy tillar atlasini yaratish bo'yicha Xalqaro miqiyosida konferensiyalar, yig'inlar o'tkazilib turilgan.

Umumturkiy lingvistik atlasning yaratilishi, turkiy xalqlar tili haqida yangi ma'lumotlar beradi, qardosh tillarning taraqqiyoti fikrimizni kengaytiradi, unga ilmiy nuqtayi nazardan aniqliklar kiritadi.

Ozarbayjon Fanlar akademiyasining akademigi prof. M.Sh.Shiraleyev ozarbayjon tili sharqiy sheva va dialektlar gruppasining dialektologik atlasini, G.Bakinova qirg'iz shevalarining atlasini, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urovlar Samarqand viloyati shevalarining lingvistik atlasini tuzishga kirishganlar.

O'zbek xalq shevalari atlasini hozirgi zamon o'zbek tili shevalarining rang-barang xususiyatlarini kartalarda ifodalaydi. Lingvistik kartalarda ko'rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi, tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti va o'zbek milliy tilining kelib chiqishi kabi masalalarni yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, atlas materiallari tarixchilar, etnograflar uchun ham foydalidir.

O'zbek tili dialektologik atlasini quyidagi vazifa-maqсадlarni ko'zda tutadi:

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili ma'lum shevalarga tayanadi. U o'zining imlo va talaffuz normalarini, shuningdek, fonetik sistemasi, grammatik tuzilishi, leksik sostavini normalashtirishda, asosan, Toshkent-Farg'ona til shevalariga asoslansa ham, ayrim hollarda bu shevalar materiallari adabiy til normalariga mos kelmaydi. Dialektologik atlasning obyektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to'liq aniqlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o'zbek tili hududida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik atlas zaminidagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o'zbek shevalarining mavjud tasniflarini to'ldirish, mukammallashtirishga, ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuningdek, o'zbek shevalarining paydo bo'lishida qatnashgan turkiy va turkiy bo'lmagan etnik gruppalarining o'zaro aloqalari natijasida ro'y bergan juda murakkab etnolingvistik taraqqiyot protsessini ham belgilab beradi.

3. Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri o'zbek xalq

shevalarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o‘zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o‘zbek adabiy tilining qo‘llanish doirasi kengaydi. Adabiy tilning barcha o‘zbek shevalararo normalasha borishi asta-sekin dialektal nutqni qisib, og‘zaki - so‘zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi. O‘tmishda genetik jihatdan turlicha bo‘lgan o‘zbek xalq shevalarining birlashishi uchun xalqning ekonomik va madaniy qoloqligi to‘sqinlik qilar edi. Xonliklar va ularning hududiy chegaralanganligi shevalararo farqlarning keskin saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Ayrim til faktlarining qisman aralashuvi va ular orasidagi o‘zaro farqning tekislasha borishi butun o‘zbek tili tarqalgan hududda bo‘lmay, balki bir-biriga yaqin, qo‘shni shevalarning o‘zaro munosabati natijasidagina sodir bo‘lgan edi. Hozir dialektal xususiyatlarning yo‘qolib borish jarayoni faqat yondosh shevalarning o‘zaro munosabati natijasidagina emas, balki maktab, vaqtli matbuot, radio va boshqalar orqali adabiy tilning kundalik va atroflicha ta’siri orqasida ham ro‘y bermoqda.

Ma’lumki, o‘zbek tili turkiy tillar orasida turli xil sheva va dialektlarga boyligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun bu tilni areal jihatdan o‘rganish va uning atlasini tuzish ishini biroz og‘irlashtiradi. O‘zbek tilini areal o‘rganish sheva va dialektlarga xos muhim xususiyatlarni – izoglossalarni aniq qayd etish har bir dialektologlarga ham yetarlicha qiyinchilik tug‘diradi. Tilni areal jihatdan o‘rganish, avvalo, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchidan hududlar bo‘yicha sheva elementlari aniqlab chiqiladi (bu borada bir qator ishlar qilinib, ushbu soha bo‘yicha qilinadigan ishlar yakunlangan desak ham bo‘ladi), ikkinchidan o‘zbek tilining dialektologik lug‘ati tuziladi shundan keyin biz o‘z atlasimizni tuzishimiz mumkin.

Hozirgi paytda Xorazm shevalari kartasini (prof. F.A.Abdullayev), Buxoro grupp shevalari kartasini (prof. M.Mirzayev), Namangan grupp shevalar kartasini (A.Aliyev), Qashqadaryo grupp shevalari kartasini (A.Shermatov) tuzish ishlari boshlab qo‘yilgan. Bugungi kunda ushbu ishlarni yakunlash bosqichi biz yoshlarning qo‘lidadir.

Adabiyotlar:

1. К.А. Салихев. Картография. – М.: Высшая школа, 1982.–Б. 45-104.
2. Муродова Н Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Фан, 2007. – 193 б.
3. Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981.– 58 б.
4. Юлдашева Дилором Нигматовна, Назарова Дилноза Ғуломовна. Ўзбек тили луғат бойлигининг муस्ताқиллик йилларидаги тараққиёти ва лексикографик муаммолар. – «Сўз санъати» халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) –2021, Том 4 № 3 (2021). DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-3> – Б. 212-219.
5. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o‘zbek tili

Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)

Adizova Nilufar Istamovna *

Annotatsiya. Har bir til ma'lum bir xalqning azaliy qadriyatlari, an'analari, udumlari, tarixi bilan bog'liq muhim jihatlarni-mentalitetini mujassam etishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada muayyan maqsadlarda qo'llanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini, millat qiyofasini namoyon etuvchi muhim vosita ekanligi, jumladan, muqobilsiz leksikaning o'zbek millati mentalitetini aks ettiruvchi til birliklari sifatidagi muhim roli Erkin Vohidov dostonlari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ifoda imkoniyatlari, milliy mentalitet, assotsiatsiya, ma'naviy qiyofa, muqobilsiz leksika, millat ruhi*

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda muhim sohalardan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Uning obykti madaniyat va tilning o'zaro aloqasi jarayonida, lisoniy va nutqiy birliklarning madaniyat belgisi sifatida tutashgan nuqtasida yuzaga chiqadi. U tilni madaniyat fenomeni, tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Muayyan bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon bo'ladi. Zero, har bir til ma'lum bir xalqning azaliy qadriyatlari, an'analari, udumlari, tarixi bilan bog'liq muhim jihatlarni-mentalitetini mujassam etishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, "...har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmushtarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo..." [1,8]. Haqiqatan ham, har qanday lisoniy birlik, nutqiy ifodalar muayyan bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarni ifoda etadi. Lingvistik madaniyat ob'yekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika kabi qator fundamental fanlar kesishmasida o'rganiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda muayyan maqsadlarda qo'llanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ifoda etuvchi, millat qiyofasini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida qo'llanadi. Ular *muqobilsiz leksik birliklar, lakunalar, mifologema, arxiteplar, paremiologik fondlar, frazeologik birliklar, ramzlar, o'xshatishlar, metaforik birliklar, nutqiy etiketlarkabi* til hodisalari zahirida yuzaga chiqadi.

* Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Muqobilsiz leksika. Boshqa bir tilga bir soʻz bilan tarjima qilib boʻlmaydigan, muayyan assotsiatsiyani yuzaga keltirmaydigan hodisa. Ular maʼlum bir xalq madaniyatiga xos belgilarni ifodalaydi va shu xalqning madaniy kodi sifatida qabul qilinadi. Bir tildagi soʻz boshqa tilda muqobilini topmagan oʻrinlarda lakuna (lot. "boʻshliq") yuzaga keladi.[2,47]. Bu kabi birliklar Oʻzbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov dostonlariga ham oʻziga xos joziba, madaniy qiyofa, milliy ruh baxsh etganini misollar asosida kuzatamiz:

Guzar. Oʻtish joyi; koʻcha, mahalla. Qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalar, qassoblik, baqqollik kabi doʻkonlari boʻlgan obod, gavjum joy. Buxoro xonligida: mahalla. [OʻTIL, 516]. Oʻzbek xalqida oʻziga xos qadriyatlar jamlangan, barchani bir yerga toʻplovchi ahamiyatga ega boʻlgan joy, mahalla maʼnosini ifodalash bilan bir qatorda milliy-madaniy ruhni, hamjihatlikni ham namoyon etadi.

Mulla. Oʻqimishli, taqvodor odam. Oʻrta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa taʼlimini olgan shaxs. Din arbobi, ulamo. [OʻTIL, 634]. Xalqimizda mullalar bilimli, xalqni toʻgʻri yoʻlga boshlovchi, eʼtiborli insonlar sifatida qadrlangan, ularning maslahatlariga quloq tutilgan.

Guzar. Uzun quloq. Odam tumonat. Ehtiyot! Bu yerda Ishonch omonat.

Bir **mulla** yutib Soʻzlaydi yuvvosh: "Ayb oʻzimizda, Odamlar bevosh. Imoni bilmaydi Na keksa, na yosh. Xotinlar beniqob, Qizlar yalang bosh.

"Gar gʻazab aylasa Xoliqi qudrat..." ...Shunday bayt aytibdur Huvaydo hazrat..." Bejiz aytilmagan, Bu haq begumon: Fojia va kulgu Doim yonmayon.[4,96-97]

Uy-joy oʻzbek millati uchun butun oilani jamlovchi, ajdodlar yodi, anʼanalari, qadriyatlari jamlangan maskanni ifoda etuvchi birlik. Shu bilan birga ushbu birlikning juft holda qoʻllanishi oiladagi toʻkislikka ham ishorani ifoda etadi. Azaldan uy-joyga ega oilaga nisbatan oʻziga toqʻ, kam-koʻstsiz yashaydigan, tinchligi, xotirjamligi taʼminlangan kishilar birligi sifatida qaralgan. Uyi yoʻq kishilarga hashar yoʻli bilan uylar qurib berish anʼanalari ham shundan kelib chiqqan. Badiiy adabiyotlarda, jumladan, muallif dostonlarida ham "**uy-joy**" toʻkinlik, xotirjamlik, shu bilan bir qatorda, mehr-oqibat ramzi sifatida aks ettirilgan:

Nimalar boʻlmaydi, Axir hayotda.

Uy-joyda gap emas, Jon boʻlsin omon.

Lekin shunday paytda Bilinar inson.

Bilinar kim tanti, Kim behamiyat. [4,94]

Deydilar, kulfatda- Yurak boʻlsa keng-

Toruy ham doʻst uchun Keng olamga teng. [4,96]

Hashar. Yigʻin, toʻda; yigʻilish, anjuman. Biror ishni bajarishda koʻpchilikning ixtiyoriy, begʻaraz ishtiroki, ixtiyoriy koʻmagi.[OʻTIL,517].

Xalqimizda biror-bir ishni hashar, koʻmak yoʻli bilan amalga oshirish anʼanasi qadriyat sifatida haligacha davom etib keladi. Bu odamlarimizning ahillik, birdamlik, odamgarchilik kabi milliy-madaniy oʻzligini namoyon etadi:

Butun xalq qoʻzgʻaldi, Ham burch, ham **hashar**. Qishda palatkada qolmas hamshahar... [4,96].

Bu ishlar o'tmishga Berildi bukun, Devorlar darz ketdi, Yuraklar butun. Binolar yiqildi, Odamlar yashar. Do'stlarin chaqirar **Hasharga** shahar. [4,94].

Nimalar bo'lmaydi, Axir, hayotda. Hali ishimiz ko'p, Hali ko'p **hashar**... [4,118].

Choyxona, ko'k choy, askiya, latifa kabi so'zlar ham xalqimizning milliy-o'zligini, madaniy hayoti va o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu ifodalar vositasida shoir xalqimiz shuurida mujassamlashgan sabr-toqat, matonatga ishora qiladi, mashaqqatlar o'yin-kulgi, xushchaqchaqlik bilan yengib o'tilishi, kelajakka hamisha umid bilan boqishini ifoda etadi:

Choyxona. Choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqariladigan jamoat joyi; samovar, samovarxona. [O'TIL,504].

Askiya. Ziyraklar, zakiylar. O'zbek xalq og'zaki ijodining bir janri bo'lib, unda so'zo'yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalshadi. [O'TIL,106].

Latifa. Nazokat, noziklik, oqilona so'z; anekdot. Kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya. [O'TIL,488].

O'tdi dahshatli kun, Qora sahifa. Bugun studentlar To'qir **latifa**... **Askiya** payrovi Eng yangi mavzu, Yana **choyxonadaKo'k choy** va kulgu... Yana kechagidek Uyg'onib sahar Tug'ruqqa patir Yasar **kampirlar**... Yana davom etar Odatiy hayot, Odamlar, Odamlar- Mujassam sabot.[4,98].

Qarilar, kampirlar, otalar kabi ifoda birliklari o'zbek millatiga xos bo'lgan kattalarga hurmat, qadrlash, ularni hayotiy tajribaga ega donishmand kishilar sifatida ko'rish kabi o'ziga xosliklarni namoyon etadi:

Pensiyaga chiqib, Toshkentga keldim, **Qarilar** joy olar Odatda to'rdan.

Yana kechagidek Uyg'onib sahar Tug'ruqqa patir Yasar **kampirlar**...[4,98].

Bolalar ketmoqda sokin, beozor, Do'mboq qo'llarida gullar, lolalar.

Kuzatgan **otalar**ichra balki bor Birinchi poyezdda kelgan bolalar.[4,102]

Oylar o'tib, Fasllar o'tib, Yosh qo'shildi qizning yoshiga.

Xaridorlar ostona o'pib Kela berdi **Ota** qoshiga. [4,126].

Buvim aytgan, Agar men tilak qilsam

Tilagim bo'larmish ijobat. [4,37]

Bizlar havo edik, Bir giyoh edik.

Tomchi shabnam edik, Va qatra ziyo

Bobolar bizni deb, Shu hayotni deb,

Mash'al ko'targanda Zulmatlar aro.

Hali biz yosh edik Biz go'dak edik,

Bir parcha et edik, Murg'akkina jon

Otalar bizni deb, Shu hayotni deb,

Begona ellarda Bo'lganda qurbon.

Otalar ruhini Shod etmaguncha,

Qaytib o'tirmoqqa Haqqing yo'q aslo! [4,46]

Belanchak. Chaqaloqlarni yotqizib ovutiladigan yoki uxlatiladigan, arg'imchoqdek yoki beshikdek tebratadigan moslama. O'zbek xalqi juda bolajon, bolaga bo'lgan mehrining cheki yo'q. Farzand ular uchun baxt, iqbol, hayotning chinakam mazmuni. Beshik, belanchak kabi birliklar ijodkorning shu maqsadlarini ifoda etish hamda voqeaning dahshatini gavdalantirish uchun qo'llanilgan.

[O‘TIL,219]. **Dasturxon** ham xalqimizga xos bo‘lgan shukronalik, rizq-nasiba ramzi sifatida qaraladi:

So‘ndi bu choshgohda bir qalb yulduzi...

Dasturxonda qoldi yarim kosa osh,
Qoldi silkingancha quruq **belanchak**,
Go‘dagini quchib,
Dod solib nogoh

Ko‘chaga yugurib chiqdi **kelinchak**. [4,104].

Kelin. Yangi turmushga chiqqan qiz. **Kelinchak** (“kelin”ning kichr.-erkl. shakli)

Kelinoyi. Akaning yoki yaqin qarindoshlarning xotini. [O‘TIL,345,346].

Badiiy asarlarda “**kelin**” ifoda birligi, ko‘proq, noziklik, tajribasizlik, navqironlik, go‘zallik, yangilik kabi ma’nolarni ifoda etish maqsadida qo‘llanadi. Ba’zan poetik tasvir maqsadi bilan “**chechak**” so‘zi ham shu ma’noni ifoda etadi:

Olucha shoxida titrar bir yaproq, Ariqcha jildirab oqar erinchak.

Siynasin g‘ijimlab, Uzoq yig‘ladi,

So‘ngra birdan qah-qah urdi **kelinchak**.

Hali parvoz etmay sindi bir qanot,

Bevaqt ochilmasdan so‘ndi bir **chechak**.

Qurbon bo‘lganlarning soniga kirmas

Yurakdan ayrilgan

Bitta **kelinchak**. [4,104].

“**Kelin oyi**” ifodasi, ba’zan, yoshi biroz katta, hayotiy tajribaga ega, hurmatga loyiq ayolga nisbatan ham qo‘llanadi:

Hayron bo‘lmang, ustingizdan

Arz qiluvchi joyimiz-

Na Sovmin, na Oliy Sovet,

Balki **kelin oyimiz**.

Axir siz ham sevishgansiz...

Xo‘p desangiz ajabmas,

Kelin oyim ikki og‘iz

“Qurib bering” desa bas. [4,115].

Sayil, sayilgoh, navro‘z, to‘y, tanbur, tor, chirmanda, shohi ro‘mol kabi birliklar zamirida xalqimizga xos bo‘lgan azaliy an’analar, qadriyatlar mujassam. Zero, Navro‘z bayramida sayillar uyushtirish, o‘yin-kulgular bilan xursandchilik qilish, davralar qurib, chirmanda-yu tanburlarning sho‘x-shodon kuylariga raqslarga tushish ming yillardan buyon azaliy-madaniy o‘zlikning ifodasi sifatida davom etib keladi.

Sayil. Sayr, piyoda yurish, kezish. Bahorda o‘tkaziladigan katta xalq sayr-tomoshalari.

Sayilgoh. Xalq sayllari o‘tkaziladigan joy, bog‘. [O‘TIL,422].

Tanbur, tor. Torli, chertma musiqa asbobi. [O‘TIL,660].

Chirmanda. Yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi: doira, childirma. [O‘TIL,483].

Navro‘z. Yangi kun. Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram. [O‘TIL,8].

Ayni bahor kulgan chog' edi, *Sayil*joyi so'lim bog' edi.

El yig'ilgan *navro*'z bazmiga, Barcha xushnud, Dillar chog' edi.

Avjda edi o'yin va xanda, Avjda edi *tanbur*, *chirmanda*

Yoshligini eslardi chollar Qiz, yigitlar lapar aytganda.

Tovus kabi Aylab xiromon, Raqsga tushdi bir go'zal jonon.

Bir-bir chiqib barcha o'sha kech San'atini qildi namoyon. [4,128].

Orzu ham bor edi *sayilda*, Qo'shiqqa band edi xayoli.

Shu yigitga mahliyo bo'lib, Boshdan tushdi *shohi ro'moli*... [4,129].

"Nomingni ham bilmayman, yigit, Maktub yozdim va lekin senga.

*Sayilgoh*da u kun ko'rdim-u, Yuragimda yondi alanga.[4,131].

O'zbek qizi edim, Yo'q edi shubham,

Bahor gullaridan boshimda *gultoj*.

Jamalak sochimni silab qo'shnilar,

Suyib atardilar meni "Oltinsoch". [4,107]

Kuylar edi yigit ishqidan, Yangrar edi qo'llarida *tor*.

Va dilrabo, sho'x qo'shiq bilan Jo'r bo'lardi Unga suluv yor. [4,136].

Kim dugona, Kim do'st-u yorki, Kela berdi sevgi *to'yiga*.

Kela berdi *to'ychi* hofizlar, Yo'lda sozlab *tanbur*, sozini.

Kela berdi raqqosa qizlar Ko'rsatmoqqa ishva-nozini.

Butun qishloq Bugun xurram, shod. Butun qishloq *sayilgoh* bugun.

Yaxshilarning dillari obod, Yomonlarning ko'ksida tugun.[4,137].

Tanbur, chirmanda, tor o'zbek xalqining xursandchiligi, baxtiyor damlari bilan bog'liq hodisalarni jonlantiradi. Nay ham azaldan go'zal kuyi bilan xalqimizning qadrli, sevimli musiqa asbobiga aylangan milliy cholg'u asbobi bo'lib, undan taraladigan mahzun kuy xalqimizning dard, alam, qayg'ulariga, ishq kechinmalariga jo'r bo'luvchi, dardiga malham ovoz sifatida qabul qilinadi. Shoir g'amgin, qayg'uli holatni aks ettirish uchun "*nay*"dan foydalanadi:

*Sayilgoh*da U kun chindan ham Xomush edi Og'ado'st *cho'pon*.

Barcha xurram, Faqat unda g'am, Qalbi edi dard bilan so'zon.

Cho'pon bir kun Chashma qoshida O'ltirardi *nay* chalib yolg'iz.

Shunda, Oppoq *ro'mol* boshida Suvga chiqdi bir dilrabo qiz.[4,132]

E.Vohidov ijodida qo'llangan har bir ifoda va birlik ijodkorning xalqimizga xos qadriyatlar, milliy o'zlik ruhini namoyon etishga qaratilgan ezgu maqsadini ro'yobga chiqaradi. "*Cho'l*" so'zi asosida shoir bepoyonlik, cheksizlik ma'nolarini ifodalasa, "*jigar*", "*tog'a*" so'zlarida mehribonlik, oqibatlilik, hamdardlik kabi ma'nolarni jamlaydi:

Hov ana, U yerda tugaydi o'rmon,

Davomi tutashdir poyonsiz *cho'lga*.

Cho'l orti men uchun eng aziz makon

O'zbekiston deya atalgan o'lka. [4,8]

Lekin taqdirimdan norizo bo'lsam,

Yolg'iz o'sdim desam yo'q zarra haqqim.

Ona bo'lib meni quchdi-yu o'lkam,

Ota bo'lib boshim siladi xalqim.

Jigar bo'lib boqdi necha mushfiq ko'z,

Necha do'st-yor topdim, necha birodar.

Esim tanib, menga “**Tog‘a**” degan so‘z
“Ota” degan so‘zga bo‘ldi barobar. [4,11]

“**Ketmon**” konsepti ham o‘zbek millatining o‘ziga xos faoliyatini ifoda etuvchi vosita bo‘lib, millatimizga xos mentalitetni, mehnatsevarlik, soddalik, kamtarlikni namoyon etadi:

Ko‘rib turibsanki, Uy buzmoqdaman,
Ketmon xizmatini Qilyapman bu kun.
Lekin or qilmayman, Xizmatmi-xizmat.

Zang bosgandan ko‘ra Bosay dedim chang.[4,99]

Paxta milliylik belgisi sifatida xalqimiz uchun bitmas-tuganmas boylik manbai deb qaraladi. “Paxta” konseptini shoir milliy mentalitetimizni namoyon etuvchi **stereotip**-mehnatkashlik, saxovatlilik, to‘kinlik, boylik ifodasi sifatida tasvirlaydi. Uning xalqimiz madaniy va moddiy hayotida tutgan o‘rnini shoir qo‘llagan “*sevgidek o‘lmas mavzu*”, “*oq po‘rsildoq*”, “*nur*”, “*gavhar*”, “*samar*”, “*dur*” kabi badiiy ifodalardan ham anglash qiyin emas:

Paxta... U *sevgidek mavzudir* o‘lmas,
U ilhom **chashmasi**-mangu **buloqdir**.
Ammo u chamanning ko‘ksida gulmas,
Yerning kaftidagi *oq po‘rsildoqdir*.

U jon rishtasidan yaralgan **samar**,
Chanoqqa jo bo‘lgan hovuch to‘la **nur**.
U manglay teridan yetilgan **gavhar**,
U nuri diydadan bino bo‘lgan **dur**. [4,17]

Haqiqatan ham, tilimizda aks etadigan shunday ifoda va birliklar borki, ular shunchaki chiroyli nutq vositasi emas, balki ular xalqimizning asriy qarashlari, ma’naviy hayotining asosi sifatida yuzaga kelgan, tasavvurimizda muhrlangan qadriyatlar, an’analar ifodasidir. Bu kabi birliklarning o‘z o‘rnida qo‘llanishi shoir Erkin Vohidov ijodining o‘ziga xos qirralarini, individual uslubini, xalqimizning milliy tafakkur tarziga mos uyg‘unlikni namoyon etadi.

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Saidova M., Qo‘ziyeva U. Lingvokulturologiya. –Namangan, 2017.
- 3.Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi.– Toshkent: Fan, 2013.
- 4.Воҳидов Э. Достонлар. – Тошкент, 1973.
- 5.Adizova N.I. Ona tili umummillat mulkidir.journal.buxdu.uz. Buxoro-2020.
- 6.Adizova N.I. Erkin Vohidov-inson kechmishlarining mohir kuychisi//Journal Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences.– Toshkent, 2021.

**Ўзбек тили миллий корпуси учун сўзлашув услубига хос сўзларни
теглаш масаласига оид**

Дилрабо Қудратиллаевна Элова*

* Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада қўлланиш доираси чегараланган сўзларни аннотациялашда изоҳли луғатда берилган пометаларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз юритилади. Жаргонлар ҳам асосан, сўзлашув услубида қўлланилгани боис бундай сўзларни услубий хосланиш доирасида автоматик ишлов бериш нуқтаи назаридан таҳлил этилади.

Калит сўзлар: *миллий корпус, тег, услубий тег, помета, сўзлашув услуби, жаргон*

Ўзбек тили корпусларида қўлланиш доираси чегараланган сўзлар ҳақидаги маълумотларни қидириш учун, аввало, корпус базасига сўзларнинг шундай хусусиятлари ҳақида теглар киритилиши лозим. Бунинг учун ўзбек тилининг изоҳли луғатида лексемаларга нутқ услубига тегишлилик ҳақидаги пометалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Жаргонлар ҳам асосан, сўзлашув услубида қўлланилгани боис бундай сўзларни услубий хосланиш доирасида автоматик ишлов бериш нуқтаи назаридан ўрганамиз.

Ушбу мақолада қўлланиш доираси чегараланган сўзларни аннотациялашда изоҳли луғатда берилган пометаларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз юритилади.

Тилдаги сўзларнинг қўлланиш даражаси шу тил эгалари доирасида бир хил эмас. Баъзи сўзлар улар томонидан бирдек фойдаланилса, баъзилари эса маълум ҳудудда яшовчи ёки маълум касб-ҳунар билан шуғулланувчи кишилар нутқидагина қўлланади. Шу жиҳатдан ўзбек тили лексикаси икки катта қатламга бўлинади:

- 1) Истеъмол доираси чегараланган лексика;
- 2) Умумистеъмолдаги лексика.

Истеъмол доираси чегараланган лексика қўлланиш доирасининг чегараланиш характериға кўра уч турға бўлинади:

- 1) диалектал лексика;
- 2) терминологик лексика;
- 3) жаргон ваарголар.

Маълум ҳудудда яшовчи кишилар нутқиға хос бўлган, адабий тил лексикасига кирмайдиган сўзлар диалектал лексикани ташкил этади. Маълум диалект ва шева вакиллариғина қўллайдиган бундай сўзлар диалектизмлар деб юритилади. Шеваға хос сўзлар маълум ҳудуднинг ўзига хос ҳудудий белгилари, ўзига хос луғат, грамматик, фонетик хусусиятларига эға бўлган сўзлашув тилини ҳосил қилади. Бундай сўз ва иборалар **шв.** белгиси билан ифодаланиб изоҳланган.

Масалан, **ШОТИ шв.** Нарвон..., **АВАРА шв.** Эвара., **АДА шв.** айн. ота **1. Ada, қозоз, қалам бергин деб, Гоҳ ёнимға келиб ўлтирар. С.Жўра.**

Шеваға хос сўзлар орасида ҳам омонимлик ҳодисасини кузатиш мумкин. Бундай сўзлар рим рақамлари билан белгиланиб, алоҳида-алоҳида изоҳланган. АДРАМКАШ I шв. Учи илмокди катға жуволдиз.

АДРАМКАШ II шв. Ҳар қандай нарсаға бефарқ қарайдиган, лоқайд, кўкноринамо одам.[1. 1-том, 42-б.]

Бундай сўзлар ўзбек тилининг изоҳли луғатида шв. белгиси остида изоҳланган.

Масалан, **ЁБОН** шв. Дала, дашт. *Куз оқшоми тўшалар сокин, пичан ҳиди анқир ёбондан.* Ш. Раҳмон, Юрак қирралари. *Замбарак-лар ёбонда бекор гумбурлаган йўқ, Бекор оқмади қонлар.. ва ўлди мардоналар.* Миртемир.[1

ЖАЗБАР шв. Чизғич. *Қачон унинг уйига борса, Акмал катта оқ қозоғга термилиб, учигнадай қюиб очилган турли қаламлар, ҳар хил жазбар.шр билан нималарнидир ўлчаб, чи-зибўтирган бўлади.* М. Ҳазраткулов, Журъат.[1. 1-том, 65-б.]

Профессионал ва илмий терминлар (атамалар) терминологик лексикани ташкил этади.

Илм-фан, техника, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларга оид тушунчаларнинг аниқ атамаси бўлган сўз ёки сўз бирикмаси термин (атама) дейилади. Ҳар бир фан, касб-хунар ўз терминларига, шу терминлар йиғиндисидан иборат лексикасига эга. Бундай махсус лексика терминология дебҳаматалади: физик терминология, лингвистик терминология каби.

Терминлар ёки атамалар муайян бир соҳага оид тушунчаларни аниқ ифода этувчи сўзлар бўлса-да, лекин бу сўзларнингқўлланиши шу соҳа кишилари доираси билан чегараланган бўлиши шарт эмас. Бунда икки ҳолатни кўриш мумкин:

1. Терминларнинг маъноси соҳага алоқаси бўлмаган кишилар учун ҳам тушунарли бўлади ва улар томонидан ҳам қўлланаверади.

2. Терминларнинг маълум қисми шу термин оид бўлган соҳа кишилари учун тушунарли бўлади ва шулар нутқида қўлланилади. Тилшуносликка оид: фонема, морфема, фон, валентлик каби.

Жаргонлар қўлланиши чегараланган лексика таркибига киради (frans. jargon). Касби, жамиятдаги ўрни, қизиқиши, ёшига кўра алоҳида ижтимоий гуруҳни ташкил этган кишиларнинг, асосан, оғзаки нутқида ишлатиладиган ва маъносини бошқалар кўп ҳолларда англаб етавермайдиган бирликлар жаргондир. Бундай сўзлар **жарг.** белгиси остида изоҳланган.

Масалан, **ЛИМОН** (юн. limoni) **1 бот.** Асосан жанубий мамлакатларда ўсадиган доимо яшил субтропик ўсимлик ва унинг тухумсимон сариқ нордон хушбўй меваси. *Лимон дарахти. Лимон солинган чой. Ҳозир Ўрта Осиёнинг жанубий қисмларида шакарқамиш, лимон сингари мевалар етиштирилмоқда.* “Фан ва турмуш”.

2 жарг. с.т. Миллион сўм (ушбу маъно “лимон” ва “миллион” сўзлари талаффузидаги ўхшашликка асосланган; дастлаб “рубль” учун қўлланган).[1.2-том, 581-б.]

ЛОЙЛАМОҚ 1 кам қўлл. айн. **лойқатмоқ 1.** *Душманларнинг тиниқ сувин лойласин.* “Ҳасанхон”.

2 жарг. Сотмоқ, пулламоқ. *Якшанбада эшагимни бозорга олиб бориб, ўттиз сўмга лойладим.* «Муштум».

3 жарг. Хуфия тарзда етказмоқ, билдирмоқ, “сотмоқ”. [1. 2-том, 590-б.]

There is one more aspect to the question. The most important thing is to train language owners to constantly use dictionaries. Because those who need it need to know how to properly and appropriately use the products that meet their needs. It is better to start solving this problem in school – in elementary school. While today's extremely intense and myriad types of information sources are evolving at unprecedented levels, modern dictionaries designed to quickly and easily find the information you need should provide educational and methodological support for native language lessons in primary and secondary schools.

It is concluded that, first of all, it is important that new units mastering the vocabulary of the Uzbek language are always in the focus of attention of specialists and strive to preserve the national culture in the structure of the language dictionary. The result of this activity is reflected in the thesaurus, e-learning corpus, computer dictionaries for online and offline work. Secondly, the state has set an important social task of teaching the native language: to develop a person who can independently and creatively think in Uzbek, express himself correctly and freely in oral and written form, understand the opinion of others, and develop culture. communication and reading. There is a growing need for textbooks for the mother tongue, such as textbooks, information banks and vocabulary minimums. Linguists of our time need to pay more attention to educational lexicography, that is, to create textbooks that reflect the linguistic landscape of the world in the minds of students belonging to a particular education system and serve to form competence in the practical use of the language.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000.
3. Ёлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // Навоий ДПИ ахборотномаси, 2015, 1-сон. – Б. 66-72.
4. Менглиев Б.Р., Бахриддинова Б.М. Ўқув луғатчилиги: талаб ва эҳтиёж/ Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий тўплам. – Тошкент, 2009. – Б.34-41.
5. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 124 б.

Тиббий бирликларнинг электрон луғатлари хусусида

Ражабов Дилшод Зарипович*

Аннотация. Мақолада янги фаол лексикографик системаларни яратиш, бунинг натижаси сифатида анъанавий луғатлардан автоматлашган (электрон) луғатлар яратиш долзарблиги хусусида фикр юритилган. Хусусан, интернет тизимида мавжуд электрон луғатларнинг анъанавий луғатлардан устунлиги, қулайлиги ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: *луғат, автоматлашган, мобиллик, лексикография, лингвистик, ахборот қидирув*

Маълумки, кейинги йилларда ўзбек тилининг тарихи, субстанциал табиати, имкониятлари, бошқа тиллар сирасида тутган ўрни каби жиҳатларини ўрганиш ва ёритиб беришга бағишланган турли илмий ишлар билан бир қаторда этимологик, антропонимик, диалектал, топонимик,

* БухДУ доценти, ф.ф.д (DSc)

морфемик, синонимик, антонимик, омонимик каби луғат турлари нашр этилди. Бироқ турли касб доирасида фаолият олиб бораётган соҳа вакиллари учун соҳавий электрон луғатларнинг яратилмаганлиги, амалий асослари ишланмаганлиги ва илмий тамойиллари белгиланмаганлигини ўзбек луғатчилигининг келгусидаги вазифалари дейиш мумкин.

Луғат нима? “Ўзбек тили изоҳли луғати”да «луғат» сўзига куйидагича таъриф берилган: «арабча» сўздан олинган бўлиб, “тил, шева, сўз, ибора” маъноларни англантиб, “бирор тилдаги сўзларни маълум тартибда (одатда алифбо тартибида) жамлаб, изоҳлаб ёки бошқа тилга таржима қилиб берилган китоб ва тилдаги барча сўзлар мажмуи; сўз бойлиги”каби маъноларда қўлланилади. Google тизимида интернет манбаларда эса: «Луғат» - аҳамияти, ишлатилиши, келиб чиқиши, таржимаси бўйича маълум бир тартибда жойлаштирилган сўзлар тўпламини: морфемалар, сўз бирикмалари, идиомалар ва бошқалар тўпламини – лингвистик тўпламини; фан, маданиятнинг турли соҳаларида фаолият кўрсатган машхур кишилар тўғрисидаги маълумотларни – янги энциклопедик тўпламини ўзида сақловчи бир китоб” деган таъриф келтирилади.

Француз ёзувчиси Анатоль Франс: «Луғат – бу алифбо тарзида жойлаштирилган коинотдир»,- дея таъриф берган. Анатоль Франс тўла ҳақли. Унинг фикрича, “луғатлар бизга ниманидир билмаганмиздагина керак эмас, балки улар миллий маданиятнинг муҳим бирлигини намоён этганлиги учун, миллатнинг ўзлигини кўрсатиш учун аҳамиятлидир”.

Олимларнинг таъкидлашича, луғатларни турларга ажратиш турли сабабларга кўра юзага келади: луғатнинг мақсади, ҳажми, унда сўзлар қандай жойлаштирилганлиги, тавсиф объекти ва ҳоказоларга боғлиқ. Ушбу фарқланувчи хусусиятларнинг аксарияти бир-бирига суянган ҳолда бир хил луғатда бирлашади, бошқалари эса бир-биридан ажралиб туриб, мутлақо бошқа турдаги луғатлар учун асос бўлиб хизмат қилади.

Анъанавий луғатлардан кўра электрон луғатларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Электрон луғат нима? Интернетнинг wikipedia тизимида: «электрон луғат» сўзи “компьютерда ёки бошқа электрон техник воситалардаги луғатдир”, деб таърифланган. Ахборот-қидирув тизимига солинган луғатлар тўплами электрон луғатлар ҳисобланади. Турли мақсадлар учун йиғилган, ўзгарувчан ҳажмга эга электрон луғатлар тўплами мисол бўла олади. Луғатлар қоғозли ва электрон бўлади. Бундан ташқари луғатлар турли вазифаларга эга ва улар шу хусусияти билан фарқланади.

Бугунги кунда тилшунослигининг янги йўналишини ифодаловчи соҳа лексикаси изланувчилар зиммасига катта вазифани юклайди. Ўзбек тилшунослигида соҳавий тилшунослик янги соҳа бўлгани боис, уни ривожлантиришда, ундаги имкониятлардан амалий фойдаланишда ҳамда бу соҳанинг самарадорлигини оширишда электрон луғатлар яратишни талаб қилади. Айниқса, тиббиёт бирликларини тўплаш, уларни электрон кўринишларини жорий этиш фақат соҳа мутахассисларини эмас балки, бутун инсоният соғлиги учун асосий манба вазифасини ўтайди. Шифокор кўригига борган бемор албатта, соғлиги тўғрисида айтилган ҳар бир сўзни, тиббий атамани ўз маъносича тўғри талқин қилишни хоҳлайди. Тиббиётга оид

янгиликлар, касалликлар, дориларнинг номи, ташхис турлари, текширув қурилмаларининг номи неча асрлар давомида лотин-юнон тилида берилган. Жамият, давр ва тиббиёт соҳасининг тараққийлашуви билан мазкур ўзгаришларни ўзида ифода этувчи янги тиббий атамаларга эҳтиёж сезилмоқда. Ҳозирги кунда ҳам бу жараён давом этмоқда. Янгидан янги касалликлар кашф қилиниши билан, уларга даъво чоралари изланмоқда. Мазкур ўзгаришлар нафақат тиббиётда, балки тилшуносликнинг ономасиология ҳамда лексикография соҳаларида ҳам ўз аксини топиб, уларни ҳам бойитиб бормоқда. Тиббиётга оид тиббий бирликлар электрон луғатларнинг яратилиши муаммолар ечими сифатида хизмат қилади. Электрон луғатлар анъанавий луғатларга нисбатан аниқ ва муҳим афзалликларга эга. Электрон луғатлар нафақат ўз ҳажми жиҳатидан китобий луғатлардан бир неча баробар устун, балки фойдаланувчиларга зарур сўзларни ва сўз бирикмаларини жуда тез топади. Бундай луғатларда ҳар қандай қидирув шаклини амалга ошириш мумкин. Масалан, инглиз тилига мослаштирилган *abby lingvo* электрон луғати нафақат транскрипцияларни, балки сўзлар талаффузини ҳам ўзида мужассамлаштирган. Бунда иккита ёндошув кузатилади. Мультилексда товуш синтезатори ўрнатилган ва унда барча сўзлар талаффузи мавжуд. Лекин ундаги транскрипцияни назорат қилмасдан туриб унга тўлиқ ишониш ҳам мумкин эмас. Чунки синтезатор урғуни нотўғри қўйиши билан сўзларни бузиб айтилишига сабаб бўлади. Синтезаторлардан *abby lingvo* да лексикани диктор оксфорд шеvasида эшиттиради. Лекин, албатта, электрон луғатларнинг энг асосий устунлиги шудаки унда сўз нафақат луғавий шаклда, балки базанинг бутун ҳажми миқёсида қидирилади. Бу эса қоғоз вариантыда иложсиздир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, замонавий тилшуносликнинг ютуқлари асосида бугунги кунда ўзбек тили луғатларини компьютер технологиялари асосида қуриш ва қайта ишлаш, унинг қўлланишини маълум бир шароит, турли шароит учун моделлаштириш, она тилимиз компьютер моделларини лингвистика ёки бошқа соҳаларда қўллаш, техника таржимаси кабилар бўйича эришилаётган сезиларли ютуқлар соҳавий тилшуносликнинг ривожланишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Карпова О. М., Менагаршвили О. В. Электронные словари и кибернетическая лексикография: метод. рекомендации к спецкурсу. - Иваново: Иван. гос. ун-т, 2002. -45 с.
2. Кибернетическая лексикография. Захаров В. 1 А -10 ФИЯ ЧГУ имени И. Н. Ульянова.электр.ресурс.<http://www.myshared.ru/slide/10492/>
3. Крысин Л. «Учительская газета», №5, 9 февраля 2010 года.<http://www.ug.ru/archive/30237#:~:text=%D0%>
4. Мадвалиев А. Термин – терминологик луғат – изоҳли луғат // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008. - №6. – Б. 54-67.

Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili

Annotation. An important requirement for ad texts is the maximum amount of information that can be used. Short text is better received by the reader. It should not contain words that are semantically difficult to understand. Don't use obscure, unfamiliar words (especially complex medical terms) in the text. Because the customer cannot be forced to think long and hard about the text, it is important to convey the main idea in an easy and understandable language. This article argues that advertising texts should be short, simple, and understandable, taking into account the characteristics of the target audience. The ideas cited are based on the example of medical advertising.

Key words: *medical advertising, addressee, effective advertising text, shortness*

Reklama olamida reklama yaratuvchilar kopirayterlar deya nomlanadi. Dictionary.com manbasiga ko'ra, **kopirayter** (copywriter) reklamani yaratuvchi shaxs bo'lib, dastlabki reklama kopirayteri qadimgi Bobil davridan mavjud bo'lgan. [<https://www.dictionary.com/browse/copywriter>]. "To'g'ri yozamiz" blogi mutaxassisi fikriga ko'ra: kopirayterlar ko'plab insonlar bilan ishlaydigan tajribali "sotuvchi"lardir [<https://t.me/xatoliklar/1287>]. Bevosita kopirayterlik bilan shug'ullanuvchilar kasbini anglatuvchi maxsus atama ham mavjud bo'lib, u **kopirayting** deb yuritiladi. Kopirayting – bu mukammal imlo va grammatika, qat'iy uslubiyat va noyob ma'lumotlar yig'indisining foydali va betakror ko'rinishidir [<https://t.me/xatoliklar/990>]. Mahsulotni ommaga yetkazish, shu bilan birga xaridorlar auditoriyasining shakllanishida reklama muhim o'rin tutadi. Samarali reklama matnini yaratishda esa kopirayterdan alohida bilim va iqtidor talab etiladi. Dunyodagi jamiki mahoratli kopirayterlar AIDA qonuniyati asosida ishlash ko'nikmasiga egadirlar. AIDA reklama formulasi bo'lib, u 1896-yilda afsonaviy amerikalik kopirayter Elias Lyuis tomonidan ixtiro qilingan. AIDA hali hanuz kopirayterlar tomonidan keng qo'llanib kelinmoqda. Ko'rinib turibdiki, shuncha yillar davomida u to'rt yuz marta yangilangan bo'lishi kerak edi, ammo bu qoidalarga muvofiq yaratilgan reklama hali ham o'z egalariga ajoyib muvaffaqiyat keltiradi, albatta, agar u to'g'ri tuzilgan bo'lsa [<https://rus--media-pro.translate.google.com/articles/prodayushchaya-reklama-po-klassicheskoy-formule-aida? x tr sl=ru& x tr tl=uz& x tr hl=uz& x tr pto=nui,sc>]. AIDA inglizcha so'zlarning qisqartmasi bo'lib, ularning har biri samarali reklama yaratish uchun ahamiyatlidir:

- A** – attention;
- I** – interest;
- D** – desire;
- A** – action.

Attention (e'tibor) – bugungi globalashuv davrida, ayniqsa, xilma-xil axborotlarga to'lib-toshgan jamiyatda kishilar e'tiborini jalb qilish marketing sohasi uchun juda muhim hisoblanadi. Marketingda bir qoida mavjud: sizning mahsulotingiz odamlar e'tiborini torta olmayaptimi, demak, siz sota olmaysiz. Shu

sababdan reklama odamlar e'tiborini bir necha soniyaning o'zidayoq jalb qila olishi lozim.

Interest (qiziqish) – reklamada e'tiborni jalb qilish(attention)dan keyingi qadam, kishilarda reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatga nisbatan qiziqish uyg'otishdir. Reklama adresatlar uchun qay darajada foydali, u odamlarning qanday muammolariga yechim bo'la oladi yoxud qanday qulayliklarni taklif etadi? Bu bosqichda reklama mana shu kabi savollarga javob bera olishi kerak. Mahoratli kopirayterlar matnning aynan mana shu qismi yordamida o'quvchida shunday fikrlar hosil qila oladilarki, adresat avval o'ylab ham ko'rmagan narsasiga ehtiyoj seza boshlaydi. Reklamanning (interest) qiziqish uyg'otish bosqichida kopirayter adresatlarning mavjud muammolaridan “yaxshigina” xabardor ekanligini va bu muammolarni yechishning samarali usuli borligini bildirishi kerak bo'ladi.

Desire (xohish-istak) – bu bosqichda adresatlar nima sababdan taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatni tanlashlari kerakligiga, aynan shu mahsulot ular muammosining yechimi bo'la olishiga ishonch hosil qilishlari kerak bo'ladi. Buning uchun kopirayterlar taklifning afzalliklari haqida gapirishlari kerak bo'ladi. Reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning afzalliklari shunchaki quruq gaplar bilan emas, balki aniq dalillar, raqamlar, tadqiqot natijalari bilan boyitilgan holda ifodalanishi lozim bo'ladi.

Action (harakat) – bu eng muhim so'nggi bosqich bo'lib, reklamanning muvaffaqiyati yoki, aksincha, muvaffaqiyatsizligi aynan shu bosqichda hal bo'ladi. Kopirayter aynan shu bosqichda adresatlarga rad etib bo'lmaydigan taklif berib, ularni harakatga keltirishi (reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olishga yoki xizmatdan foydalanishga “shoshiltirishi”) lozim bo'ladi. Reklama matnining bu qismida chegirmalar, bonuslar, qo'shimcha imtiyozlar haqida ma'lumot berilib, vaqt jihatdan chegara mavjud ekanligi va bu imkoniyat hammaga ham nasib etavermasligini adresatlarga uqtirish yaxshi samara beradi. Matn so'ngida bog'lanish uchun telefon raqamlari va manzilni berish lozim.

AIDA yordami bilan Danone, Procter & Gamble, Evalar, Pedigree kabi jahonning yirik korporatsiyalari milliardlab daromad olgan va topishda davom etmoqdalar.

Reklama matnlariga qo'yiladigan muhim talab – bu so'zlar minimal darajada qo'llangan maksimal ma'lumot. Qisqa matn o'quvchi tomonidan yaxshiroq qabul qilinadi. Unda semantik jihatdan tushunilishi murakkab bo'lgan so'zlar bo'lmasligi kerak. Matnda tushunarsiz, ko'pchilikka tanish bo'lmagan so'zlar (ayniqsa, tibbiyotga oid murakkab ilmiy terminlar)dan foydalanmaslik lozim. Chunki xaridorni matn haqida uzoq o'ylashga majburlab bo'lmaydi, asosiy fikrni uning ongiga oson va tushunarli tilda yetkazish esa muhim vazifa hisoblanadi. Matndagi so'zlar soni shunday bo'lishi kerakki, xaridor uni bir qarashda osongina tushunsin. Shu sababdan tibbiy reklamada reklama qilinayotgan mahsulot (xizmat) haqidagi axborotni auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazib berish muhim hisoblanadi. Bunda reklama matnlarini yaratishda asosan sodda gaplardan foydalanish, qisqa jummalarni qo'llash yaxshi samara beradi. Xo'sh, tibbiy reklamalarda mana shu tamoyilga qay darajada amal qilinmoqda? Quyida ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinayotgan “MEN” dori vositasi reklama matni bilan tanishamiz:

MEN oltoy nektari konsentrlangan sharbatdan tayyorlangan suyuq oziq-ovqat mahsuloti bo'lib, uning tarkibiga tabiiy lazzat hosil qiluvchi moddalar qo'shilgan. Oltoy o'lkasining tog'li hududlaridagi shifobaxsh o'simliklar yig'indisidan tarkib topgan MEN mahsuloti inson organizmi uchun foydali ozuqa hisoblanadi. Mahsulotning tarkibi tabiiy o'simliklardan, jumladan, suvekstrakti, moychechakguli, qizilmiyaldizi, qora smarodina bargi, otquloqo'ti, o'pka o'ti, kastoreum, pantogematogen fruktozadan iborat. MEN o'zgarmas tabiiy shaklga ega bo'lib, qonga tez kirib boradi. Peshob naychalarining yallig'lanishini barataraf etishga yordam beradi. Tos a'zolarida qon aylanishini oshiradi, gormonal fonni normallashtiradi. Mahsulot prostata bezi patologik holatlarini oldini olishda mushakham dayog' hujayralarining fiziologik muvozanatini me'yorga keltirishga yordam beradi. MEN me'daga kuch beradi. Surunkali gastritlarda, xolestitsidda, o't yo'llari dispenziyasida, surunkali gepotitlarda, oshqozon yarasida, tish sarg'ayishida, asab faoliyati, nafas yo'llari va shamollashlarni bartaraf qilishga ko'maklashadi.

Manzilimiz: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 9-tor ko'chasi, Yangi shahar ko'chasi, 4-uy. +99871 2058777

Ushbu tibbiy reklama matni g'oyat "uzun", keng ma'lumotni qamrab olgan. Qolaversa, yuqoridagi matnda ilmiy uslub yetakchilik qiladi. Shu bilan birga yuqoridagi tibbiy reklama matnida adresat(reklamani qabul qiluvchi)lar auditoriyasining salohiyati inobatga olinmagan. Bu esa tibbiy reklamaning samaradorligiga putur yetkazadi, shu bilan birga, adresatlar ma'lumotni qabul qilishga o'zlarida ehtiyoj sezmaydilar. Shuningdek, reklama roligidagi bir xil tasvirning qayta-qayta berilishi (matnlar o'zgaradi xolos) ham adresatni zeriktiradi(1-rasm).



1-rasm. “MEN” dori vositasi reklamasi tasviri

Nikita Belogolovsev ta’biri bilan aytganda: “... odamlarning ko’pchiligi televizion reklamalarni tomosha qilishdan bosh tortishadi, chunki odatda reklamachilar reklamalarni oddiy narsadan boshlaydilar. Bilasizmi, bundan keyin hayajonli narsa bo’ladi, lekin tomoshabin bilmaydi. U buni hech qachon bilmaydi, u allaqachon televizorni o’chirib, hammomga ketgan bo’ladi [Белоголовцев; <http://spb.media/blog/po-devidu-ogilvi-14-sovetov-kak-napisat-horoshiy-reklamnyy-tekst>]”. Quyida biz yuqoridagi tibbiy mahsulotning biroz boshqacha yondashuv asosidagi reklama matnini keltiramiz:

Maqbul variant

- *Eh, qaniydi, bolaga aylanib qolsam-u, ko’chamizda shataloq otib yugursam...*
- *Do ‘stim, senga nima bo’ldi? Nimadan bezovtasan?*
- *Surunkali charchoqni his qilyapman, oshqozonim, o’t yo’llarimda muammo bor. Sal narsaga asabiy bo’lib qolganman.*
- *Siqilishga ne hojat? Axir “MEN” bor-ku!*
- *Sen?*
- *Yo’q, “MEN”! (dori vositasi jonli ko’rsatiladi)*

MEN o’zgaras tabiiy shaklga ega bo’lib, qonga tez kirib boradi. MEN me’daga kuch beradi. O’t yo’llari yallig’lanishi, oshqozon yarasi, tish sarg’ayishi, asab faoliyati, nafas yo’llari va shamollashlarni bartaraf qilishga ko’maklashadi.

- *Yosharib ketibsanmi, do ‘stim?!*
“MEN” – yoshlik quvvati!

Reklama roligi ostida:

Manzilimiz: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 9-tor ko'chasi, Yangi shahar ko'chasi, 4-uy. +998 712 05 87 77

Tibbiy reklama matnida vizual, aniq tasvirni yaratadigan, reklama qiymati oshgan, katta hissiy kuchga ega so'zlar qo'llanishi lozim.

Dunyoning eng mashhur reklamashunoslaridan biri Klod Xopkins 1923-yilda yaratgan "Ilmiy reklama" kitobida shunday yozgan edi: "Qisqa yoz, odamlar vaqtini tejaysan!" [Клод Хопкинс; 2006. № 4. -С.45 –57] Demak, reklamadagi qisqalik va soddalik reklama auditoriyasini kengaytirishning muhim omilidir. Shu o'rinda zamonaviy reklama otasi deya nom qozongan reklamashunos olim Devid Ogilvining: "Agar xaridor ikki og'iz so'z, maqtov bilan biror narsani sotib oladi, deb o'ylasangiz, adashasiz. Unga mahsulot haqidagi batafsil ma'lumot kerak" [Огилви, 2009:43], –degan fikrlarini ham unutmash lozim. Reklama matni ixcham, soddagina, tushunarli bo'lishi bilan birga mahsulot haqidagi ma'lumotni yetarlicha qamrab olishi ham juda muhim hisoblanadi.

Reklamashunos A.P. Repev o'zining "Reklama tili" asarida qisqa vaqt ichida zarur axborot berishning naqadar mashaqqatli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifa ekanligini quyidagi hayotiy voqea asosida dalillaydi:

Bir yozuvchidan bir necha so'z aytishni so'rashdi.

– Kechirasiz, –javob berdi usta, – lekin o'n daqiqalik nutq so'zlash uchun men kamida uch hafta tayyorgarlik ko'rishim kerak.

– Bir soat davomida chiqish uchun qancha vaqt tayyorgarlik ko'rish kerak?

– Uch kun.

– Agar uch soat gaplashishga to'g'ri kelsa-chi?

– Men hoziroq boshlashim mumkin.

Reklama matnlari muallifi "bir daqiqalik nutq" ni gapira olishi kerak, bunda u bir soat davomida material qo'yishi kerak. Ko'p sonli savdo nuqtalari bilan kichik reklama yaratish uzoq muddatli prospektidan ko'ra bir necha barobar qiyinroq. Yaxshi reklama beruvchi yaxshi jarrohga o'xshaydi - ikkalasi ham u yoki bu vositani ishlatishdan oldin uch marta o'ylashadi [Репев, http://www.repiev.ru/articles/ad_langII.htm]. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xorazmlik saylovchilar bilan bo'lgan uchrashuvda "yomon o'qigan injener traktorni buzadi, yomon o'qigan shifokor odamni o'ldiradi" deya ta'kidlagan edilar. Yolg'on axborot bergan tibbiy reklama kopirayteri (reklama matnini yaratuvchi) yomon o'qigan shifokor bilan barobar. U insonni o'ldirishi, shu bilan reklama qilinayotgan tibbiy mahsulot iqtisodiyotining inqirozga yuz tutishiga sababchi bo'lib qolishi hech gap emas. Tadqiqotchi D.Mamirova muvaffaqiyatli reklama yaratish uchun reklamachi (kopirayter) yaxshi iqtisodchi, yaxshi lingvist bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [Мамирова, 2021: 42]. Fikrimizcha, kopirayterlar samarali tibbiy reklama yarata olishi uchun yaxshi iqtisodchi, yaxshi lingvist bo'lishi bilan birga yaxshi farmasevt (tibbiy bilimga ega) ham bo'lishlari lozim. Chunki muvaffaqiyatli tibbiy reklama e'tiborni jalb qila oladigan, Ogilvi ta'biri bilan aytganda, "sotadigan" bo'lishi bilan birga tibbiy jihatdan to'g'ri asoslangan bo'lishi g'oyat muhim hisoblanadi. Zero, tibbiyotga oid reklamada inson salomatligi masalasi birinchi o'rinda turadi.

Adabiyotlar:

1. Белоголовцев Н. По Дэвиду Огилви: 14 советов как написать хороший рекламный текст. <http://spb.media/blog/po-devidu-ogilvi-14-sovetov-kak-napisat-horoshiy-reklamnyy-tekst>
2. Хопкинс К. Научная реклама. Телескоп: наблюдения за повседневной жизнью петербуржцев. – М., 2006. № 4. С. 45-57.
3. Огилви Д. Тайны рекламного двора. 2009. С.–43. www.koob.ru
4. Репев А.П. Язык рекламы. Часть II. http://www.repiev.ru/articles/ad_langII.htm
5. Мамирова Д. Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.–Самарқанд, 2021.

Шифокор нутқининг лингвистик хусусиятлари

Тоирова Гули Ибрагимовна *

Аннотация: Ушбу мақола шифокор нутқи этикаси ва унинг лингвистик хусусиятларини ўрганишга бағишланган. Унда шифокор нутқида мавжуд сўз, сўз бирикма, гапларнинг лингвистик ҳамда услубий хусусиятлари аниқланган, мисоллар билан изоҳланган. Бундай сўзларнинг таъсир доирасини, яъни прагматикасини илмий жиҳатдан ўрганиш зарурати ҳақида фикр юритилган. Мақолада шифокор-бемор мулоқоти ва унинг этикаси билан боғлиқ маълумотлар илмий асосланган. Нутқимиздаги сўзларнинг кудрати нақадар кучли таъсир воситаси эканлиги ёритилган. Хусусан, беморнинг шифокорга берган маълумоти орқали аниқ ва тўғри ташхис қўйиш ёки шифокорнинг касаллик бўйича берган маълумоти давомида тиббий эвфемизм, перифразалардан ўринли фойдаланишининг аҳамияти мақолада ўз ифодасини топган.

Калит сўзлар: *тиббиёт тили, тиббий эвфемизм, тиббий перифраза, мулоқот, термин, касаллик номи, лексика, лингвопрагматик, нутқ, тушунча, психология*

Кириш. Тиббиётнинг ўзига хос хусусияти доимо инсоннинг кундалик ҳаёти билан чамбарчас боғлиқлигидир. Кўп асрлар давомида шаклланган ва бизнинг давримизда жадал ривожланиб келаётган тиббиёт тили - бу кундалик ҳаёт соҳасини ҳам, илмий билимларни ҳам қамраб оладиган ва ҳар иккала соҳанинг таъсири бўлган маконни ҳам ўз ичига олган улкан кўп босқичли тузилма. Ушбу хилма-хиллик, айниқса, тиббиётнинг оғзаки тилида - шифокорлар ва беморлар ўртасидаги мулоқотда сезилади. Ушбу турдаги алоқа мавжудлиги, албатта, тилшунослар томонидан илмий тушунишни ва амалий тавсифни талаб қилади. "Шифокор - бемор" мулоқотида шифокор учун бемор томонидан айтилган ҳар бир гап касалларнинг ташхисини қўйиш учун муҳим аҳамиятга эга. Масалан:

“Ҳозир(яқин орада) чалинган касаллик тарихига оид сўзлашув” кўйидаги сўзлар қўлланилади:

* Бухоро давлат университети филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент tugulijon@mail.ru

- *Ҳозир сизни(бош оғриши, бош айланиши, йўтал, кунгил айниш...)безовта қилаяптими?*
- *Кўрсатинг-чи, қаерингиз оғрияпти?*
- *Касаллик қачондан бошланди?*
- *Қанча вақт ...(соат, кун, ҳафта...) ўтди?*
- *Ҳароратингизни(эрталаб, кеч кечқурун.....)ўлчадингизми?*

Шунингдек, бемор ўзининг соғлиғи тўғрисида максимал даражада хабардор бўлиши, у шифокорнинг барча тавсияларини тўғри бажариши, уларни бузмаслиги ёки эътиборсиз қолдирмаслиги шифокор томонидан айтилган ҳар бир сўзга боғлиқ. Шифокор беморни тинглаши, унинг фикрларини идрок этиши, қабул қилиши, ўзининг хайрихоҳлигини билдириши, самимий бўлиши жуда катта аҳамиятга эга. Беморга мумкин қадар кўпроқ ўзи, касаллиги ҳақида гапиришига имкон бериши, ўз диққат-эътиборини беморга қаратиши шифокор этикасининг муҳим томонидир. Саволлар бериб, унинг гапини тўхтатиб қўймаслик, сўзларини охиригача эшитиш, бемор билан ширин муомалада бўлиш орқали беморнинг ишончини қозониш мумкин бўлади. Дарҳақиқат, Саъдий Шерозий: «...Юмшоқ муомала, ширин сўз одам бир гап билан тортиб кетар филни ҳам...», - деб бежиз айтмаганлар[11]. Шифокор беморнинг касаллигини сир саклаши, беморнинг ҳаёти ва соғлиғи учун тиббиёт ходимининг жавобгарлиги, тиббиёт ходимларининг ўзаро муносабати масалалари шифокор этикетига киради[12]. Тиббиёт деонтологиясига мувофиқ, тиббиёт ходими беморга катта эътибор бериши, унинг соғлиғини тиклаш ёки касаллик азобини енгиллатиш учун ўз билимини сарфлаши, беморга унинг соғлиғи ҳақидаги фақат фойда келтира оладиган маълумотларни айтиши, беморнинг шифокор билан сирдош бўлишига эришиши зарур. Беморнинг касаллиги ҳақида унинг иштирокида ҳамкасблари билан сўзлашиш шифокор этикетига тўғри келмайди. Шифокорнинг онги, савияси, маданияти, дунёқараши, билими унинг қайси жамиятда яшаётганлиги билан чамбарчас боғлиқ. Бу муносабат замон талабига мос равишда ижобий томонга ўзгариб боради. Бу ўзгариш шифокорнинг юксак инсоний фазилатларида, софдиллигида, зийраклигида, одамийлигида намоён бўлади.

Шифокорнинг касалликлар бўйича берган маълумотларига эътиборни қаратамиз: ”Витилиго – тери касалликлари орасида кенг тарқалгани бўлиб, тери соҳасида яллиғланмаган ҳар хил шаклларга ва ўлчамларга эга бўлган оқ доғларнинг пайдо бўлиши билан ифодаланади. Бу касалликнинг келиб чиқишига кўплаб омиллар сабаб бўлади. Асаб, эндокрин ва иммунитет тизими ва липидлар перекис оксидланиши тизимининг бузилиши ҳамда хужайраларни ўз-ўзини емириши, шунингдек, терининг микроэлемент таркиби ва метаболик жараённинг ўзгариши шулар жумласидандир”[15]; “скрофулодерма касалликда тери соҳаларида дастлаб яллиғланган доғли тошмалар тарзида пайдо бўлади, улар сатҳида бир неча соатлар ўтгандан сўнг эса тўғноғич катталигида бўлган юмшоқ қобиғли пуфакчалар (флектеналар) пайдо бўлади. Пуфакчаларнинг атрофи қизариб, ҳажми катталашиб боради. Флектеналар қобиғи бурушқоқ ва ёрилувчан бўлиб, улар таркибида йирингли ёки қонли суюқлик кузатилади, кейинчалик улар юпка

калинликдаги қатқалоққа айланади. Касаллик давомийлиги ўртача 2-3 ҳафтани ташкил этади”[7].

Тадқиқотлар таҳлили. Тиббиётга бағишланган мақолалар ва дарсликларнинг аксарияти шуни кўрсатадики, ушбу манбаларда касаллик номи илмий термин сифатида изоҳланади ва қўлланилади. Аммо шифокорлар беморлар ўртасидаги диалогларда айнан шу сўзлар нутқни чиройли ифодалаш, беморни чўчитмаслик мақсадида тиббий эвфемизмлардан ўринли фойдаланадилар. Чунончи, шифокорлар нутқида “қўлингиз гул очибди”, “терида ширинча тошибди” каби эвфемик бирликлар қўлланилади. Ўзбек тилшунослигида тиббий эвфемизмларнинг лингвистик хусусиятлари Н.Ғайбуллаева томонидан тадқиқ қилинган[13].

Дунё тилшунослигида тиббиёт лексикасининг турли қирралари, жумладан, лексик-семантик, услубий-функционал, лингвопрагматик, гендер хусусиятлари, шу соҳага оид терминлар бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда[1,2,3,5,7]. Шифокор ва бемор мулоқотидаги тиббий лексемаларни антропологик, концептуал аспектда текшириш, этносоциал қирраларини аниқлаш ўз ечимини кутаётган муҳим масалалардан биридир.

Маълум бир тушунчанинг инсон учун ёқимли эшитилиши мақсадида ўз нутқида жозибадор, образли бирликлардан унумли фойдаланади. Жумладан, шифокорлар ҳам ўз нутқида перифрастик бирликларга мурожаат қиладилар. Бунда фаолият билан алоқадор ҳаракат ва ҳолатларнинг салбий аломатлари яширилиб, пардалаб баён этилади. Чунончи, буюк устун (тана), даракчи белгилар (аура), замонавий тиббиётнинг душмани (интернет), кўкрак сути (озуқа), мўъжизавий неъмат (она сути), тана қироли (юрак), тиб илми (тиббиёт), тождор вирус (касаллик), тушсиз уйқу (кома ҳолати), ширин нафас соҳиби (ўпка), қадди-қомат тахти (бел), қулоқ гуллаши (карлик), ҳаёт нури бериш (эмизиш), ҳаёт тимсоли (инсон) шифокорлар нутқида кузатиладиган перифразалар ҳисобланади[3,4].

Шифокор нутқи бемор психологик ҳолатини бошқаришнинг асосий воситасидир. Оғир дардга чалинган бемор учун бир оғиз сўз даводир. Тўрт мучаси соғлом инсонга ғазаб, жаҳл, нафрат билан айтилган сўз ўлимга элтувчи заҳардир. Чунончи, қуйидаги сўз ва ибораларга эътиборни қаратайлик:

- *Соғ- омонмисиз? – эшитиб қалбингиз ҳузур топади.*
- *Нима дейсан? – юрагингиз тўхтагандек ҳис қиласиз, гўёки дунёда ортиқчадек сезасиз ўзингизни.*
- *Соғлигинг яхшими? – яна яшагингиз келади.*
- *Қачон қарама касалсан-а!? – дардингиз ўн чандон кўпаяди.*
- *Хафа бўлма – хайрият, кимдир менга қайғуряпти.*
- *Ўзинг айбдорсан! – ўлганни устига чиқиб тепиш...*
- *Бахтли бўласан! – бахт сари учшига биринчи қанот.*
- *Бу кетишда ҳеч қачон бахтли бўлмайсан! – орзуга ўлим.*
- *Қўлингдан келмайди, овора бўлма! – оёқдан чалиб йиқитиши.*
- *Албатта эплайсан, сенга ишонаман – юқорига чиқиши учун зина.*
- *Билмадим, бу кетишингда – яхши кунларга бўлган ишонч.*
- *Ҳаммаси яхши бўлади – Эртанги кунингга умид.*

Юқорида санаб ўтилган икки оғиз сўз кимгадир қанот бағишлаши ёки яна икки оғиз сўз қанотини синдириши ёки тузалиш ўрнига давосиз дардга чалиниши мумкин. Шунинг учун шифокор бемор дардига дори билан эмас, сўз билан даво топмоғи керак. Унинг маҳорати шунда кўринади. **Шифокор кучли рухшунос ҳам бўлмоғи лозим.** Инсон руҳиятини билмаслик, етук шифокор бўлишга ҳам ҳалақит беради. Немис психотерапевти(келиб чиқиши Эронлик бўлган) Нусрат Пезешкиан биринчилардан бўлиб, айнан қандай сўзлар инсонда касалликни келтириб чиқаришини исботлаб берган. Инсоннинг ўз ички руҳий аҳволидан келиб чиқиб айтадиган сўзлари ўзининг саломатлигига сингиб борар экан. Инсон физиологик органилари ишига бевосита таъсир қилувчи сўзлар-органик нутқ ҳам деб аталади. Қанчалик бақувват бўлманг, ўзингизга айтилган куйидаги сўзлар саломатлигингизга путур етказди. Баъзи пайтларда маълум қийинчиликлар ичига кириб бориб, ғазаб, жаҳл, нафрат билан айтган сўзлар органларга буйрук, команда бериш кўринишини бажариб, маълум аъзоларнинг ишини ўзгартиришга сабабчи бўлади[4]. Масалан: ”Барчаси менинг бўйнимда, муаммолар менинг бўйнимда” деганларда - остеохондроз ривожланиши; “Барчаси жонимга тегди” деганларда - ўсмалар ривожланиши” “ Юрагимга қаттиқ олдим” деганларда - юрак инфаркти ривожланиши; “Менга муаммолар бош оғриғи бўлди” деганларда - мигрень ривожланиши; “Қонимни ичди деганларда - қон касалликлари ривожланиши; “Сабр косам тўлди” деганларда - гипертония ривожланиши; “Эшитгим келмайди, ўчир” деганларда - гаранглик ривожланиши; “ Асабимни синама” деганларда - депрессия ривожланиши; “Ҳаётимда қувонч йўқ” деганларда - жигар, ўт қопи касалликлари, семизлик ривожланиши; “Ўз-ўзини ейиш, бировларни ишини ҳазм қила олмаслик - ошқозон яра касалликлари ривожланиши”; “Ўлгудек чарчадим” деганларда - урологик хасталикларнинг ривожланиши олимлар томонидан исботлаган[10].

Хулоса. Демак, айтиладиган ҳар бир гапимиз ё фойда ёки зарар бўлиши ўзимизга боғлиқ экан. Шундай қилиб, нутқда воқеланган сўзнинг таъсир доирасини илмий жиҳатдан ўрганиш тилшунос олимлар олдида турган муҳим вазифадир. Чунки сўзнинг нақадар кучли таъсир воситаси эканлиги шифокорнинг касаллик бўйича берган маълумоти ва бемор билан олиб борган суҳбати давомида тиббий эвфемизм, перифразалардан ўринли фойдаланишида ўз ифодасини топган.

Адабиётлар:

1. Абрамова Г.А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития: дис. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2003. – 312 с.
2. Агаджанян С.А. Вербальная коммуникация «врач – пациент» в функционально-стилистическом аспекте (на материале английского языка): дис...канд... наук. – Москва, 2018. – 177 с.
3. Ахмадова У.Ш. Перифраза турлари ва уларнинг матндаги ўрни // Тил, таълим, таржима халқаро журнали.– Тошкент, 2020. № 4. – Б. 81-87.
4. Культура общения врача и студента. (Электрон ресурс): <https://studfiles.net/preview/548345/>
5. Малыгина Е.Н. Средства смягчения высказывания в медицинской речи: автореф. дис. канд. филол. наук. Самара, 2007. – 56 б.

Annotation. The article covers the use of vocabulary as a terminology in the field of Medicine and serves to form medical terms. The expression of medical terms in the form of a word combination and a specific type is analyzed on the basis of the theory of Uzbek substantial syntax. The specificity of speech to a particular field of speech in word combinations is evidenced by the medical [I~O] device formations.

Key words: *medicine, medical terminology, word combination, linguistic syntactic mold, medical linguistics*

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida soha lingvistikasi, terminologiya, lug‘atchilik, umuman, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bunga sabab shuki, “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”. [Mirziyoyev, 2019:1]

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun uning barcha sohalarda birdek qo‘llanilishi, milliy tilning sohaviy tushuncha va atamalarni to‘liq qamrab olishiga erishish lozim. Buning uchun Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutqida qayd etilgan “turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish”, ya‘ni soha tilini milliyashtirish, sohalarda mavjud xorijiy terminlarni milliy tildagi muqobili bilan almashtirish, yangilarini yaratish zarur. Tabiiyki, bu vazifalar tilimizning lug‘aviy va sintaktik imkoniyatlarini soha lingvistikasi doirasida o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbek tilining tibbiyot sohasi termin va atamalarini qamrab olishi, tibbiy terminlarni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish ham ayni yo‘nalishda tadqiqot olib borishni talab qiladi.

Jahon tilshunosligida inson lisoniy zaxirasining katta qismini tashkil etuvchi, muayyan sohalarga oid tushunchalarni ifodalab, ushbu soha mutaxassislarining muloqoti uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi terminologik birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj XX asr o‘rtalarida kuchaydi. Bugungi kun uchun muhim bo‘lgan, ijtimoiy muhit taqozo etayotgan tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bu sohalar leksikasi, ya‘ni terminologiyasini tadqiq qilishdir. [Shirinova, 2020:4]

Tilshunos S.Nazarova tibbiyot sohasiga oid birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan maqolasida “o‘zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasi masalalari ko‘plab tadqiqot va bahs-munozaralar markazida turganligi, tibbiyot sohasiga oid terminlar tizimi, uning tabiati xususida turli qarash va fikr-mulohazalar shakllangan bo‘lsa-da, fanda mazkur muammoni o‘rganish ehtiyoji susaymaganligini asoslashga harakat qilgan. [Nazarova, 2021:48]

Chindan ham, tibbiyot va tilshunoslik birlashgan chegarada tib ilmi, sog‘liqni saqlash, davolash haqidagi bilimlarni mujassam etgan tibbiyot terminologiyasi masalalari soha lingvistikasida dolzarb hisoblanadi. Tibbiyot tili, soha leksikasi, ayniqsa, tibbiy terminologik tizimni o‘rganish natijasida tibbiy lingvistik toбора rivojlanib bormoqda.

* Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti shahnoz-87@mail.ru

Tibbiy lingvistikada tibbiy termin va atamalarni tizim sifatida o‘rganish, sohadagi terminlarning shakllanishi va taraqqiyotini tahlil qilish bosh muammo sanaladi. Tibbiy terminlarga sustansial tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv muammoni yangicha yondashuvda yechishga intilish bo‘lib, tibbiy lingvistika asoslarini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Birinchi galda, termin “gapdan tashqarida ham ma’lum bir aniq ma’no ifodalaydigan so‘z yoki turg‘un holatdagi so‘z birikmasi” (S.Usmonov) ekanligini, “termin – alohida olingan so‘z yoki ot boshqaruvli so‘z birikmasi bo‘lib, kasbiy tushunchani ifodalashi va ma’lum bir kasb doirasida (ilm, texnika, ishlab chiqarish, boshqaruv) sohaviy muloqot ehtiyojlarini qondirishi” [Shirinova,2020:14-15] inobatga olinishi lozim. Negaki, mavzu obykti hisoblangan so‘z birikmasining terminologik tizimdagi vazifasi shu bilan izohlanadi va so‘z birikmalarining terminlar tizimidagi o‘rnini belgilashga asos bo‘ladi.

Aslida, “So‘z birikmasi u yoki bu lug‘aviy birlikning boshqa shunday birlik bilan tobe-hokimlik munosabatidan hosil bo‘ladi va tilimizda mavjud birikish tarzi, usullari yoki modellaridan biri voqelashganligidan darak beradi. Demak, so‘z birikmasi o‘z qurilishida tilning muayyan sintaktik qonuniyatini aks ettiruvchi birlik sifatida nutqda rellashadi va ma’lum vazifaga xoslangan bo‘ladi. Aynan vazifasiga ko‘ra bu sintaktik birlik nominativ tizimga mansub bo‘lib, nominativ birliklar sirasida alohida o‘rin egallaydi. Zero, so‘z birikmasi lug‘aviy birliklar – leksema, ibora singari atash va nomlashga xizmat qiladi. Vazifasi va qurilishi so‘z birikmalariga til tizimida sintaksis va leksikologiya, boshqacha ifodalaganda, sintaksis va nominativ tizim orasidagi aloqadorlikni ta‘minlash imkonini beradi. Shuning uchun leksik-semantik hamda sintaktik xususiyatlar mazkur birlik tabiatida uyg‘unlashib ketadi”. [Nazarova, Xojiyeva, 2021: 8]

Shunday ekan, ham leksik-semantik, ham sintaktik xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan so‘z birikmalari aynan nominativ vazifaga xoslanganligi uchun muayyan sohada termin sifatida qo‘llanila oladi. Chunki sohaviy tushunchalarni atovchi terminlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tibbiyot tiliga xos termin va atamalarning so‘z birikmalari shaklida ifodalanishi buning yorqin dalili bo‘la oladi.

Tibbiyotga oid matnlarni kuzatar ekanmiz, so‘z birikmasi shaklidagi tibbiy termin va atamalar tibbiy nutq yoki matnda nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va ehtiyojlarga muvofiq voqelanishiga amin bo‘ldik. So‘z birikmasi shaklidagi tibbiy termin va atamalarni saralashda, ularning lisoniy qurilishini belgilashda o‘zbek sustansial sintaksisi nazariyasiga asoslandik. Shuning uchun tibbiy terminlarning so‘z birikmasi shaklidagi turlari lisoniy sintaktik qurilishiga ko‘ra ajratildi.

Tahlil natijasida ma’lum bo‘ldiki, tibbiy termin va atamalarni shakllantirgan aksariyat so‘z birikmalari [I~O]=SBLSQining nutqiy voqelanishidan yuzaga kelgan. Quyida keltirilgan tibbiy birikmalar fikrimizni dalillaydi:

irsiy kasallik, ichki kasallik, irsiy moyillik, yashirin kasallik, qandli diabet, o‘tkir bronxit, arterial gipertenziya, bronxial astma, turg‘un stenokardiya, bosh miya, orqa miya, qalqonsimon bez, ishemik xuruj, deontologik madaniyat, tibbiy gigiyena, tibbiy yordam, tibbiy varaqa, tibbiy xizmat, tibbiy ko‘rik, tibbiy xatlov, tibbiy niqob, tibbiy psixolog, tez yordam, sog‘lom odam, sog‘lom avlod, sog‘lom turmush, jismoniy faollik, jismoniy zo‘riqish, klimakterik davr, klinik holat,

neyrofiziologik mashq, fizioterapevtik muolaja, oilaviy poliklinika, oilaviy shifokor, ortiqcha vazn, musbat natija, manfiy natija, tojdor virus, jinsiy a'zo, jinsiy zaiflik, bepusht ayol, bepusht erkak, xasta inson, yumshoq to'qima, dorivor modda, shifobaxsh omil, yiringli ajralma, nishon a'zolar, nojo 'ya ta'sir.

Bu hosilalar tibbiy nutqqa xoslangan bo'lib, ismlarning otlar bilan birikishini natijalaydi. Bunday tibbiy birikmalarning tobe a'zosi "belgi" ma'nosini sifatlar, hokim a'zo esa "predmet" ma'nosini otlar bilan ifodalayotganligi birikma umumiy ma'nosidan anglashiladi. O'z navbatida, sintaktik qurilma sifat va ot birikuvining mahsuli [belgi-predmet] ma'noli so'z birikmalari ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Substansial sintaksisning nazariy asoslariga ko'ra, tobe a'zosi ismlar va hokim a'zosi otlardan tuzilgan mazkur tibbiy birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishi [I~O]=SBLSQida umumlashgan. [Nazarova,2015:98] So'z birikmasining substansial talqini bo'yicha "[I~O]=[belgi-predmet] SB qolipi o'zbek tilida muayyan belgisi aniqlanayotgan predmetni bildiruvchi so'z birikmalarining cheksiz miqdorda hosil bo'lishini lisoniy sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan umumlashtiruvchi lisoniy birlikdir. Zero, qolip tarkibidagi [I] ramzi tobe bo'lak mavqeyida voqelashgan ism umumiy nomi ostida birlashuvchi leksemalarni ixcham tarzda umumlashtirib ko'rsatadi. [O] ramzi esa hokim bo'lak mavqeyida reallashgan ot leksemalarni ixcham va umumiy tarzda ifodalaydi. Tobe bo'lak mavqeyida ismlarga mansub lug'aviy birliklar, hokim bo'lak mavqeyida esa ot semantik turkumiga tegishli lug'aviy birliklar voqelanishi ta'kidlanadi". [Nazarova, Xojiyeva, 2021: 30]

Demak, yuqorida keltirilgan tibbiy termin va atamalarning har biri sohaga tegishli muayyan tushunchani ifodalashiga ko'ra, bir-biridan farqlansa ham, lisoniy qurilishidagi umumiylik ularni birlashtiradi. Ism va otlar tobe-hokimligi yuzaga keltirgan tibbiy terminlarning lisoniy qurilishidagi umumiylikni [I~O]=SBLSQi aks ettiradi. Shuning uchun tibbiyot sohasida qo'llaniluvchi, tobe a'zosi ism, hokim a'zosi otdan tuzilgan termin va atamalar [I~O]=SBLSQi hosilalari hisoblanadi. Tibbiyotga oid materiallar asosida to'plangan dalillar mazkur lisoniy sintaktik qolip (LSQ) termin va atamalarni shakllantirish imkoniyatiga egaligini tasdiqlaydi. Ayni xususiyatiga ko'ra, [I~O]=SBLSQini o'zbek tilining terminologik qatlami, jumladan, tibbiy terminologik tizimni ta'minlaydigan va tilning nominativ vazifasini ro'yobga chiqaruvchi lisoniy omillardan biri deb baholash mumkin.

Xulosa shuki, so'z birikmasi mohiyatan tilning lisoniy qurilish qonuniyatini aks ettiruvchi sintaktik birlik sanaladi, atash, nomlash vazifasi tufayli muayyan soha nutqiga xoslanadi. So'z birikmasining tibbiyotga oid tushunchalarni atashga xizmat qilishi va tibbiy nutqqa xoslanishi uning [I~O] qurilmali ko'rinishlari asosida o'z isbotini topadi. Shunday ekan, [I~O]=SBLSQi hosilalari misolida dalillangan tibbiy terminlarni shakllantirish xususiyati so'z birikmasining tibbiy terminologik tizimdagi o'rni va ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi//<https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

2. Nazarova S.A. LEXICAL UNITS OF MEDICAL SPHERE: PHRASES AND ITS TYPES. Chinese Journal of Industrial Hygiene and Occupational Diseases, 2021, 39(13), 48-54. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5567783>
3. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талкинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
4. Nazarova S.A., Xojiyeva M. Ismli birikmalar. – Globe Edit. ISBN:978-620-0-62332-4.2021.05.24.–132 б. <https://my.globeedit.com/catalog/details/store/gb/book/978-620-0-62332-4/ismli-birikmalar?search=ismli%20birikmalar>
5. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: филол. фанлари ... фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Т., 2020. –152 б.

Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного

Хамидова Гулнора Юлдашбаевна*

Аннотация. Рассмотрены проблемы изучения медицинской терминологии на уроках русского языка в нерусской аудитории. Медицинская терминология является макротерминосистемой, состоящей из подсистем (анатомической и гистологической, клинической, фармацевтической), каждая из которых имеет свои особенности. Это явление необходимо учитывать при создании системы заданий и упражнений по обучению учащихся-медиков на уроках русского как иностранного.

Ключевые слова: *медицина, парамедицина, термин, номенклатура, анатомия, гистология, частителя, органы, патология, состояние человека*

Медицинская терминология русского языка – это макротерминосистема. Общее число медицинских и парамедицинских терминов составляет более двухсот тысяч. В рамках этой системы в медицинской номенклатуре выделяют следующие подсистемы. 1. Анатомическая и гистологическая, куда входят названия различных областей и частей тела, органов, их частей и тканей. 2. Клиническая, куда относят морфологические образования и процессы, болезни и патологические состояния человека; течения и признаки заболеваний, симптомы, синдромы, методы диагностики, профилактики и терапевтического лечения; оперативные методы лечения, хирургические операции и другие термины. 3. Фармацевтическая терминология – названия лекарственных форм, средств растительного и химического происхождения, рецептурные формулировки. С учетом языкового происхождения можно выделить следующие группы медицинских терминов: – термины исконно русского образования; – интернационализмы греко-латинского происхождения, такие как цирроз, фагоцит, аллергия, лейкемия и др.; – исконные западноевропейские, то есть слова, возникшие на почве западноевропейских языков из их лексического и словообразовательного

* Старший преподаватель кафедры «Методика преподавания языков» Бухарского областного центра переподготовки и повышения квалификации педагогических работников народного образования. 14081967gulya@gmail.com

материала; – латинские термины (так называемые *terminotechnici*) – специальные эталонные научные обозначения, оформленные графически и грамматически по правилам латинского языка [2, с. 49]. С точки зрения динамической теории номинации медицинская терминология делится по следующим способам образования: – первичный (исходный, прямой); – вторичный (производный, косвенный). В названиях, образованных первым способом, мотивировка выражена прямо, путем непосредственного называния отличительного, мотивирующего признака (к примеру, волчья пасть, выворот века). Термины с вторичной номинацией, как правило, формируются за счет переосмысления уже имеющихся в языке единиц, выбора определенного признака, который кладется в основу нового наименования. Чаще всего в основе опосредованного способа номинации лежит метафоризация [3]. Такие названия отличаются образной природой, к примеру, заячья губа, петушиная походка. Существует особая группа слов, в номинации которых не содержится даже намек на конкретные признаки или понятия. Большую часть таких слов составляют эпонимические термины, то есть произведенные от фамилий ученых, врачей или больных, например, болезнь Боткина, болезнь Бехтерева, болезнь Кашина-Бэка [4, с. 413]. В методике преподавания языка специальности на уроках русского важно знать и понимать все особенности медицинской терминологии. 2019. Т. 24, № 180 . Работа при обучении профессиональной лексике проходит по тем же этапам, что любая другая: 1) презентация новой лексики; 2) автоматизация лексических навыков; 3) организация повторения усвоенной учащимися лексики и контроль качества пройденного [5, с. 115]. Обучение учащихся-медиков языку специальности предполагает обогащение новой научной, терминологической лексикой, синтаксическими и грамматическими конструкциями, речевыми нормами, присущими научному стилю, применение полученных умений и навыков при выполнении разного рода заданий, умение извлекать и передавать информацию из учебных текстов в устной и письменной форме, а также развитие приобретенных знаний в различных видах речевой деятельности. Изучение структуры мотивированных слов направлено на то, чтобы учащийся мог не только предсказать значение слова, но и правильно образовать необходимое мотивированное слово для выражения определенного понятия [6]. Трудности, возникающие в процессе изучения терминологии, имеют, как правило, семантический характер. В частности, это специальные эталонные научные обозначения, оформленные графически и грамматически по правилам латинского языка. Особый интерес и вместе с тем сложность для учащихся представляют термины, образованные на основе одинаковых ТЭ (термиэлементов). ТЭ – это неделимая часть слова греко-латинского происхождения, имеющая определенное значение. Выделяют аффиксальные и корневые ТЭ, которые в свою очередь делятся на начальные и конечные. Корневые ТЭ – это, как правило, части тела и ткани организма человека (гепат- – печень, гист- – ткань, энтер- – кишечник, стом/стомато- – рот). К примеру, термин тонзилэктомия состоит из двух ТЭ: корневого тонзило – небные миндалины и эктомия – удаление, иссечение. Таким образом, этот


Литературы:

1. [Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. https://ziyouz.uz](https://ziyouz.uz)
2. Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора// Ўзбек тили адабиёти.– Тошкент, 2013. – №4. – Б. 5.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. – Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b. <http://yuldasheva.buxdu.uz/>
4. R.K.Ashurbaeva. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>

Тиббий бирликлар тадқиқи

Наврўзова Муяссар Ғайбуллаевна*

Аннотация. Тиббиёт терминологиясида терминларнинг тушунча, мазмунига кенг қамровли ва мураккаб тизимлардан бири сифатида қаралади. Тиббиёт лексикаси тиббиёт фанида ишлатиладиган бошқа соҳа терминлари билан биргаликда бир неча юз минг сўз ва ибораларни ўз ичига олади. Бунга сабаб турли тиллардаги тиббиёт маълумотлари ҳажмининг доимий ўсиши орқали кўплаб янги терминларнинг пайдо бўлишидир. Маълумки, лексик қатлам тилнинг энг ўзгарувчан қисми ҳисобланиб, у мунтазам тарихий таъсирларни бошдан кечиради. Натижада, замонавий тил лексик системасида турли хил терминлар муомалага кириб келади. Уларни тадқиқ қилиш лингвистлар олдидаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Калит сўзлар: *термин, тиббиёт, лексика, доминанта, телеф, зотилжам, мигрен, Авиценна, сакта, ибрида*

Тиббиёт бирликларини тўплаш ва тартибга солишдан мақсад атамаларнинг луғавий маъносини тизимлаштириш ва аниқлаш, тиббиёт тилини мантиқий изчиллаштириш, ўхшаш шакллари таҳлил қилиш ҳамда танлашдан иборат. Жамиятда, илм-фан, маданият ва ахборот технологиялари ривожланаётган ҳозирги кунда ҳар бир тил захирасида улкан ўзгаришлар қайд этилмоқда. Зеро, барча соҳадаги янгилик дастлаб тилнинг лексик системасида, терминлар орқали ифода қилинади. Бошқа соҳалар қатори тиббиёт соҳаси ҳам жадал суратлар билан ривожланар экан, тиббий терминларга бўлган эҳтиёж ортиб боради. Тиббиёт - беморларни даволаш, касалликларнинг олдини олиш ва инсон жамиятида соғлом ҳамда ишлаш қобилиятини сақлаган ҳолда узоқ умр кўришга эришадиган амалий фаолият ва инсон саломатлигини сақлаш, мустахкамлаш бўйича илмий билимлар тизимини ташкил қилади. Ҳозирда тиббиёт фани билан туташган бошқа фанларнинг кўплаб «бириккан» соҳалари мавжудлиги доимий равишда тиббиёт терминологиясининг юзлаб янги тушунчалар билан бойиб боришига сабаб бўлмоқда.

Тиббиёт - инсоният фаолиятининг энг қадимги соҳаларидан бири бўлганлиги учун тиббий атамашунослик узоқ вақт олдин шаклланган лексика ҳисобланади, лекин шу билан бир каторда у тинимсиз ривожланадиган атамашунослик ҳамдир. Тиббий-биологик, тиббий-кимёвий, тиббий-техник билимларнинг қизгин ривожланаётганлиги боис махсус тиббий атамалар сони ортиб бормоқда. Шунингдек, замонавий тиббиёт терминологиясида терминларнинг тушунча, мазмунига кенг қамровли ва мураккаб тизимлардан бири сифатида қаралади. Тиббиёт лексикаси тиббиёт фанида ишлатиладиган бошқа соҳа терминлари билан биргаликда бир неча юз минг сўз ва

* Бухоро вилояти Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази Педагогика, психология ва таълим технологиялари кафедраси ўқитувчиси

ибораларни ўз ичига олади. Бунга сабаб турли тиллардаги тиббиёт маълумотлари ҳажмининг доимий ўсиши орқали кўплаб янги терминларнинг пайдо бўлишидир. Маълумки, лексик қатлам тилнинг энг ўзгарувчан қисми ҳисобланиб, у мунтазам тарихий таъсирларни бошдан кечиради. Натижада, замонавий тил лексик системасида турли хил терминлар муомалага кириб келади. Уларни тадқиқ қилиш лингвистлар олдидаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Сўнгги йилларда замонавий тилшунослик ва терминшуносликда терминологик тизим, унинг таркибий қисмларини ўрганишга доир янгича ёндашув вужудга келди. Терминология ва махсус лексика масалалари билан шуғулланувчи тилшунослар бир неча ўн йиллардан буён мавжуд илмий адабиётлардаги тиббиёт терминологияси ва махсус birlikлари ҳолати, умуман, уларнинг луғат таркибидаги вазифаси ва ўрни борасида баҳс-мунозара олиб бормоқдалар. А.В.Осипов, Е.Н.Малыгина, С.А.Агаджанян, А.Н.Кудряшева, Г.А.Абрамова, Е.В.Пикалова тадқиқотларида тиббиёт лексикасининг турли қирралари ёритилган.

Қайд этиш керакки, тиббиётда микдор жиҳатдан, лотин тилидан ўзлашган терминлар доминант ҳисобланади. Тиббиётга оид янгиликлар, касалликлар, дориларнинг номи неча асрлар давомида лотин-юнон тилида берилган ва бундан кейин ҳам шундай бўлиб қолади. Лотин тили “ҳалқаро тиббиёт” тили деб тан олинган. Бу эса тиббий олимларнинг ҳамкорликда ишлашларига янада ёрдамлашади. Жуда қадим замонларда ҳозирги Италия худудидаги Аппенин ярим оролида Лация деган вилоят бўлиб, у ерда лотин қабиласи яшаган. Бу қабила босқинчилик урушлари вақтида бутун Европа, Африканинг шимолий қисми ва Ўрта ер денгизида яшовчи қабилаларга ўз ҳукмронлигини ўтказган. Босиб олинган ерларда яшовчи қабилаларни ўз тилини, яъни лотин тилини давлат тили деб қабул қилишга мажбур қилган. Биринчи бор тиббий атамалар йиғмасини эрамиздан олдинги бешинчи асрда яшаган тиббий аллома Букрот (Гиппократ) ёзган. Кўп олимлар ўзларининг илмий ишларини лотин тилида ёзиб, илмий даражаларини ҳимоя қилганлар.

Ҳозирги кунда лотин тили ўлик тил бўлса-да, аммо барча шифокорлар учун бу тилни ўрганиш ва билиш жуда муҳим заруриятдир. Зеро, лотин тили бутун дунёда тиббиёт тили ҳисобланади. Тиббий терминларнинг аксарият қисми шу тилда эканлиги ҳамда улар байналмилал тизимни ташкил қилиши, дунёдаги барча тиб илми вакилларининг бир-бирларини осон тушунишига восита бўлиб хизмат қилади. Лотин тилининг умумжаҳон тиббиёт соҳасига таъсири жуда улкан бўлган бўлса ҳам, аммо шунга қарамадан, шарқ тиббиёт олимларининг ҳам бу фанга қўшган ҳиссаси салмоқлидир. Шарқ ҳаким ва табибларнинг илмий асарларида қўлланган терминлар маълум маънода ўзбек халқ табobati атамаларининг, замонавий тиббиёт терминологиясининг шаклланишига асос бўлган дейишимиз мумкин.

Терминшунос Г.О.Винокурнинг ёзишича: «Терминлар «пайдо бўлмайди», балки уларга эҳтиёж сезилганда «ўйлаб топилади», «ижод қилинади». Дарҳақиқат, жамият, давр ва тиббиёт соҳасининг таракқийлашуви билан мазкур ўзгаришларни ўзида ифода этувчи терминларга эҳтиёж сезилди ҳамда улар «ижод қилинди». Ҳозирги кунда ҳам

бу жараён давом этмоқда. Янгидан янги касалликлар кашф қилиниши билан уларга даъво чоралари изланмоқда. Мазкур ўзгаришлар нафақат тиббиётда, балки тилшуносликнинг ономасиология ҳамда лексикография соҳаларида ҳам ўз аксини топиб, уларни ҳам бойитиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

1. С.Якубова, Ф.Тўлаганов. Русча-лотинча-ўзбекча медицина луғати. –Т., 1978.
2. Усмонхўжаев А., Нажмиддинов О., Муродова М. Мўжаз тиббий луғат: тиббий атамалар русча-ўзбекча луғати. –Т., 1992.
3. Шарқ ҳикоят ва ривоятлари. Биринчи китоб. (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов). – Тошкент, «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2015. – 525 б.
4. Эрназаров Т. Шифокор деонтологияси ва тиббий ахлоқ. (Электрон ресурс).

3-SHO`BA.

TIBBIYOT TA'LIMIDA LINGVOKULTUROLOGIYA VA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI

Тиббиёт соҳасида перифразалар

Аҳмадова Умидахон Шавкат қизи*
Бозорова Гулмира Зайниддиновна[†]
Миржонов Носир Нумонович[‡]

Аннотация. Мақолада жамиятнинг муҳим бўғини ҳисобланган шифокор, ушбу соҳа вакиллари, шу соҳа билан боғлиқ терминларга нисбатан қўлланувчи перифрастик бирликлар нутқий мулоқотни бойитувчи, муомала алоқа-аралашувини таъминловчи асосий восита ҳисобланиши тиббий бирликлар мисолида асосланган.

Калит сўзлар: *перифраза, нутқ, нутқий мулоқот, жамият, социал, муомала, маданият, касб, тил, тилшунослик, тиббий мулоқот, такрор қўллаш*

Тилда муқаддас туйғулар ўз ифодасини топар экан, ўзбек тилидаги ўзига хослик, миллийлик тиббиёт тилида ҳам ўзгариш ҳосил қилиб, касбий мулоқот жараёнида перифрастик бирликлардан фойдаланиш одат тусига айланмоқда. Дунёда турли-туман касблар, бир-биридан турфа ҳунарлар борки, уларнинг ҳар бири ўзига хос иш қуролларидан, ўз касби, ҳунари моҳиятидан келиб чиқадиган атамаю профессионализмлардан, касб-ҳунарига моҳиятан боғлиқ тил ҳамда нутқ бирликларидан фойдаланади. Масалан, деҳқоннинг асосий қуроли – кетмон, дурадгорники эса теша, арра.

** Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси, ф.ф.ф.д. (PhD) u.s.ahmadova@buxdu.uz

[†] Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси мустақил тадқиқотчиси; Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси мустақил тадқиқотчиси.

Жарроҳники – тиф, қассобники – пичоқ, болта, тикувчиники – игна, ип. Дехқон кетмони билан тақир ерда бетакрор боғ барпо этади, гўзаллик яратади.

Айтиш жоизки, ҳар бир соҳа вакилларининг, ҳунар эгаларининг, ўзига хос социал қатламларнинг нутқини «танитиб турувчи» терминлари, атамалари билан бирга перифразалари ҳам бўлади. Масалан,

1. Дехқонлар нутқи перифразалари.
2. Ҳунармандлар нутқи перифразалари.
3. Чорвадорлар нутқи перифразалари.
4. Тиббиёт ходимлари нутқи перифразалари.
5. Педагоглар нутқи перифразалари.
6. Матбуотчилар нутқи перифразалари.
7. Диний соҳа вакиллари нутқи перифразалари.
8. Ижодкорлар нутқи перифразалари.
9. Қурувчилар нутқи перифразалари.
10. Олимлар нутқи перифразалари ва бошқалар.

Перифразаларнинг ижтимоий касбий таснифга кўра турлари хусусида мулоҳаза юритаётганда икки жиҳатни фарқлаб олиш муҳим деб ҳисоблаймиз. Биринчиси – муайян социал объект ҳақида айтилган перифразалар ҳамда иккинчиси – ижтимоий касб, ҳунар, соҳа вакилларининг нутқида кенг ёки алоҳида қўлланилувчи перифразалар. Масалан, *саломатлик посбонлари* – шифокорлар ҳақида айтилган перифраза бўлса, *ҳақиқий адреналин* – шифо маъносини берувчи касбий перифраза ҳисобланади.

Инсон саломатлигини сақлаш учун курашувчи соҳа вакиллари нутқида ўзига хос перифразалар борлиги тиббиёт ходимлари нутқида хос перифразаларни ажратишга асос бўлади. Негаки, соҳа вакилларига нисбатан *саломатлик посбонлари, оқ халат соҳиблари, Гипократ қасамини ичганлар, шифо соҳиблари, Ибн Сино издошлари* (шифокорлар) каби перифразалар нутқда фаол қўлланилади.

Бетакрор, гўзал, бой, тенгсиз хазина бўлган тилимиздаги тиббий перифразаларни куйидаги мисоллар орқали далиллашга ҳаракат қиламиз:

*Конференцияда ўрта асрлар Шарқ алломаларининг тиббиёт ривожига қўшган ҳиссасига оид маърузам билан қатнашдим. Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий каби алломалар илмий меросини катта қизиқиш билан ўрганганман ва **тиббиёт илмининг султони** – Абу Али ибн Сино жаҳон тиббиёти тараққиётига беқиёс ҳисса қўшгани «Тиб қонунлари» асари Европа ва дунёдаги бошқа қатор давлатларнинг тиббиёт олий ўқув юртларида абадий чашма бўлиб хизмат қилмоқда (Барбара Потрата, Кембриж университетининг Марказий Осиё бўйича форуми илмий ходими нутқидан (Буюк Биритания)).*

***Табиблар бобокалони** Абу Али ибн Сино баъзи касалликларни ёнгоқ билан даволаш ҳақида ёзади [Айтбоев, 2007: 28].*

***Табобат илмининг султони** Абу Али ибн Сино анор нўстлогини қон қусишда, милк ва ичакдан қон кетганда, шунингдек, пешоб ҳайдовчи, яра ва жароҳатларга малҳам сифатида ишлатган [«Postda», 2018. № 71].*

Буюк бобомиз, **тиб илмининг султони** Ибн Сино она сутини қуёшга қиёслаган. Алломанинг таъбирича, ер юзидаги мавжудотлар учун қуёш нури қанчалик зарур бўлса, бола учун она сутини шунчалик ҳаётбахидир [«Postda», 2018. № 70].

«COVID – 19» касаллигини енгиб ўтишида халқимиздан кучли ирода, сабр талаб этилар экан, **шифокорлар пири** Абу Али ибн Сино айтиб ўтганларидек, биринчи навбатда, руҳий хотиржамликка амал қилсаккина, ижобий натижаларга эриша оламиз [Ҳамшира Ирода Элназарова нуткидан].

Оқ халатли фидойилар шарофати билан биз бугун тузалдик, мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёевга ҳам миннатдорчилик билдирамиз [«Ахборот 24» дастуридан, 10.04.2020].

«Баркамол авлод – 2014» спорт мусобақаларида наманганлик **саломатлик посбонлари** зиммасига мусобақа иштирокчиларининг соғлигини муҳофаза этиши вазифаси юклатилган [«Маърифат», 2014. № 33].

Медицина фанлари кандидати Мурод Али саккиз ойдан бери ўлим тўшагида «ана кетди, мана кетди» бўлиб ётар, шаҳарнинг ман-ман деган **тиб арбоблари** унинг чиқай-чиқай деб турган жонини минг чора ва тадбир билан ҳалқумида зўрга тутиб туришар эди [Қаҳҳор. 2016: 3].

Юқоридаги мисоллар таркибидаги **тиббий илмининг султони, табиблар бобокалони, табобат илмининг султони, тиб илмининг султони, шифокорлар пири** перифразалари Абу Али ибн Сино, **оқ халатли фидойилар, саломатлик посбонлари, тиб арбоблари** эса шифокорлартавсифи билан боғлиқ бўлса, қуйидагилар тиббий ходимларининг касбий фаолияти билан алоқадордир. Чунончи:

Тана шундай **буюк устун** эканки, у бизни сақлаб туради [«Саломатлик сирлари» кўрсатувидан].

Тутқаноқ хуружидан икки-уч дақиқа олдин кузатиладиган **даракчи белгилар** тиббийётда аура деб аталади, унинг бир нечта турлари бор [«Postda», 2018. № 71].

Интернет оммавий хавотирлар сабабчиси бўлиб, бугун шифокорлар, интернет – **замонавий тиббийётнинг душмани** деган фикрни қайта-қайта таъкидлашиб, уларнинг фикрича, кўпчилик беморлар касаллик ҳақида интернет тармоғи маълумотлари асосида ўзларига таъхис қўйиб, мустақил равишда даволанишга уринишмоқда [«Давр», Эъзозахон Абдуллаева нуткидан].

Тузруқхоналарда чақалоқни туғилган заҳоти она бағрига босиши ва **қўкрак сутини** билан озиқлантириши йўлга қўйилди [«Postda», 2018. № 70].

Онага табиат томонидан тухфа этилган бу **мўъжизавий неъмат** миттивой вужудида енгил ҳазм бўлиб, унинг соғлом ривожланишида катта аҳамият касб этади [«Postda», 2018. № 70].

Тана қироли инсон бутун вужудини бошқарувчи вазифасини бажарибгина қолмай, ҳаёт йўлини белгилаб берувчи омил ҳисобланади [«Саломатлик сирлари» кўрсатувидан].

Бош врачнинг хонасида ўтирганида даволовчи доктор **тиб илмига** хос тилда хасталик сабабларини баён қилди. Унинг гаплари Асадбекнинг қулоғига кирмади [Малик, 2018: 339].

Бутун дунёни қамраб олган «COVID – 19» вирусини бугунги вақтга келиб мутахассислар **тождор вирус** деб аташмоқда [Ҳамшира Ҳанифа Ҳотамова нутқидан].

Қанча давом этишини билмадиму, бу **тушсиз уйқу** балки узоқ, балки қисқа вақтгача давом этар [Сўзлашувдан].

Ўпка инсон учун **ширин нафас соҳиби** бўлиб, у инсонни, танани тоза ҳаво билан тўйинтиради [«Пулс 11 41» кўрсатувидан].

Инсон учун бел **қадди-қомат тахти** ҳисобланади. Шу тахтни асраб, вақтида даволамасак, кўплаб дардларнинг юзага келишига сабаб бўлади [«Саломатлик сирлари» кўрсатувидан].

Қулоғи гуллаганлиги сабабли одатда баландроқ гапиришига тўғри келади [Сўзлашувдан].

Машаққат тортиб тўққиз ой вужудда эркалаб ва ниҳоят **ҳаёт нури** берилиши аёл кишидан катта ирода талаб этади [«Пулс 11 41» кўрсатувидан].

Биз ҳар бир вужуд, уриб турган ҳар бир **ҳаёт тимсоли** учун курашяпмиз [Ҳамшира Ирода Элназарова нутқидан].

Демак, буюк устун (тана), даракчи белгилар (аура), замонавий тиббиётнинг душмани (интернет), кўкрак сути (озуқа), мўъжизавий неъмат (она сути), тана қироли (юрак), тиб илми (тиббиёт), тождор вирус (касаллик), тушсиз уйқу (кома ҳолати), ширин нафас соҳиби (ўпка), қадди-қомат тахти (бел), қулоқ гуллаши (карлик), ҳаёт нури бериши (эмизиш), ҳаёт тимсоли (инсон) шифокорлар нутқи перифразаларидир.


Бундан ташқари, шифокорлар нутқида перифразалар айтилиши уят саналган физиологик жараён ва ҳодисалар, жинсий аъзо номлари кабиларни нутқда очик ишлатиб бўлмаслиги боис уларни алмаштирувчи уят жой, аврат, нажас, ҳомиладор, жисмоний яқинлик каби (сиртдан қараганда перифразаларга ўхшаш, аммо улардан кескин фарқланувчи) эвфемизмлар билан баравар қўлланилади.

Перифраза лисон ва нутқ фарқланиши юзасидан таҳлил қилинса, перифразада ҳар иккала лисоний ва нутқий ўзига хослик хусусияти мавжуд эканлиги кўзга ташланади. Иккита хусусиятни ҳам бирлаштириб, ҳам алоҳида-алоҳида парадигмада таҳлилларини амалга оширса бўлади. Чунки, перифраза кунда нутқда, нутқий мулоқот жараёнида яратилади. Журналистлар, сиёсий шарҳловчилар, шифокорлар, деҳқонлар, педагоглар, ўқувчилар, талабалар каби жамиятнинг исталган барча ижтимоий-социал катламлари нутқида бунёд бўлади. Масалага перифразани кундалик мулоқот жараёнида қўлланиш хусусиятини ҳисобга олиб ёндашилса, нутқий босқичда туради. Масалан, кумуш пояндоз (қор), саховат момоси (ёмғир), тандир тафт (иссиқ, жазирама), бағри оташ мўжиза (тандир) каби бирликлар нутқдан тилга кўчиб, фаоллашса, лисон босқичига кўтарилади. Ўз-ўзидан маълум бўладиги, мана шу типдаги перифразалар кунда туғилади, бироқ мулоқот жараёнида доимий равишда ушбу перифразалардан фойдаланилмайди. Масалан, машҳур, буюк шахсларга нисбатан қўлланиладиган перифразалар борки, улар фаол қўлланилиши натижасида оммалашади. Масалан, тиббиёт илмининг султони, табиблар бобокалони – Абу Али ибн Сино мазмунидаги

Ўзига хос такрорийликни мужассамлаштирган бирликлар ўқувчилар орасида кенг қўлланилади ва лисон босқичига ўтади. Бироқ, шундай перифразалар борки, шахс, нарса, предмет, воситаларга нисбатан ишлатилади ва шу ерда туғилади-ю, шу ердан, шу нутқдан бошқа жойда қўлланилмайди, лисон босқичига кўтарилмайди. Агарда нутқдан тилга кўчиб оммалашса, лисоний босқичга киради. Аксинча, оммалашмаса нутқий босқичда қолади. Ваҳоланки, энг кўп перифразалар бугунги кунда нутқ босқичида турибди.

Мураккаб табиатли хусусиятга эга бўлган перифраза аташ хусусиятига кўра сўз варианты (мантиқий маънодоши) ёки муайян лексема парадигмасида турувчи ҳосила ҳисобланса-да, тузилишига кўра, воқеа-ҳодиса, белги, шахс ёки нарсани образли ифодалашига қараб, шунингдек, таркиби бирдан ортик сўздан иборатлигига кўра ўзига ёндош ҳодисалар таърифига мос келмайди. Перифраза уч аъзоли тузилишга эга бўлиб, унинг биринчи, энг муҳим аъзоси номинатив сўз – номинант, перифразаланаётган сўз. Иккинчи аъзо – бу перифразалаётган компонент; учинчи компонент – бу перифразаланган таркибий қисм. Унинг тузилиш моделини қуйидагича бериш мумкин: (Қаранг: 1.1-расм).

перифразаланаётган қисм (шифокорлар) перифразалаётган қисм (саломатлик)



перифразаланган қисм (посбонлари)

1.1-расм. Перифразаларнинг уч компонентли умумлашма образи

Шифокор билан бемор мулоқотини мустаҳкамлашда перифрастик бирликлар муҳим амалий аҳамият касб этади. Соғломлаштириш, соғлом турмуш тарзини ташкиллаштириш, такомиллаштириш ишларида муваффақиятга эришишда ёрдам беради. Юқорида келтирилган тиббий перифрастик бирликлар жамиятнинг муҳим бўғини ҳисобланган шифокорларнинг касбий фаолиятига алоқадордир.

Хулоса қилиб айтганда, перифраза (тасвирий ифода)лар битта тушунчани ифодалайдиган, бир сўзни иккинчи янги бир мос бирликка алмаштириш, матндаги сўзни лексик маъно қирраси асосида образли, баъзан пленастик тасвирлаш орқали унинг таъсир доирасини ошириш ва шу асосда нутқни услубан диққаттортар, жозибадор бутунлик даражасига кўтариш хусусиятига эга бўлган нутқий ҳодисадир.

Адабиётлар:

1. Айтбоев Д. Конкрет шахсларни англатувчи перифразаларда мотивлашув // Тил ва адабиёт таълими. 2007, № 4. – Б. 34-39.
2. Малик Т. Шайтанат. – Тошкент: О‘қитuvchi, 2018. 1-жилд. – 798 б.

3. Қаххор А. Мұхаббат. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 198 б.

4. Abuzalova M., Qobilova A. www.uzmuxabarlari.uz

Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм Psychologism in the stories of mukagali Makatayev

Абдуллина Анар Борановна*

Annotation. The article discussed the problem of psychologism in the stories of the honored Kazakh poet Mukagali Makatayev. The writer's stories are based on the imagination, character, and fun of children and teenagers. Although the main characters of the work are children, the unity of theme and Idea, the relationship between content and form are studied in a realistic and psychological way.

Keywords: psychologism, character, subject, idea, plot, composition, story.

Қазақ топырағында ақын ретінде есімі талай жұртшылыққа аян Мұқағали Мақатаев – қазақ әдебиетіндегі сонау Жүсіпбек, Мағжан салған, өзімен тетелес Т.Әлімқұлов, О.Бөкей, Т.Жармағанбетов секілді жазушылар шығармашылығымен үндес болып келетін лирикалық прозаның айқын шебері. Жалпы, әдебиеттанудағы лирикалық проза – адам образын сомдаудағы нәзік лиризмге, асқақ психологияға, адами болмысқа, шынайы да боямасыз мінез-құлыққа негізделетін ерекше жанр. Осы ретте М.Мақатаевтың әңгімелеріндегі нәзіктік пен сыршылдыққа тоқталсақ. «Құлпытас» әңгімесі – бала-көңіл, сәби-жүрек Зияштың жасандылықтан ада, адамзат ауылынан алыс кеткен адалдыққа құштар, қым-қуыт арпалысқан өмірден гөрі тазалықты, минимализмді сүйетін шыншыл көңілге ынтық, адамдар арасындағы бәрінен де қымбат сыйластықты, сүйіспеншілікті көргісі келетін әдемі әлемге құрылған шығармасы. Автор бір ғана Зияш образы арқылы тазалықтың, пәк көңілдің, байлықтан да қымбат тек қана бақыттың дәмін, өмірдің мәнін көрсетеді. Балалар әдебиетіндегі ең басты критерий – балалар ойының ерексектерге қарағанда жүйріктігі, сезім жүйесінің ең жоғарғы дәрежедегі дамуы, тіпті үлкендерге «үлкендер» секілді қарауында. Міне, қанша жерден «бала ғой», «не біледі дейсің», «уақыт өте қояды» деген сықылды сөздермен алдаусыратып, «ақтап» алсақ та, бала жүректің сонау түкпірінде сақталып, жатталып қалып, үлкен өмір айдынында мәңгілікке жаңғырып тұрар ішкі дауыс екенін көп адам біле бермесе керек. Трамвайдың ішінде отырып, балалық шақтың тәтті мезетіне көз жүгіртуі – адами фактордың, рационалистік көзқарастың, шынайы сезімнің осы кезден бастап санаға іргетас болып қалатынын меңзейтін көрініс. Зияш арқылы автор өмірлік көзқарастың нәзік иірімін, ешкім сезе бермейтін, көп адам бағалай бермейтін ара қатынасты, өзара келісімді, табиғаттың үндесуін, адам мен өмір арасындағы философиялық тұжырымды бір жағынан жеңіл берген бе,

* Қ.Жұбанов атындағы Ақтөбе өңірлік университеті Филология магистрі

осындай кіп-кішкентай образға сыйдырып, шыбықтай қыздың бойына үймелетіп, керемет ойды «айтқызғанының» өзі – «үлкен» адамдардың ашкөз, дүбәра, сезімсіз, көңілі соқыр, көкірегі тар сүйкімсіз мінездеріне берілген жауабы еді. Бір ғана Смағұл ағайдың образы арқылы оқушы мен ұстаз арасындағы таудай байланысты, адам жанын кішкентайдан түсінудің ерекшелігін көрсетсе, Ақыл образы арқылы жақын танысып, біліспесе де, адам жанының үндестігін, ыммен, көзбен ұғынар шынайы байланыс, сөзсіз түсіністік секілді ерекше сезімдерді білдіріп отыр. Өйткені Зияштың Ақылды ойлауы тектен тек емес еді. Ал трамвай ішіндегі кәрі адам, кондуктор, міз бақпай отырған «ересектер» аппақ қағаздай тап-таза жүректі, риясыз көңіл иесіне дақ түсірген бейнелер еді. Осы тұстағы Зияштың әкесін кінәлауы – психологиялық параллелизм негізімен астасып жатты. Жас баланың психологиялық арпалысқа ұшырап, іштей ызаланып, арпалысып, өз ойымен әлек болып, айналасынан қуаныш таба алмай, күйзеліске түсуін адамдардың қолымен жасалған дүние екенін автор ерекше образдылықпен бейнелейді. «Бұлқынған кішкентай жүректің» бойы кішкентай болғанмен, ойы орасан екенін тіпті жалдамалы пәтердің ақысына қатысты диалогқа қатысты ойынан да байқаймыз. Ойлана берген адам сөйлеуден қалады, осылайша Зияш ешкімге сырын ақтармай, ауыр ой жетегінде жүрді, алайда өздігінше саралады, таразыға теңестірді. Шығармашылықпен, шабытпен арпалысқан әке, еріне ерегiскен, үйінің берекесін қашырған, адам жанын түсінбеген, ешкіммен санаспаған әйел, екі бетке жаутандаған кемпір – міне, осындай лирикалық-драмалық арпалысқа құрылған «үштік» жастың жүйкесіне сызат түсіреді. Әкенің де Зияштың ойын қолдап, іштей түсінгенін күнделіктегі бір ауыз сөзінен байқаймыз, себебі әке мен қыз ғана – шынайы сезімнің иелері ретінде көрінді. Зияштың бейнесіндегі ауыл, ауызынан түспеген «ауыл» - утопиялық мекен, жанның жерұйығы. «...Тіпті араларындағы дүрдараз сол Зияш қазасымен бірге жоғалғандай болып, босағалары беки түскен, бір-біріне деген сыйлары артқан» [Мақатаев, 2013:116], - деген ой – шығарманың басты айтар қазығы. Жалпы адам баласы қолда бардың қадірін жоқта білетіні секілді, қиыншылық, қайғы түскенде ғана, ойланатыны белгілі. Осылайша, ерлі-зайыптының бір-бірінен ұялатындай халге жетіп, арасы жақындап, барға қанағат етіп, тәубеге келуі үлкен өкінішпен ұласқанын автор осындай сюжеттік шешім арқылы көрсетіп отыр. Әңгіме шағын болса да, айтар ой қорғасындай салмақты, берер тәлімі бір қаралық.

М.Мақатаевтың әңгімелері шағын әрі санаулы болса да, лирикалық прозаның шырайын шығарып, адам жанының формулаларын дөп басқан, күйбең тірлік, саяси-элеуметтік талпыныс, философиялық байлам, көркемдік пафостан ада, таза адами қалыпты жырлауды, натуралистік, психологиялық ұстанымдар арқылы адам көңілінің пернесін нық басуды мақсат тұтқан, аз жазса да, саз жазған. Қаламгердің «Марусяның тауы» атты әңгімесінде де жас балаша қылжақтаған сүйкімсіздікті, белгілі нәрсеге көзі жетпей лық етіп айта салу, бос күлкі мен мазаққа тіреліп, арзан ойға бой ұрып, адам жанын жаралау мен қаралауды, адамның жақсы жағын көрмей, көлеңке тұсын бажайлап, көңілге тиер-ау, келер-ау деп емес, бойкүйездікке батқан пиғылды сынай отырып, Сағи шалдың әсерлі оқиғасы арқылы өрбітеді. Таудың

Маруся аталғанын тілге тиек ете отырып, Сағидың көңілі таза, ары мен абыройына сызат түспеген мінезін автор образды жеткізеді, қаламгердің айтары – көңілді кірлетпеу, көңілге қаяу түсірмеу, көңілмен ойнамау. Маруся тауының атауының қайдан шыққандығы жөніндегі топонимдік аңызды жазушы ерекше композициялық құрылыммен талдайды. «Қасиетті есімді қадірлей білу керек. Оны былапыт сөзбен былғамаса болар. ...Әудем жер ұзағаннан кейін, машина терезесінен артыма қарасам, қария қабір басынан кетпеген екен...» [Мақатаев, 2013: 127], - деген лирикалық толғаныстағы идея адам жанының тазалығын, мөлдірлігін, көңілге кірбің түспеген риясыздығын суреттейді. Осы бір әңгіме Оралхан Бөкейдің «Аспирант қыздың тракторист жігіті» атты шығармасындағы Есеннің образын елестетеді. Сірә, Есен де шынайы көңілдің адамы еді.

Жазушының «Өзгермепті» атты әңгімесі композициялық құрылымы жағынан шағын болғанмен, диалог арқылы образ берудегі ерекше тәсілді қолданған. Шығармадағы Әбен образы эпикалық тұрғыдан алғанда, толық ашылған, оның дарақылығы, даңғойлығы, көпсөзділігі, бір сөзбен айтқанда, сүйкімсіз бейнесін жан-жақты ашады, оның мектеп оқушыларын жерден алып жерге салуы, үй ішіне маза бермей, аяқтарынан тік тұрғызуы, ұсақтығы, білуге, үйренуге, өзін дамытуға құлықсыздығы, біреудің намысына тиюі, мазасыздығы, білгішсініп көлгірсуі, өзіне-өзі есеп беріп, сырттай бақыламауы, кез келген сәтсіз оқиғаны өзінен көрмей, біреуден көруі, өмірлік поэзияны материалдық тұрғыда бағалауы секілді адам бойындағы мінездеулерді қаламгер дөп басып бір Әбеннің басына типтік бейнелеу тұрғысынан әдемі келеді. Лирикалық қаһарманның позициялық ішкі ойларын беруде де сұмдық тактикаларға бой алдырады. Қаламгер образдарды конфликтіге жүгіндірмей, лиризммен, терең психологиямен өрнектейді. Лирикалық қаһарманның: «...Ауқатты отбасын құрып, соның айбынды әкімі бола білген, ал ақыл-парасат, ой-сезім ше? Өзгермепті...» [Мақатаев: 2013:133], - деген ойы осы әңгіменің түйінін бергендей.

Қаламгердің мейірімге, аялы алақанға, жылы құшаққа, ыстық ұяға толы шығармасы – «Әже» әңгімесі. Сюжеті типтік бейнелеуге құрылған секілді көрінгенмен, шығармадағы тақырып ерекше лирикаға құрылған. Әженің психологиясы көп шығармада көрініс бергенмен, суреткерлік көркемдікпен қабыспай, ұштаспай жатады. Ал бұл әңгімедегі әже біз бірінші талдап кеткен «Құлпытас» әңгімесіндегі образдың заңды жалғасындай. Оқу бітіргеннен кейінгі лирикалық қаһарманның пікіріне анасы қарсы болғанмен, осы мезеттегі әже сөз нанымды да шынайы шығып, әңгіменің түйінін шешкендей. Жалпы, қаламгер шығармашылығындағы әже бейнесі толық ашылады: аңғалдығы, мейірімділігі, бала-келінінің көңіліне қарауы, баланың бетінен қақпауы, немере үшін бәріне даяр болуы, жамандықты жуып-шаю, бейбіт өмірді қалауы, ұсақ-түйекпен миды қатырмауы, айналаға шуақ шашып жүру, айта берсек, көп енді, осындай қасиеттердің барлығын толық аша түскен.

Әдебиеттану ғылымында көркем шығармадағы психологизм мәселесін бірден-бір зерттеген ғалым Г.Пірәлиева бұл саладағы 3 басты ерекшелікті былай талдайды: «Біріншіден, психологиялық прозада оқиға, кейіпкер, кезең, уақыт, тақырып, идея т.б. деген мәселелер алдыңғы сапқа шыға қоймайды.

Ол талап та етілмейді. Екіншіден, мұнда ең бастысы – жеке адамның ішкі өмірі, өмір мен өлім арасындағы кезеңде адамзат бастан кешетін азапты тағдыр тәлкегі, кейіпкердің күрделі тұлғаға айналуы көркемдік назарға алынады. Шығармада шым-шытырық оқиғалар тізбегінен гөрі жеке адам санасындағы сапалы өзгеріс, рухани қопарылыс, ішкі сезімдік құбылыстар тереңдетіле талданады. Үшіншіден, психологиялық прозаның эстетикалық, көркемдік әлемі өзінің жанрлық, көркемдік, стильдік талабына сай жеке санада жүріп жатқан ой мен сезім қайшылықтарын, сөз бен іс сәйкессіздіктерін тереңдеп талдап, көркемдік жүйеде саралайды» [Пірәлиева, 2003: 10]. Міне, осы пікірдегі ғылыми тұжырым, келтірілген дәйек М.Мақатаев әңгімелеріндегі лиризм мен психологизмнің көрінісін талдаған ойымызды дәлелдей түскендей. Сайып келгенде, М.Мақатаев әңгімелеріндегі нәзік иірім, көңіл бостандығы, жан тыныштығы, адал түсіністік, өмірге мейірбандық көзқарас секілді философиялық иірімдер – адам жүрегіне жол табар шынайы құбылыстар.

Әдебиеттер

1. Мақатаев М. Шығармаларының толық жинағы. Көптомдық. 4-том. Аудармалар, шығармалар – Алматы: Жалын, 2013. – 320 б.
2. Пірәлиева Г. Көркем прозадағы психологизмнің кейбір мәселелері (Түс көру, бейвербальді ишараттар, заттық әлем). Монография. – Алматы: Алаш, 2003. – 328 бет.

Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari

Adizova Nigora*

Adizova Nodira**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlarida salomatlikni saqlash va bunda tabiblarning roli haqidagi mulohazalari bayon etiladi. Bu maqola orqali Navoiy hazratlarining tib ilmiga ham befarq emasliklarini bilib olishimiz mumkin.

Kalit soʻzlar: *tibbiyot, mijoz, tib ilmi, sihat-salomatlik, moʻtadilik*

Respublikamiz va chet el matbuoti sahifalarida buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning serqirra ijodi va faoliyati haqida koʻplab bahs-munozaralar yuritilmoqda. Alloma haqidagi bilimlarimiz yildan-yilga boyib bormoqda.

Alisher Navoiy hazratlari tabiblar haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: «Tabib uz fanini mohir bilimdoni boʻlishi bemorlarga mehr-shavqat bilan muamala qilishi, asil tib ilmiga tabiati kelishmogʻi, donishmandlar soʻziga rioya qilib ularga ergashmogʻi muloyim soʻz va bemor koʻnglini koʻtaruvchi andishali, xushfel boʻlmogʻi kerak»[1].

Navoiy tabiblar va tabobat ilmi haqida ham koʻplab gʻazal, tuyuq, ruboiy va hikmatlar bitgan. Bu bejiz emas. Chunki, oʻsha davrlarda inson salomatligini muhofaza qilish, bemorlarni davolash juda ogʻir ahvolda boʻlgan. Oqibatda odamlar arzimagan kasallik tufayli uzoq vaqt toʻshakka mixlanib yotgan yoki vafot etgan. Bobokalonimiz imkoni boricha xalqqa yordam berishga intilgan. Hirot

* Dotsent, BuxDU isomiddinovm70@gmail.com

** PhD, BuxDU shoxaamir2630sh@gmail.com

shahrida o‘z mablag‘i hisobiga “Dorushshifo” davolash uyini bunyod etgani fikrimizga dalil bo‘ladi. Unda o‘sha davrda tajribali tabiblar bemorlarni qabul qilib, muolaja bilan shug‘ullangan. Shuningdek, bu yerda ishlayotgan tabiblar vaqti-vaqti bilan Navoiy tomonidan moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirib turilgan.

Alisher Navoiy tabobat ilmiga oid amaliy va nazariy masalalarni nihoyatda chuqur tushungan.

*Sarsab erur hamisha bu gulshanda sarvdek,
Ozodaiki bo‘lsa mijozida e’tidol.*

Bu misra orqali Navoiy kishida mijoz mo‘tadil bo‘lsa, u hamisha sarv daraxtidek nuqsonsiz va kamchiliksiz o‘sadi hamda salomat bo‘ladi. Bordi-yu, mo‘tadillik buzilsa, kasallik yuz berishi mumkin, demoqda.

*Har ta’bki zoti o‘lsa mahrur,
Oz hirkat etar tanini ranjur.*

Demak, kishining mijoz iyyiq bo‘lsa, ozgina iyyiq ovqat ham uni kasallikka chalintirishi va isitmasini oshirishi mumkin.

Navoiy bobomiz ba’zi shifobaxsh o‘simliklarning inson organizmi uchun foydasi haqida ham ko‘p misralar bitgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Navoiy o‘sha davrda dovrug‘i dunyoga ketgan Mavloni Abdulhay kabi tabiblar bilan mustahkam aloqa o‘rnatib, ularning tabobat ilmiga oid suhbatlaridan bahramand bo‘lib turgan. Mavloni Abdulhay Alisher Navoiy bunyod ettirgan “Dorushshifo”da faoliyat yuritgan va aynan shu yerda qontomirlar tuzilishi, ulardagi kasalliklarni davolash usullariga doir ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirgan.

“Karam va muruvvat ota va onadurlar” degan maqolga amal qilgan Navoiy bor mol-mulkinii ilm-fan ravnaqiga sarflaganki, bu barcha zamonlarning badavlat insonlari uchun saboq bo‘lgan va hozirgi zamon uchun ham ibratdir.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” risolasi islom dini manbalariga asoslangan asar bo‘lib, payg‘ambarlar – rasul va nabiiylar hamda hakim zotlar – allomalar tarixiga bag‘ishlangan. Shu ma’noda asarni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin:

1. Anbiyo-payg‘ambarlar tarixi.
2. Hukamo – hakim zotlar tarixi.

Mazkur qismda keltirilgan ma’lumotlarning bosh manbasi Qur’oni karim bo‘lib, muallif o‘z fikrlarini asoslash uchun muayyan oyatlarni havola qilib boradi. Yana bir e’tiborli jihati, Alisher Navoiy payg‘ambarlarning iymoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlaydi. Masalan, Ayub (a.s.)ning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to‘smaganini aytarkan, bu bilan sevgi va do‘stlikning sobit bo‘lishi haqidagi g‘oyalarini bayon qiladi.

Asarda har bir payg‘ambar qissasidan so‘ng muayyan she’riy parchalar keltiriladi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining ikkinchi qismi hukamolar tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu qism umumiy asarning taxminan to‘rtndan bir qismini tashkil etadi. Hukamolar tarixi anbiyolarnikiga nisbatan qisqa bo‘lib, umumiy ma’lumotlar bilan cheklanilgan. Alisher Navoiy Luqmoni hakim, Fishog‘ur (Pifagor), Jomosb, Buqrot (Gippokrat), Buqrotis, Suqrot (Sokrat), Aflotun (Platon), Aristotilis (Arastu), Balinos, Jolinus (Galen), Batlimus

(Ptolemey) kabi yunon faylasuflari va Sodiq, Buzurgmehr kabi fors hakimlarining, jami o'n uch nafar olimning tarixini qisqacha yoritadi. Har bir hikoyadan keyin an'anaviy tarzda bir bayt she'r ilova qilib boriladi.

Alisher Navoiyning tashabbusi bilan mamlakatda 300dan ortiq turli madaniy – maishiy binolar, kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Ayniqsa, o'sha vaqtda Poytaxt rolini o'ynagan Hirotida juda ko'p qurilish ishlari amalga oshilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Alisher Navoiy o'sha zamondagi olimlar singari tibbiyotga oid kitoblarni mutolaa qilgan. O'sha vaqtdagi madrasalarda boshqa fanlar qatorida tibbiy bilimlardan ham dars berilar edi. Binobarin, Alisher Navoiy madrasada o'qir ekan, tibbiy bilimlarni ham o'rgangan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy o'qigan madrasaning bosh mudarrisi – Fazlullox Abullaysiy – olim va tabib bo'lgan. Bu olim Alisher Navoiyning ustoz edi. U Alisher Navoiyga boshqa fanlar qatori tibbiy bilimlarni ham o'rgatgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Buni uning tibbiyot va tabiblar haqidagi fikrlari, mulohazalari va xikmatli so'zlardan bilsa bo'ladi.

Alisher Navoiyning tibbiyot, tabiblar va salomatlikni saqlash haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur «Mahbub ul qulub(qalblar sevgilisi) » nomli kitobidan bayon etilgan. Kitobda bu masalaga maxsus bob (15-bob) bag'ishlangan. Bu kitob olim hayotining so'ngi yillarida, katta ilmiy va hayotiy tajribaga ega bo'lgan davrida yozilgan. Kitobda asosan Navoiyning siyosiy, ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy qarashlari bayon etilgan. Kitob olimning hayot hodisalarining ko'p yillar davomida ko'zdan kechirish, tekshirish va umumlashtirish maxsulidir. Kitobning asosiy g'oyasi xalq parvarlik haqonilik, adolat va fuqaro haqida g'amxo'rlik qilishdan iborat. Navoiyning fikricha bu g'oyalari ayniqsa, tibbiyotda o'z ifodasini topishi zarur. Shuning uchun kitobda tibbiyot va tabiblar haqidagi masala yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida salomatlikni saqlash va bunda tabiblarni roli haqida fikr yuritir ekan, avvalo tabibning o'zi qanday odam bo'lishi kerak, degan masalaga to'xtaladi. Navoiyning fikricha, tabib birinchi galda o'z kasbini yaxshi egallagan mohir mutaxassis bo'lishi lozim, u raxm-shavqatli, insonparvar bo'lishi kerak. Unda tibbiyotga nisbatan layoqatlilik, yani iste'dod bo'lishi zarur. Tabib donishmandlarning maslaxat va tavsiyalariga amal qilishi lozim. U yoqimtoy, dilkash, xushmuomala, kamtarin bo'lishi darkor.

Tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni Navoiy jallodga o'xshatadi. Navoiy bunday yozgan edi: «chalasavod tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. Jallod qilich bilan o'ldirsa, nodon tabib zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir. Zero, u gunohkorni o'ldiradi, nodon tabib esa, begunohni hayotdan ko'z yumdiradi» [3].

Navoiy salomatlik va xastalik haqida so'z yuritir ekan, sharob masalasiga to'xtalib o'tadi. Sharobni u zaharga qiyos qiladi va ichkilikbozlikka berilish kishi tanasining zaiflashib, kasalga chalinishiga sabab bo'ladi, deydi. Bundan tashqari Navoiy boshqa zarali odatlardan (nashavandlik, qoradori iste'mol qilish, shaxvoniy ishga berilish va, x, k) ham saqlanishni tavsiya etadi. Salomatlikni saqlash borasida Navoiy birinchi o'ringa sifatli va to'g'ri ovqatlanishni qo'yadi. Badxo'rlik qilmaslikni tavsiya etadi. Shu bilan birga, och yurmaslik kerakligini ham ko'rsatib

o`tadi. U bunday deb yozadi: kimki salomatlik istasa, u mo`tdil ovqat iste`mol qilishi kerak».

Alisher Navoiy bazi mevalar va o`simliklarni masalan makkai sano, kanfora anor, bexi, limon va ko`katlarni shifobaxsh xususiyatlarini bilgan. O`zining bir she`rida u anor suvini siqib ichib, me`da xoli bo`lganini yozadi. Navoiy kishi salomatligida mizojning mutadil holatda bo`lishi muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilgan. Shuningdek, ovqat rejimining ham katta rol o`ynashini ko`rsatgan. Bularning hammasi Navoiyning tib ilmini qunt bilan o`rgangandan guvoh beradi . Navoiy o`tmishning buyuk tabiblari haqida o`z fir mulohazalarini bildirgan. U Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql idrok va tafakkur ramzi, deb atagan . Alisher Navoiy ilm ahillarini qadrlab, yuksaklarga ko`targan ularga Nuh payg`ambarning umirlarini tilagan. Navoiy yozadi: «Agar hikmatga bo`lsa iltifoting, ki bo`lsun Nuh umridek xayoting» Zamondoshlarning yozishicha, Navoiyning o`zi tabiblarga xos xususiyatga ega bo`lgan, uzi kelishgan, sarviqomat, zukko va nozik tabiatli odam bo`lgan doimo ozoda kiyinib yurgan. Zahiriddin Bobur bunday deb yozadi: «Alisherbek o`zining nozik tabiati bilan ajralib turardi, bu xususiyat unga naslidan o`tgandir» [1].

Shunday qilib, biz ko`rdikki, ulug` shoir tibbiyot masalalarida ham durustgina bilimdon kishi bo`lgan. Ammo Navoiyning amaliy tibbiyot bilan shug`ullangani ma`lum emas. Shunga qaramay, u Xuroson va Movarounnahrda tibbiyotning rivojlanishida juda katta rol o`ynagan. Navoiyning xizmati shundaki, u yirik davlat arbobi va insonparvar olim sifatida mamlakatda tibbiy muosasalar barpo etish, tib ilmini rivojlantirish tibbiy maktablar ochish, tib sohasida mutaxassislar tayorlash ishiga bosh-qosh bo`lgan, bu ishlarni amalga oshirishda o`z shaxsiy mablag`larini ham sarf qilgan.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To`la asarlar to`plami. 10 jildlik: 4-jild. – T.: G`.G`ulom, 2011.
2. Alisher Navoiy. To`la asarlar to`plami. 10 jildlik: 9-jild. – T.: G`.G`ulom, 2011.
3. Shuhrat Saidjonov “Alisher Navoiyning bolaligi”
4. Rustamov A “Alisher navoiyning badiiy mahorati”
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she`riyat. – T., 1990.
6. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.

Значение языка в развитии высшего образования

Гафурова Н. Т.*

Хикматов Н. И.*

Аннотация. Целью статьи является обоснование социальных аспектов функционального развития узбекского языка как «государственного».

В статье на основе нового подхода определяется содержание и структура понятий «государственный язык» и «функции языка» и показана его связь с развитием национальной идентичности.

* Бухарский инженерно-технологический институт доцент кафедры Технология текстильных материалов +9936208323, gafurova140270@gmail.com

* Старший преподаватель кафедры Конструкции и технологии строительных материалов +998(93) 477 45 80, hikmatov_1971@mail.ru

Рост и обогащение существующих социальных функций узбекского языка как государственного - влияние на конкурентоспособность национальной экономики, а также социальное, политическое, экономическое и духовное значение перехода узбекской письменности на латинскую. алфавит в Узбекистане и критически проанализированы проблемы в этой области.

Ключевые слова: *государственный язык, языковая политика, медицинское образование, статус, медицинские термины, фразы, наука, исследование*

Социально-политические процессы, происходившие в мире в конце XX века, поставили серьезные проблемы для языковой политики стран, вступивших на путь независимого развития, в частности, выбора государственного языка. В этом подходе есть еще две тенденции:

придание своему национальному языку государственного конституционно-правового статуса;

юридическое оформление государственного статуса нескольких языков.

Сегодня нет моноэтнических стран. Такие причины, как многонациональность и необходимость развития многоконфессиональных, национальных отношений и межкультурного взаимодействия, создали проблемы с опытом и практикой государственного языка.

Документы ЮНЕСКО устанавливают стандарты развития национальных языков и поддержки многоязычия. Однако существуют разные подходы, концепции и противоречивые тенденции в реализации государственного языка в независимых государствах. В связи с этим большое значение приобретает вопрос изучения социально-философских, концептуальных основ развития государственного языка с сегодняшней точки зрения.

На протяжении многих лет становление национальных языков как государственного в мировой науке изучается в медицинском, философском, политическом, правовом, лингвистическом и других аспектах. Подобные исследования направлены на поиск эффективных механизмов решения проблемы. Однако на практике отношения между государственным языком и национальными языками основываются на принципе языкового разнообразия, в порядке предоставления государственного статуса одному или нескольким языкам в конкретном государстве или наоборот.

В результате научных исследований в медицинской сфере формируются концепции, программы, методические подходы к реализации и функциональному развитию государственного языка. Следовательно, необходимо проводить гармоничную языковую политику в независимом государстве, обеспечивать широкое использование государственного языка, изучать его роль в поддержании национальной идентичности и обеспечении межэтнической стабильности. Социально-исторический факт, что в 1989 году узбекский язык получил статус государственного и начал свой путь независимого развития в качестве суверенного государства [Мирзиёев, 2019:1]. В связи с этим необходимо найти эффективные пути функционального развития и расширения узбекского языка, не оказывая негативного влияния на развитие языка и национальной культуры других

национальностей, проживающих в стране. Для выполнения этой задачи необходимо сделать объектом исследования социальные факторы функционального развития узбекского языка как фактор развития медицинского образования.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан», №ПФ-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению престижа». и статус узбекского языка как государственного», Постановление № ПФ-6084 от 20 октября 2020 года « О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» и PQ-On «О широком праздновании 30-летие принятия Закона «О государственном языке» от 4 октября 2019 г. Целесообразно выполнять задачи, поставленные постановлением № 4479 и другими нормативными правовыми актами о государственном языке.

Фароби считал слово важным фактором в обеспечении беглости речи и мысли. Действительно, рациональное употребление слов, соблюдение нормы речи имеет большое значение в период медицинского образования и деятельности для обеспечения логической последовательности мысли.

В XVIII-XIX веках, по словам западного мыслителя Ж. Ж. Руссо, «сначала был создан образный язык, а затем слова имели свое собственное значение». Это признак того, что язык является ключевым фактором возникновения общества и развития образования. Согласно Гумбольдту, «язык - это член мысли; мышление определяется не только языком, но и в определенной степени каждым отдельным мышлением; языки являются средством выражения специфического мышления народов» [Руссо,2020:15],- идея о том, что возможности мышления выражаются посредством языка, показывает бесконечность. А.А.Потебня утверждает: «Язык - один из важнейших инструментов индивидуального мышления, потому что понимание формируется только с помощью слов, а без понимания невозможно настоящее мышление» [Потебня,1989:38], а Фердинанд де Соссюр утверждает: “Мысль в обоих взглядах представляет собой взаимное диалектическое единство языка и мысли. Г.Г. Гадамер вводит понятие «язык науки [Гадамер,1991:50]» и, таким образом, проводит различие между публичным языком, научным языком и официальными языками. В частности, Б.Н. Шлейтер утверждает, что языковую политику в Узбекистане «можно трактовать не только как вопрос государственного языка, но и как вопрос языка». По его мнению, тот факт, что русские морфемы не используются в процессе словообразования в узбекском языке и важен для сохранения его национального статуса в медицинской сфере.

Во многих странах термин «официальный язык» используется вместо «государственный язык». Однако статус государственного языка имеет более высокий статус, чем у термина «официальный язык». По мнению экспертов ЮНЕСКО, государственный язык - это язык, который выполняет интегративную функцию в политическом, социальном и культурном контексте конкретного государства и является его символом. Например, во многих странах, таких как Швеция, Норвегия, Англия, Канада, Япония,

Китай и США, ни один язык не был объявлен «государственным языком». Но испокон веков большинство населения этих стран - граждане государств, говорящих на «официальном языке». Обобщая все определения, был сделан вывод, что «Государственный язык - это официальный язык конкретного государства, его внутренней и внешней деятельности». На основании анализа отмечается, что придание языку статуса государственного имеет официальное политическое содержание и никаких жестких правил в мире не выработано.

Закон «О государственном языке Республики Узбекистан», принятый 21 октября 1989 года, сыграл важную роль в развитии национального самосознания нашего народа, укреплении независимости страны, восстановлении культурного наследия, духовном обновлении общества, развитии наук и научных исследований [Джураев, 2000:472].

Было отмечено, что процесс принятия и работы над законом был чрезвычайно сложным, а при подготовке статьей закона строго соблюдались принципы социальной справедливости и толерантности всех граждан Республики. Развитию и дальнейшему совершенствованию узбекского языка как государственного языка способствовал его переход к письменности на основе латинского алфавита. Переход на латиницу - один из важных шагов в эффективном изучении медицинского языка.

После обретения независимости использование узбекского языка в процессе медицинского образования расширилось, его оценили, повысились его практическая значимость и социальная ответственность, а его задачи приобрели новое качество. В частности, во времена бывшего Советского Союза большинство населения, особенно много талантливой молодежи из отдаленных деревень, столкнулось с препятствием на пути к получению высшего образования, а затем к полной реализации своего потенциала в науке и практике. Эта ситуация была не только эпистемологической и прагматической, но и огромной политической и аксиологической проблемой. Способен ли узбекский язык обеспечить современное научное, техническое и профессиональное развитие людей? Усилит ли его политическая независимость, языковая и научно-техническая независимость? Чем разнообразнее и интенсивнее диалог нашего народа с другими народами, тем выше темпы развития. Но отношения, обмен должны быть двусторонними и относительно равными. Правда, на родном языке легче познать мир, науку, различную информацию, но, с другой стороны, насколько он может удовлетворить все гносеологические потребности с точки зрения лексики, терминологии, методологии и функциональности? В связи с этим были созданы новые направления в медицинском образовании и исследованиях на узбекском языке, изучены социальные тенденции в этой сфере.

С первых лет нашего независимого развития мы осознали волю и национальную идентичность нашего народа, и было замечено, что национального единства достаточно для развития узбекского языка. Проведены реформы в сфере медицинского образования, преподавания на узбекском языке во всех сферах профессионального и высшего образования

по подготовки медицинских сотрудников. Таким образом, функциональное использование узбекского языка в медицинской образовательной сфере быстро расширилось. Это, в свою очередь, привело к обновлению и воссозданию его словаря, особенно терминов, а также появлению новых методологических и медицинских фраз, предложений и, в некоторых случаях, нового порядка слов. Таким образом, появление новых функциональных функций языка и дальнейшее углубление и расширение существующих функций увеличивает спрос на его повествовательный стиль, лексическую и синтаксическую структуру.

Принятие около 10 законодательных актов по развитию информационной системы в Узбекистане о свободном и демократическом функционировании СМИ, наряду с развитием информационной сферы, положительно сказывается на развитии информационной функции узбекского языка. Также была проанализирована функция научных знаний в изучении становления узбекского языка как государственного. Отмечается, что основная задача языка науки - хранить научную информацию в системе знаков, точно передавать содержание научной информации получателю. Прежде всего, специфические функции узбекского языка в области науки отражаются в следующем:

во-первых, в задаче в рамках конкретной дисциплины (восприятие, мышление, обмен идеями в данной области, создание новостей, проведение исследований и т. д.);

во-вторых, в терминологии, то есть в формировании понятий, терминов, терминов, словосочетаний, относящихся к области науки;

в-третьих, в устном и письменном методах научного исследования - в формировании научного метода языка [Бахритдинова, 2020:20].

Роль функции научного познания узбекского языка определялась с помощью наукометрии, которая является важным критерием развития науки. Критериями развития науки были также критерии развития языка. Каковы лингвистические аспекты наукометрии? Например, количество ученых, проводящих исследования на определенном языке с использованием статистического метода наукометрии, количество научных публикаций, статей, опубликованных на этом языке, количество заказов на литературу в библиотеках и информационных ресурсных центрах и т. д. [Гафурова, 2017:171]

Методика подсчета публикаций основана на том, сколько научных статей и монографий написано каждым сотрудником научного учреждения, учеными на определенном языке в течение года. Метод индекса цитирования используется для расчета количества цитирований, использованных в исследованиях, статьях, монографиях. Метод индекса цитирования используется для определения параметра научной публикации, созданной ученым и ученым на определенном языке [Gafurova, 2020:508]. В период независимости внимание к Интернет-материалам было уделено тому, чтобы определить место развития узбекской науки в мире. Например, Узбекистан стал участником Web of Science Core Collection¹ в 2016 году, и, согласно аналитическому анализу исследовательской группы Университета Гранады,

Испания, узбекская наука заняла 94-е место в рейтинге стран SCImago по развитию наук в мире [Gafurova,2020:4].

В результате исследования были сделаны следующие выводы:

- после обретения Узбекистаном независимости принятие новой редакции Закона «О государственном языке» приобрело большое общественно-политическое, правовое и духовное, научное и исследовательское значение:

- социальная значимость заключается в том, что в прошлом узбеки, которым приходилось изучать русский язык для получения квалифицированного медицинского образования, продвижения по службе, использования государственных услуг, во многих случаях даже квалифицированной медицинской помощи, могли удовлетворить свои потребности в все области на своем родном языке;

политическое значение состоит в том, что придание узбекскому языку статуса государственного языка на постсоветском пространстве подняла уровень национальной консолидации на новый уровень, укрепила понимание национальной идентичности;

духовное значение состоит в том, что понимание идентичности, развитие национального сознания и мышления, изучение профессионального образования между поколениями проявляется в основном через язык. Если этот язык является родным языком, процесс будет эффективным и относительно полным.

его юридическое значение состоит в том, что, прежде всего, он имеет гарантию комплексной защиты со стороны государства.

Литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Узбекский язык - символ нашей национальной идентичности и независимой государственности, бесценное духовное богатство, огромная ценность для нашего народа//Газета Народное слово. – 22 октября, 2019 г. № 218, С.1.
2. Руссо Ж.Ж. Опыт о происхождении языков, а также о мелодии и музыкальном подражании. Глава III. //04.07.2020, С.15
3. Потебня А.А. Мысль и язык. Из книги: Потебня А.А. Слово и миф. М., Издательство «Правда», 1989, С.38
4. Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. Язык и понимание М.: Искусство, 1991. – С.50//
5. Жўраев Н. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. –Т.: Шарқ, 2000. – Б. 472

Тиббий лингвистик бирликлар платформасининг амалий аҳамияти

Гайбуллаева Нафиса Изатуллаевна*

Аннотация

Мазкур мақолада тиббий лингвистик бирликлар платформасининг долзарблиги ҳамда амалий аҳамияти ҳақида фикр боради. Ушбу платформа

* Бухоро давлат университетининг Педагогика институти доценти, ф.ф.ф.(PhD)

Ўзбек атамашунослиги захирасини бойитишда, терминларнинг атамалар орқали ёритилишида, аниқ ва ихчам терминлар ўрнига мазмундор изоҳларнинг берилишида, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилишида хизмат қилади.

Калит сўзлар: *термин, атама, эвфемиз, перифраза, метафора, таянч бирлик*

Ўзбек тилининг барча лексик ресурсларида бўлгани каби тиббий лексик бирликларнинг ҳам ўз бойиш йўллари бор ва улар тилимиз тараққиётидаги умумий қонуниятларга мувофиқ келади. Дунёда четдан сўз ўзлаштирмаган бирорта ҳам тил йўқ. Ҳамма тилларда ҳам янги тушунчани ифодалаш учун ё бошқа тилдан тайёр термин қабул қилинади, ё шу тилнинг ўзида мавжуд бўлган сўз ёки терминдан фойдаланилади, ёки янги тасвирий, изоҳли атамалар ясалади. Шу жумладан, биз сўз юритмоқчи бўлган тил корпуси учун база бўладиган тиббий платформа ҳам ўзбек атамашунослиги захирасини бойитишда, терминларнинг атамалар орқали ёритилишида, аниқ ва ихчам терминлар ўрнига мазмундор изоҳларнинг берилишида, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилишида хизмат қилади. Терминшуносларнинг билдирган фикрига қараганда, метафора, эвфемизм, перифраза атамалар ҳосил қилишда асосий рол ўйнайди. Бунда умумадабий ёки жонли тилдаги сўзларнинг бирор хусусиятини шаклан ўхшашлигини, ранг тусидаги бир хилликни асос қилиб олиш туфайли мана шундай янги-янги атамалар вужудга келади. Ўзбек тилининг турли соҳа терминологик тизимларини ўрганишга бағишланган кўпгина ишларда семантик усул билан термин яшаш терминологияни бойитувчи муҳим бир манба сифатида эътироф этилади.

Биз яратаётган тиббий бирликлар платформасида ҳам айнан шу уч (метафора, перифраза, эвфемизм каби) тил ҳодисаларининг хизмати катта. Тиббиётда ишлатиладиган кўштомқ, ноғора парда, шох парда, қорасон, сувчечак, чечак, қоқшол, тўрпарда, кўз олмаси, балиқ тангачаси, қулоқ супачаси бурун супраси чиғаноғи, қулоқ супраси чиғаноғи, сийдик найи каби терминларнинг ишлатилиши ёки пандемия туфайли бир қанча бирликлар нутқимиздан мустаҳкам ўрин эгаллади. Биргина коронавирус билан боғлиқ ўндан ортиқ кўзга кўринмас ёв, тождор вирус, инсониятни иложсиз қолдирган вирус, тождор вируснинг тожи, хавфли ёв, тожли душман, кўзга кўринмас митти офат, тож кийган вирус, дунё иқтисодини емирувчи касаллик, инсон саломатлигининг кушандаси, чекинмаётган ёв, дунё ҳамжамиятига катта хавф солган вирус, инсонларнинг тиббий саломатлигини емираётган вирус, инсонларнинг руҳий саломатлигини емираётган вирус каби бирликларнинг фаол қўлланилиши бевосита тиббий нутқ билан боғлиқ. Маълум бир ўзга тилдан кириб келган тиббий термин албатта изоҳга эҳтиёжманд. Платформада айнан шундай терминларнинг изоҳлари учта электрон луғат орқали изоҳланиб берилади.

1.Тиббий метафоралар электрон луғати ўзида бир қанча сўз ва сўз бирикмаларини қамраб олиб, қуйидагича изоҳланилади:

- Тиббиётда тана қисмлари номлари метафора йўли билан бошқа орган номи сифатида ҳам қўлланилган қуйидаги қоринча, оёқ, бош, бошча, лаб, бел, тилча каби терминлар бирикмали ҳолатда ҳам ишлатилади. Суякнинг боши, буйрак бели, юрак қоринчаси, қон таначаси, бачадон бўйни, мушакнинг орқа қорин қисми, ўн икки бармоқ ичак, танглай тилчаси, мия оёқчаси, тўрт босли мускул, уч бошли мускул, сингари атамалар каби;

- Кийим-кечак ва уларнинг қисмларини англатувчи терминлар: мия тўни, мия чоки, эшитув ҳошияси, қорин бурмаси, елка камари каби;

- Кундалик ҳаётда ишлатиладиган рўзғор буюмлари, турли нарса-предмет номлари метафора йўли билан атамалар ҳосил қилишда иштирок этган: сийдик пуфаги, ўт пуфаги, мия ўроғи, кулоқ сақичи, жигар тугуни, ноғора парда, шох парда, калла гумбази, суяк қавати, тиш тоши, тўр парда қадахчалари, киндик тизимчаси, буйрак калаваси, сўрғич толалари, нерв толаси, товуш пардаси, буйрак тўпи, қорин чарвиси, кулоқ ойнаси, соч кепаси, касаллик ўчоғи, кўкрак қафаси, ичак сўрғичи, буйрак жоми каби;

- Зооморфик метафоралар ҳайвонларнинг номларини, уларнинг тана қисмларини ва уларнинг мавжудлиги билан боғлиқ бошқа исмларни бирлаштиради: мия чувалчанги, йўлбарс юраги, бўританглай, от думи, балиқ тангачаси, товуқ эти, товуқ касаллиги, куёнлаб, филоёқ, ғоз териси, кўйбурун, тери сили, бақача, денгиз оти, балиқ икриси синдроми каби;

- Ранг билан боғлиқ метафоралар: малинаранг тил, миянинг кулранг қобиғи, қорасон, қизилча, сариқ, сариқ иситма, сариқ тана, кўкйўтал, пушти ранг темиртки, қоражигар, тарғил тана, қорақўтир, қора оқсоқ, сариқдоғ, оқ касали каби мисоллар шулар жумласидандир.

2. Тиббий перифразалар электрон луғатида ҳам ҳар бир тиббий терминнинг муҳим хусусиятлар тасвирланиб, қиёсланиб, структурал гуруҳлар асосида изоҳланади.

- сўз сифатида шаклланган тиббий перифразалар;
- ибора сифатида шаклланган тиббий перифразалар;
- сўз бирикмаси асосида шаклланган тиббий перифразалар.

Сўз сифатида шаклланган тиббий перифразалар

1. Грипп *касoфaт* ёмон ёпишди, беш-олти кун ваража қилди. (Мурод Муҳаммад Дўст “Лолазор”)

2. Ўжар экан бу солдат, деб ташлаб қўймадилар. Кўп қатори ярамни *боқдилар*. (Н.Сафаров. “Оловли излар”)

Ибора сифатида шаклланган тиббий перифразалар

1. Эшон ўзини сал йўқотаёзди. *Тили ганга келмай* галдирайди. (С. Аҳмад “Ҳукм”)

2. Сал совуқ тушди дегунча, *жонини эговлайдиган бод касали* туфайли айвонга ҳам чиқолмай қоларди. (“Ёшлик”дан).

3. Мана, бугун ҳам *илигидан дармони қуриб* қайтди. Бурнига чертсанг, йиқилади. (Шуҳрат, “Умр пағоналари”)

Сўз бирикмаси асосида шаклланган тиббий перифразалар

1. Бу йил дори ўрнига далаларга *ҳашарот қушандасини* қўйиб юборишди.

2. *Бешафқат касал қизнинг хуснинигина эмас, ёшлик ғурурини ҳам олиб кетди.* (С.Шамсийева “Шифокор”)

3. Дард деган нарса анойи беморни топса, танасидан чиқмай ўтириб олади. Шунинг учун ҳам оғриғининг тайини йўқ беморларни “*бой касал*” дейишади. (“Муштум”)

3. Тиббий эвфемизмлар электрон луғатида ҳар айтилиши уят, номаъқул, ноўрин саналган тиббий атамалар семантик базаси шакллантирилади.

- Аёлларнинг узрли ҳолатлари (ҳайз пайти, ҳомиладорлик даври) билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Биомоддани англатувчи тиббий эвфемизмлар;
- Давосиз ёки давоси узоқ кечадиган касаллик номлари билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинслараро (эркак ва аёл) муносабатларига нисбатан қўлланиладиган тиббий эвфемизмлар;
- Жинсий аъзолар номи билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинсий касаллик номи билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинсларга боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Инсон тана аъзоларини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар;
- Инсоннинг айрим физиологик ёки жисмоний жараён/ҳолатини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар;
- Соғаймоқ, касал бўлмоқ ва ўлим ҳолати кабилар билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар. Масалан: инсоннинг айрим физиологик ёки жисмоний жараён/ҳолатини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар:

Балоғатга етмоқ - таянч тиббий бирлик

Эвфемик бирликлари:

- *Барвақт етилмоқ (эвф).* Маълумки, жанубий мамлакатларда қизлар барвақт етилади ва улар 10 ёшдан бошлабоқ ҳайз кўришини бошлайдилар («*Ҳамшира*», 2016. №3. – Б.8).
- *Балогат ёшидаги қизлар (эвф).* Фоликуляр киста аёлларга қараганда балогат ёшидаги қизларда кузатилиб, гормонлар ажралишининг бузилиши оқибатида юз беради. Вақтида аниқланса, дори воситалари ёрдамида даволаш мумкин («*Сўғдиёна*», 2016. №23. – Б.32).
- *Биллур (эвф).* Қизларнинг ўсмирлик даврини гинекологлар биллурга таққослашади («*Ташхис*», 2018. №21. – Б.31).
- *Етилмоқ (эвф).* Маълумки, 16 – 17 ёшгача қизлар тўлишиб, бўйлари ўсиб қолади, аммо бу ҳали уларнинг она бўлиши учун етилганликларини билдирмайди («*Ҳамшира*», 2018. №3. – Б.11).
- *Етилиш палласи (эвф).* 9 ёшдан 18 ёшгача қиз бола жинсий жиҳатдан балогатга етади. Бу пайт етилиш палласи бўлиб, жинсий аъзолар ривожланади, қиз бола насл қолдиришга тайёр бўла бошлайди («*Шифоинфо*», 2017. №41. – Б.5).
- *Жиддий сакраш (эвф).* Организмдаги бундай жиддий сакраш ўсмир вужудига ўз таъсирини ўтказмай қўймайди («*Ҳамшира*», 2019. №7. – Б.18).

- Жинсий етилганлик даври (эвф). *Қизларда жинсий етилганлик даври хайз кунлари билан белгиланади* («Хамшира», 2016. №3. – Б.9).
- Нозик палла (эвф). *Балогат даври – нозик палла* («Хамшира», 2018. №31. – Б.9).
- Организм фаолиятининг заифлашуви (эвф). *Аслида, организм фаолиятининг заифлашуви жуда эрта, аниқроғи, инсон жинсий балогатга етгач, бошланар экан* («Шифо-инфо», 2016. №42. – Б.12).
- Оралиқдаги муддат (эвф). *Шуни унутмаслик керакки, ўсмирлик даврида одам катта ҳам, кичик ҳам ҳисобланмайди. У оралиқдаги муддат* («Ташхис», 2018. №1. – Б.32).
- Расида бўлиш даврида одимлаётган фарзанд (эвф). *Она расида бўлиш даврида одимлаётган фарзандининг айнан ўзига тегишли жинс вакиллари муҳитида ўсишига аҳамият бериши лозим* (www.muslima.uz).

Тиббиётга оид атамаларнинг эвфемистик, перифрастик, метафорик кўринишларини тавсифлаш ўзбек тили имкониятларининг кенглигини, бойлигини, вариантдорлигини, туркийзабон халқимизнинг тил маданияти юқорилигини тараннум этиш билан характерланади ҳамда таянч тиббий бирликларга ёндош номлар сифатида нутқда қўлланилади.

Француз ёзувчиси Антуан де Сент Экзюпери ёзганидек: «Мулоқот бу шундай неъматки, у орқали инсон лаззатланади [Экзюпери, 1963: 37]». Ширин суҳбат, ёқимли мулоқот ёки гўзал нутқнинг яратилишини бевосита тилнинг ранг-баранг имкониятлари таъминлайди. Бу имкониятлар, айниқса, шифокор ва бемор ўртасида юзага келиши мумкин бўлган ноқулай вазиятларнинг (айниқса, ўзбек мулоқотида) олдини олишда қўл келади.

Зеро, соҳа лингвистикасига киришиш жамият тараққиёти билан амалий боғлиқ. Чунки жамият саломатлиги шахснинг руҳий, жисмоний, маънавий соғломлигига боғлиқ. Демак, бу борада яратиладиган платформа аҳолининг турли тоифа ва қатлам вакиллари билан иш кўрадиган тиббиёт соҳаси мутахассис-ходимлари учун ўз фаолияти жараёнида юксак маданий нутқ кўникмаларига эга бўлишлари ҳамда тил захирасидаги ҳар бир сўздан эҳтиёткорона фойдаланишлари улар касбий маҳоратининг зарурий шarti бўлган лисоний воситаларга масъулиятли ёндашишини талаб қилади.

Ўзбек атамашунослиги захирасини бойитиш мақсадида биз тиббий бирликларнинг электрон платформасини яратмоқдамиз. Ушбу платформада терминларнинг атамалар орқали ёритилиши, аниқ ва ихчам терминлар ўрнига сермазмун изоҳларнинг берилиши, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилиши, уларни яратишда она тили имкониятларидан кенг фойдаланиши асос қилиб олинган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида таъкидланган “соғлиқни сақлаш тизими... аҳолининг тиббий ёрдам сифатига доир истак ва талабларига жавоб бераётганлиги” тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш соҳавий терминлар – “Тиббий эвфемизмлар луғати”, “Тиббий перифразалар”, “Тиббий лексика метафоралари” луғати, электрон луғатлар, электрон дарсликлар, уларнинг

мобил иловаларини яратиш заруратини юзага келтирмоқдаки, бу яратилажак ўзбек тили миллий корпуси учун ҳам ғоят муҳим ва аҳамиятлидир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Abuzalova M., Gaybullayeva N. (2021) Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*. Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. https://cibg.org.au/article_7795.html.
2. Антуан де Сент-Экзюпери. *Планета людей* (Нора Галь таржимаси). 1963. – Б. 37.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.
4. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2003. – 568 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. –671 б.

Алишер Навоий тиб илми ва табиблар ҳақида

Ҳайитов Шавкат Аҳмадович*

Аннотация. Алишер Навоий тиб илми ва табиблик касбига катта эҳтиром билан қараган. Улуғ мутафаккирнинг шифокорлик касбига қараши ўзининг замонавий мазмуни, барча даврларда ўз қимматини йўқотмаслиги, қўйилган масалага жиддий, холис, воқеий муносабати билан инсоният илмий-бадий тафаккури тарихида алоҳида ўрин эгаллаши мақолада асослаб берилган. Муаллиф Ҳазрат Алишер Навоий тиб илми ва шифокор ҳақида қарашларининг моҳиятини, ғоявий асосларини халқпарварлик, юртсеварлик, одамийлик тамойиллари ташкил қилишини ҳамда улуғ мутафаккир фикрлари ҳаётий ғоялар заминидан илдиз отганлигини теран далиллаган.

Таянч сўзлар: *тиб, илм, табиб, ҳақим, даво, образ, билим, тажриба, пок, раҳмдил, ҳаёли, хушфеъл, хушқилиқ, шафқат, марҳамат, футувват, Алишер Навоий, Ҳусайн Воиз Кошифий, Исо, Хизр, талмиҳ, ташбиҳ, ҳуқуқшунос, вазир, эл, мулк, ҳуқуқ*

Ҳазрат Алишер Навоий насрий асарларида ўз замонасининг машҳур ҳақимлари, моҳир табиблари номи юксак меҳр ва эъзоз билан тилга олинади. Мавлоно Қутбиддин, Мовлоно Алоул-мулк, Паҳлавон Муҳаммад Куштигир, Мавлоно Абдуссалом Шерозий, Мавлоно Абдулхай, Ғиёсиддин Азиз, Мавлоно Шамсуддин, Мавлоно Нуриддин улуғ мутафаккир назарига тушган ҳозик табиблардир.

Ўз вужудида дарвешлик, ҳофизлик, бастакорлик, шоирлик истеъдодини мужассам этган, Алишер Навоий замонасининг машҳур паҳлавони, XV аср Хуросон жавонмардларининг пешвоси Муҳаммад Куштигир ҳақида улуғ шоир ёзади: “Яна тибб ва ҳикматга кўп мулоямати бор эрди” [Навоий, 1999: 111]. Алишер Навоий талқинича, инсоннинг табиати ўзи шуғулланаётган

* Бухоро давлат университети ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф.ф.доктори s.a.hayitov@buxdu.uz

касбга уйғун бўлиши зарур. Хунарманднинг феълү атвори унинг кунлик машғулоти ички мазмуни билан мувофиқ келмас экан, нечоғлик мохир бўлмасин, у эл назарига тушмайди ва соҳасида муваффақият қозона олмайди. «Холоти Паҳлавон Муҳаммад»дан кўчирилган иқтибоснинг дастлабки сўзларидан аён бўлаётирки, куштигирнинг мизожида табиблик касбининг туб маъноси билан уйғунлик бор. Унинг таъби – «тибға мулойим». Шунинг учун ҳам замонасининг беназир шифокорлари табобат касбига оид баҳсу мунозараларда Паҳлавоннинг мулоҳазаларини сўзсиз қабул қилишган. Асрнинг ҳозик табиблари унинг даволаш усулларини васф қилганлар: «... ва доим бу фан баҳсида ва гуфту шунуфтида алар Паҳлавон сўзларин мусаллам тутиб, муолажаларин ҳам таъриф қилур эрди ва асҳобдин ҳар қайсиға мараз тори бўлса эрди, кўпи ул эрдиким, ўзи муолажа қилур эрди» [Навоий, 1999: 111].

Ватан ва халқ тақдирига кучли масъулият билан қараган улуғ мутафаккир тиб илми ва табиблик касбининг давлат ва жамият ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятини ғоятда чуқур ҳис қилган. Шунинг учун ҳам ўз ижодидан ижтимоий тоифаларнинг таърифиға кенг миқёсда ўрин берган адиб “Маҳбубул-қулуб” асарида тиб илми ва табиб образи талқиниға алоҳида фасл бағишлаган. “Атиббо зикрида” деб номланган фасл сарлавҳаси остидаги дастлабки икки ихчам жумладаёқ табиблик касбининг туб моҳияти ва табиб шахсида кузатилиши зарур бўлганасосий хусусиятлар ёрқин, аниқ ифодасини топган: “Табибға ўз фанида ҳазоқат керак ва беморлар ҳолиға шафқат. Ва нафси тибға таъби мулойим ва ҳукамо қавлиға пайрав ва мулозим. Сўзида рифқу дилжўйлук ва ўзида озарму хушхўйлук” [Кўлөзма, 12 в.]. Ҳазрат Алишер Навоий талқинича, табиб, энг аввало, ўз соҳасини – тиб илминини мукамал билиши ва беморға чексиз меҳр назари, ачиниш, аяш кўзи билан қарай олиши зарур. Шунингдек, унинг табиати тиб илмиға мувофиқ, мутаносиб бўлиши даркор. Яна улуғ мутафаккир бу соҳа мутахассислари олдиға қуйидаги талабларни қўяди: улуғ ҳақимлар сўзи ва кўрсатмаларига қатъий риоя қилиш; соҳанинг ўзидан билимдонроқ, тажрибалироқ намояндалари ҳузурида хизмат мақомида туриш; ахлоқан пок, раҳмдил, кўнгил овловчи, кўнгилға тасалли берувчи, ҳаёли, меҳр-муҳаббатли, хушфеъл, хушқилиқли бўлиш... “Табибға ўз фанида ҳазоқат керак ва беморлар ҳолиға шафқат” жумласининг маъно қамрови ғоятда кенг. Ихчам жумлада бадий етуклик намунаси мусажжаъ “ҳазоқат” ва “шафқат” калималари воситасида ҳосил қилинган. Буюк адиб бадий матнда “ҳазоқат” сўзининг ҳар иккала маъносидан моҳирона фойдаланган: 1. Табиблик; 2. Моҳирлик; билимдонлик [Навоий асарлари луғати, 1972: 761]. Сажъ унсури “шафқат” калимаси “марҳамат” сўзи билан маъно ўзанида тенгдир. Шунинг учун ҳам Алишер Навоий пандномасининг айрим кўлөзма нусхаларида котиблар юқорида асардан келтирилган жумлани маънони кучайтириш мақсадида “шафқат ва марҳамат керак” ифодаси билан якунлаганлар. Худди шундай ҳолат “Маҳбубул-қулуб”нинг жорий имломиздаги нашрларида ҳам кузатилади. Улуғ мутафаккир асарларининг 20 жилдлик мукамал тўпламида ҳам “Атиббо зикрида”ги фаслдан келтирилган иқтибос “шафқат ва марҳамат керак” тарзида интиҳо топган [Навоий, 1998: 23]. Шарқда элга шафқат

кўргизиш, мурувват тушунчалари жавонммардлик, футувват маслагининг маънодоши сифатида қўлланиб келинган. Руҳий-ахлоқий етуклик тимсоли бўлган футувват аҳли тамаъ ва ғараздан мутлақо ҳоли бўлиб, энг оғир вазиятда ҳам иймон-эътиқодларида собит турганлар. Мазкур тариқат одоб-қоидалари, расм-русумлари, талаб-тамойиллари ҳақида махсус китоб ёзган Ҳазрат Алишер Навоий замонасининг машҳур олими Ҳусайн Воиз Кошифий футувватни ҳосилдор дарахтга ташбиҳ қилади. Улуғ аллома талқинича бу сермева дарахтнинг илдизи пок муҳаббат, танаси тавозуъ, шоҳлари сабру тоқат, япроклари парҳез, пўслоғи одоб ва ҳаё, гуллари хушфеъллик ва марҳамат, меваси карам билан саховатдир [Кошифий, 1994: 12-13]. Кўнинадики, буюк Навоий шифокорда Ҳақнинг назари тушган футувват аҳлига хос олий фазилатлар мужассам бўлишини истаган.

Инсон ва инсонийликни, ижтимоий ҳаёт, таълим-тарбия ва ахлоқ мезонларини ҳамда ўз касбини юксак даражада эгаллаган ҳозик табибни улуғ Навоий Исо пайғамбарга тенглаштиради. Исо пайғамбар билан моҳир табиб ўртисидаги нисбат муносабат ҳам асарда чиройли асосланган. Зеро, Исои Рухуллоҳнинг мўъжизаси чиққан жонни ўз нафаси билан танга киритиш бўлса, ўткир табиб ўз муолажаси билан жисмдан чиқмоқчи бўлган жонни сақлаб қолади: “Ҳозик табибки шафқати бўлғай – Исои Рухуллоҳга нисбати бўлғай. Исо иши чиққон жонни танга кивурмак дуо била, мунунг иши тандин чиқадурғон жонга монеъ бўлмоқ даво била” [Кўлөзма, 12 в.]. Кўзи ва кўнгли тоза, қўли ва тили пок, меҳрли, ҳаёли, хушфеъл, моҳир табибнинг чехраси беморлар қалбига суюкли, ширин сўзи касаллар вужудига малҳамдир. Нафаси хасталарга шифо, ҳар бир босган қадами шифо истаганларга даводир: “Мундоқ табибнинг юзи мариз кўнглига маҳбубдур ва сўзи бемор жонига марғубдур. Дами алилларга даво ва қадами хасталарга шифо” [Навоий, 1999: 24].

Ривоятга кўра, Искандар ва Хизр зулмат қаъридан абадий тириклик сувини излашган. Ва уни топиш Хизр алайҳиссаломга насиб этган. Шунинг учун ҳам оғзаки ва ёзма адабий манбаларда Хизр доимий тирик юрган, одамларга ҳамиша ҳамдам, хайрли ишларга мададкор оқил йўлбошчи, эзгулик тимсоли сифатида талқин қилинади. Улуғ Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонида Хизр пири комил сари интилаётган Фарҳодга ғайбдан етган мададкор сифатида бадиий инкишоф этилган. У Фарҳодга поёнсиз водий билан Суқрот ҳаким яшайдиган тоғ оралиғидаги машаққатларни, мушкilotларни енгишда, тилсимотларни ечишда ёрдам беради, йўлбошчилик қилади. Ҳазрат Алишер Навоий комил табиб талқинида ҳам талмиҳ санъатини моҳирона қўллаб, ғоявий-бадиий мақсад ифодасида Хизр тимсолидан санъаткорона фойдаланган. Алишер Навоий талқинича, комил табиб сиймоси бемор учун нажоткор, халоскор Хизрдир, касални даволаш учун берадиган суюқ дориси эса Хизр алайҳиссалом зулмат қаъридан топган ноёб тириклик сувига тенгдир: “Хизри нажот анинг талъати ва оби ҳаёт анинг шарбати” [Навоий, 1998: 24].

Бутун ҳаёти, ижодий ва амалий фаолиятида одам ва унинг тақдири, соғлом, эркин ва фаровон ҳаёти ҳақида қайғуриш руҳи етакчилик қилган Ҳазрат Алишер Навоий табиб агар қанчалик ўз соҳасининг моҳир билимдони

бўлмасин, унда агар ўз касби одобига хос инсоний фазилатлар бўлмаса, у ҳеч қачон беморга рисоладагидек шифо етказа олмаслигини қуюниб ёзади: “Агар фанида моҳир бўлса, аммо бадхўй ва бепарво ва дуруштгўй, маризга, агарчи бир жонибдин илож еткурур, аммо неча жонибдин тағйири миждоз еткурур” [Навоий, 1998: 24].

Алишер Навоий фикрича, бирор ишни кўр-кўрона бажариш қабиҳликдир. Ўз хатти-ҳаракатининг қабоҳат эканлигини англамасдан яна ўша фаолиятда давом этиш гумроҳлик, ярамас қилмишининг зарарли оқибатини тушуниб етишни истамаслик эса ундан бадтар разиллик ҳисобланади. Ана шу маънода улуғ мутафаккир ўз касбини мукамал эгалламаган, тирикчилик ўтказиш, обрўпарастлик, шуҳратпарастлик тақозоси билан бу нозик соҳага кириб қолган савияси паст табибни жаллод билан тенг кўради.

Алишер Навоийнинг барча асарларида халқчил ғоялар ғоятда кенг ишланган. Улуғ мутафаккирнинг халқ ҳаёти, мамлакат тақдири билан чуқур қизиққани, юрт истиқболи учун қаттиқ курашгани ҳақида бир асаридан ёрқин, аниқ ва тиниқ назарга ташланиб туради. “Маҳбубул-қулуб”да Алишер Навоий замонасидаги барча касб эгалари ва ижтимоий тоифалар чуқур таҳлил қилинган. Ҳар бир касб соҳибига элга етказадиган фойда-зарарига қараб баҳо берилган. Асарнинг “Халойиқ аҳвол ва афъол ва ақволининг кайфияти” деб номланган биринчи бўлими 40 фаслдан иборат бўлиб, унинг уч фаслида тасвир ва ташбиҳ учун жоҳил табиб асос бўлган [Ҳайитов, 2000: 59].

Ҳозирги даврда ҳуқуқ-тартибот органлари ўз мақсади-вазифасига кўра суд, прокуратура, ички ишлар ва ҳ.к. тоифаларга бўлиниб фаолият кўрсатгани сингари Навоий яшаган XV асрда ҳам инсон ҳуқуқлари билан шуғулланувчи шайхул-ислом, қози, муфти каби ижтимоий тоифалар бўлган. Улуғ мутафаккир “Муфтийи фақиҳлар зикрида” (13-фасл) қалам юритар экан, фосиқ, шафқатсиз, порахўр ҳуқуқшунос муфтини одам ўлдирувчи жоҳил табибга тенглаштиради: “Муфтиеки, ҳийла била фатво тузар, қалами нўғи била шариат юзин бузар. Музд учун сийм олибки, молига қотар – динини дунёга сотар. Мундоқ муфти одамийкуш табибдур, бирига ислом қатли, бирига мусулмонлар қатли насибдур” [Навоий, 1998: 22]. Ўз манфаатини кўзлаб, кишиларнинг мансабига, молу мулкига қараб муомала қиладиган муфти одамларнинг тенг ҳуқуқлик ҳақини поймол этади. Алишер Навоий талқинича, элнинг яхшию ёмон ишлари юзасидан фатво берувчи, ҳукм чиқарувчи муфтию қозиларнинг қалби қонун илми билан тўлиқ бўлиши зарур. Улар қаноатли, қонун йўлида қатъий ва барқарор турувчи бўлмоқлари шарт. Бою канбағалга бир хил назар билан қарашлари, ўз вазифаларини суиистеъмол қилмасликлари, иккиюзламачилик, шаръий ҳийлалар тўқиш иллатларидан холи бўлмоқлари даркор: “Майлдин кўнгли беқусур ва ҳийладин замири бефутур. Қалами ривоётқа содиқ, рақами мужтаҳид сўзи била мувофиқ” [Навоий, 1998: 22]. 13-фаслда табиати юқорида келтирилган иллатлардан холи бўлмаган ҳуқуқшунос муфти “одамийкуш табиб”га тенглаштирилади. Чунки улардан бири муқаддас ислом динининг қонун-қоидаларини поймол этади, бири эса одамларнинг азиз умрига зомин бўлади.

“Атиббо зикрида”ги 15-фаслда эса жоҳил табиб жаллод шогирдига қиёс қилиниб, ҳукм бўйича гуноҳкорларни ўлдирувчи жаллод саводсиз табибдан устун қўйилади. Чунки савияси паст табиб бегуноҳ одамларнинг умрига зомин бўлади: “Ва лекин омий табибким, эрур шогирди жаллод, ул тиф била, бу заҳр била қилғучи бедод. Ул мундин яхшироқдур, беиштибоҳким, анинг қатли гунаҳқордир ва мунунг – бегунаҳки, ҳеч гунаҳқор анга залил бўлмасун ва ҳеч бегунаҳ мунга алил бўлмасун” [Навоий, 1998: 24].

“Вузаро зикрида”ги 5-фаслда эл меҳнатини елга совуриб, мамлакатни хароб қилувчи вазир саводсизлиги туфайли беморларни ноҳақ ўлдирувчи табибга ўхшатилади ва бу икки ижтимоий тоифадан (золим вазир ва жоҳил табиб) жаллод афзалроқ эканлиги уқтирилади: “Бу золимлар – мулкни барбод бергувчилардур ва мулк аҳли йиғиштурғонларин битиргувчилардур... Заҳр бериб бемор ўлтургувчи табиб, буларнинг ҳолига мушобехдур ва қариб” [Навоий, 1998: 16].

Сиртдан қараганда, назардан ўтказилган ҳаёт лавҳаларида фақат касб масъулияти, касб одоби хусусида жиддий мулоҳаза юритилгандек кўринади. Аслида эса жоҳил табиб танқиди воситасида инсоннинг яшаш қуқукига асосий эътибор тортилган. Жоҳил табиб беморнинг ҳаётига хавф солади ҳамда унинг яшаш ҳуқуқини поймол этади. Ҳолбуки, шифокорнинг вазифаси инсоннинг ҳаётини қўриқлаб, униасраб қолишдир, демоқчи улуғ адиб. Айни ҳақиқат 15-фаслда талмеҳу ташбиҳ санъатлари кўзгусида ғоят тиниқ акс этган [Навоий, 1998: 24].

Қалби инсоф гавҳаридан мосуво вазир мулку мамлакатни барбод қилади. Мулк ва мамлакат эса халқникидир. Демак, у жоҳилона хатти-ҳаракати билан миллионлаб жафокашнинг мулкчилик ҳуқуқини поймол этади. Шу боис адолатли ва кучли ижтимоий сиёсат юргиза олмайдиган вазирнинг юзига салтанат дарвозасини ёпмоқ зарур. Алишер Навоийнинг эл мулкни ва мулкчилик ҳуқуқини яқсон этадиган, халққа иқтисодий зарар етказадиган амалдорга ҳамда инсоннинг яшаш ҳуқуқини поймол этадиган саводсиз табибга нисбатан қаҳри бениҳоя қаттиқ. Бадиий ифода, ташбиҳу тамсиллар ҳам ижодкор руҳиятининг айни вазиятдаги мантиғидан келиб чиқади: “Бу икки хайлдин (ноинсоф вазир ва жоҳил табиб) ҳар бири бир афъи (илондир), шоҳға вожибдур буларнинг дафъи. Булар, жумласи чиёнлар, халойиққа еткурур зиёнлар. Килклари нўғи (қаламининг учи) ақраб (чиён) ниши, раият жониға ул ниш ташвиши. Неча бу ниш мазлумларға санчилғай, умид улки, бошлари ажал тоши била янчилғай” [Навоий, 1998: 16].

Юқоридаги ташбиҳу қиёсу тасвиру талқинлардан келиб чиқадиган қатъий хулоса шуки, Ҳазрат Алишер Навоий шифокорлик касбини ноҳоятда улуғлаганлар ва шу билан бирга ҳар бир касб соҳибини ўз нонини ҳалоллаб ейишга даъват этганлар.

Адабиётлар:

1. محبوب القلوب علي شير النوائي. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма. – 121 в.

2. Алишер Навоий Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 304.

3. Алишер Навоий Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 236.
4. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 784.
5. Ҳайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2000. – Б. 166.
6. Ҳусайн Воиз Кошифий Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 112.

THE IMPORTANCE OF METAPHORS USAGE IN MEDICAL DISCOURSE.

Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi*

Annotation: This article discusses the general concept of medical discourse and the importance of using metaphors effectively in this process.

Keywords: *medical language, medical discourse, cognitive metaphor, anthropocentrism, pragma linguistics*

Medical discourse is the sphere of professional and communicative interaction between medical workers and a sick person. There is a growing interest in medical discourse in the modern world. The number of medical publications, websites and forums filled with medical terminology and concepts is increasing. Patients interested in their own health are more likely to turn to various sources for help, where they try to find answers to pressing questions. They do not always understand a specific medical text, while patients do not always trust the doctor, more often this happens due to a misunderstanding of each other.

Communication between a doctor and a patient requires a special approach and speech technological methods that deliberately affect a person for therapeutic purposes. Therefore, I would like to dwell on the features of medical discourse. Medical discourse, both written and verbal, has its own characteristics.

- First, a medical discourse is a medical text, more often a specialized medical publication that talks about a disease, its diagnosis, treatment, prevention, etc.

medical literature is subdivided into popular science (for those not versed in medicine, scientific (for specialists in the field of medicine). Popular science medicine is readily read by a wide range of readers, of various ages and professions.

Scientific medical texts are characterized by a strict, monotonous, practically devoid of any expressiveness style of scientific presentation using terminology and abbreviations.

The purpose of medical discourse: exchange of experience in the medical world; disclosure of research data of certain specialists.

* Lecturer of translation studies and language education department Bukhara state university

Participants of scientific medical discourse - specialists, medical practitioners, medical professionals, students of medical institutions,
The participants in the popular scientific medical discourse are doctors and patients.

➤ Secondly, in scientific and popular science medical discourse highlight

- speech genres:
- scientific article,
- monograph,
- overview,
- report,
- lecture.

All of them are aimed at providing professional medical care to the patient. Popular science medical discourse: medical booklets, articles, reviews, interviews with practitioners in popular scientific journals on medicine, designed for a wide readership, to inform the patient about the prevention, treatment of diseases and preservation of health. The presentation of medical issues is simple, accessible, understandable.

➤ Thirdly, medical discourse has a special style of presentation of special medical terminology, a special form of dialogue with the patient, where the doctor explains in an accessible language a particular problem related to the patient's health.

It should be noted from the outset that cognitive science, based on interdisciplinary research in the field of the theory of knowledge, cognitive psychology, neurophysiology, cognitive linguistics, non-verbal communication and the theory of artificial intelligence, is characterized by a tendency towards an anthropocentric orientation, where a person is in the center of attention and activity as the owner. consciousness, thinking and language, as well as a source of formation, processing and transmission of information. In this regard, it should be noted that the role of the researcher using cognitive analysis in the research process is increasing and becoming more and more significant, since the researcher plays an active role in the experimental process as an active observer and inventor.

As G. Fauconnier notes: “When language, mind and culture are the object of scientific study, the researcher is no longer just a spectator [Fauconnier, 2003, pp. XVIII]. He or she acts as one of the actors as part of the phenomenon being studied: the thinking and talking that needs to be demystified are also the thinking and talking used to bring about the demystification. An investigation that will uncover secrets behind the scenes is also part of the mainstream show, and we are clearly on intellectually dangerous ground.

The language, which should be the object of research, is both a means and an instrument of cognitive processes. During the study of medical discourse, one should take into account the importance of the anthropocentric factor, which has a special effect on the implementation of the language of the specialty according to certain discourse indicators, as well as linguistic and extra linguistic factors. In this regard, it should always be borne in mind that medicine is a special area of human activity that is directly related to the preservation and improvement of human

health and life. Therefore the main ontological concepts of this area at the cognitive level are the concepts of "treatment (cure)" and "prevention" , which represent the main areas of a more general concept of a universal nature, that is, medicine, which is a vast conceptual field containing a large number of components that exist at different levels of the hierarchy.

One of the most important points to emphasize in this regard is that discursive factors, and to a large extent extra linguistic ones, can play a significant role in terms of the dynamic nature of the linguistic representation of these conceptual structures, on the one hand, and how the professional language used on the other. This situation was reflected at different levels of linguistic representation, characterized by a specific choice of linguistic means, including specific methods and strategies of lexicographic fixation. Consideration of discourse as a dynamic phenomenon allows us to assert that discursive activity includes the constant processing of information emanating from the discourse itself, the internal cognitive reserves of communicants and the external situation of communication, including implied, implicit information presented by the same linguistic units, at the same time accompanied by some other, non-linguistic conditioned intentions of the speaker (or writer), "hidden" meanings, which also presupposes adequate interpretation and understanding of the listener (or reader). Thus, in this case, the connection between linguistic meanings and the speaker's intentions with the communicative goals of speech activity should be taken into account.

Speaking about the intentionality of discourse, it should be borne in mind that the pragmatics of discourse correlates with the concept of understanding as an adequate interpretation of the transmitted values, which is focused on the creation and reflection of the hierarchy of different types and formats of knowledge. The medical language is reflected in real speech implementations, as well as in a systematic way of design, lexicography, and dictionaries. As in any other vocational language registry, linguistic units in medical English belong to different semantic layers of the language, that is, words of a general vocabulary, words of a scientific vocabulary, medical terms and, of course, medical slang or jargon, which is a peculiar phenomenon in professional languages. The use of allegory (paraphrase), euphemisms and metaphorical expressions is extremely common in medicine, since medical discourse deals with both professional communication between specialists (staff) and communicative situations between a doctor and a patient. It is well known that in professional communication two main types of knowledge are realized - professional knowledge concerning the subject of a certain area of knowledge, and linguistic knowledge, which relate to a certain repertoire of linguistic means used to convey professional information.

From a communicative and cognitive-pragmatic point of view, a patient-oriented approach, which, first of all, is based on patient orientation and considers him as an active participant in preventive and therapeutic processes and as a subject of medical care, became a new direction in the field of interaction between doctor and patient and was extrapolated to the areas of presentation of scientific, popular science and lexicographic materials [Новодранова, 2009]. In other words, in relation to medical dictionaries, one can find the user's approach, which, apparently, refers to the concept of anthropocentric orientation in the field of

modern linguistic preferences and helps to satisfy the requirements of the addressee, that is, to take into account the level of his or her knowledge in a certain area of knowledge, the goal referring to the material of the dictionary, a way of using the information obtained to transform it into a pragmatically significant part of knowledge.

The dynamic nature of the language is reflected at the level of both terminological units and words (or phrases) of general linguistic functioning. Thus, a certain kind of homonymy in the establishment of some cognitive linguistic formations presented in medical discourse, conceptual status, turns out to be associated with intricate internal processes within units that find their realization as scientific concepts, on the one hand, and concepts proper, on the other.

The functional approach helps to define their extremely important characteristics within this framework. It should be noted that discursive factors play a decisive role in the research process.

As mentioned above, one of the most important features of medical discourse is the area of nomination, where almost all linguistic units that represent a medical phenomenon have analogs in Latin or Greek, and also some of them have synonyms used in ordinary speech or metaphorical linguistic representation [Вишнякова, Маргания, 2011].

The usage of cognitive metaphors in medical language has several functions. They operate in various fields of science for the purpose of creating and accumulating new knowledge and skills, as well as interpreting some complicated effects. They can also serve to develop new approaches in medical areas related to human life and health. In medical discourse, metaphors are used to describe a patient's condition in terms of certain disease syndromes that are difficult to explain in any other way, especially in emergency situations where urgent action is taken.

Cognitive metaphors can be used for communicative pragmatic purposes in medical discourse, including ethical issues of communication. At the same time, there are situations in which the use of metaphors does not have any positive effect on patients and can be detrimental in the process of establishing mutual understanding between the interlocutors. As already noted, a lot depends on the factors of discourse, which include elements such as linguistic features, characteristics of the communication situation, conceptual and linguistic relationships of the communicant's worldview.

Metaphors play an important role in some situations of decision making using specific linguistic means, which are especially important from the point of view of medical communication.

References:

1. Касымова О.П., Линник Л.А. Медицинский дискурс в современной лингвистике // Вестник Башкирск. ун-та. 2017. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskiy-diskurs-v-sovremennoy-lingvistike>
2. Вишнякова Е. А., Вишнякова О. Д., Киселева А. В. Медицинский профессиональный дискурс в контексте когнитивно-лингвистического

- анализа //Дискурс профессиональной коммуникации. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 55-69.
3. Fauconnier G. Mental Spaces. Cambridge University Press, 2003.
 4. Новодранова В.Ф. Когнитивные основы распространения информации в научном тексте. Горизонты современной лингвистики: традиции и инновации: Сб. в честь Е.С. Кубряковой. Москва: Языки славянских культур, 2009. С. 194-198.
 5. Khaydarova Nodirabegim Ahtamjonovna. (2021). Significance of Phraseological Units application in Medical Discourse of English and Uzbek Language. *Middle European Scientific Bulletin*, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.471>

О‘zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo‘llanilishi

Jumayeva Marjona*

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalq maqollarida mavjud bo‘lgan kasallik nomlari va ularga aloqador turli semalar tahlilga tortilgan. Har bir maqol alohida keltirilib, ularning ma‘nosi izohlangan va unga bog‘liq tushunchalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *sema, tahlil, analiz, “og‘riq”, “dard”, “anqov”, “pes”, “moxov”, kasallik nomlari*

Bugungi kunda tibbiy birliklardan kundalik axborot almashinuvida tez-tez foydalanamiz. Insoniyat bor ekan, uning issiq-sovug‘i bo‘lgani kabi vujudini azoblaydigan, halovatini o‘g‘iraydigan kasalliklarning ham bo‘lishi tabiiy hol. O‘zbek xalq maqollarida ham qator tibbiy birliklarni uchratishimiz mumkin.

“Og‘riq” semasini birlashtiradigan o‘zbek xalq maqollari:

Og‘riqsiz bosh yer ostida kerak

Ushbu maqolda toki inson tirik ekan, unda ma‘lum bir og‘riqlar bo‘lishi, tanasini azoblashi tabiiy holligi haqida fikr aytilgan. Inson vafot etgandagina dard-u og‘riqlardan forig‘ bo‘lishi haqida bayon etilgan. Mazkur maqol orqali har dardga qarshi kurashib, sabr qilib, yashayotganligi uchun shukur qilib yashash kerakligi haqidagi fikrga ishora bor.

Og‘riq-og‘riq — ko‘z og‘rig‘i, Har kimsaning o‘z og‘rig‘i.

Ushbu maqolda “og‘riq” leksemasi “ko‘z og‘rig‘iga” nisbatan ishlatilgan. ”Har kim jonidan o‘tganini o‘zi biladi” qabilidagi fikr bayon etilgan.

Og‘riq qayerda bo‘lsa, jon o‘sha yerda.

Bu maqolda insonda dard, og‘riq bor ekan, demak uning joni bor, demak u yashayapti, degan fikr aytilmoqda.

Og‘riq tishning davosi — ombir.

Ushbu maqolda insonga eng ko‘p azob beradigan dard – tish og‘rig‘i haqidagi fikr mavjud. Har qanday kasalni davolash mumkin, ammo vaqtida davolanmagan tish og‘rig‘iga davolash faqat ombir ekanligi aytilgan.

Og‘riq ko‘paysa, emchi ko‘payar.

Hayotda shunday insonlar borki, ular vaziyatga qarab o‘z kasblarini

* BuxDU filologiya fakulteti Lingvistika 2-bosqich magistranti jumayeva7@mail.ru

o'zgartirishadi, o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish qilishadi. Ushbu maqolda foyda evaziga mutaxassis bo'masa ham u singari tuzatishga harakat qiladigan "tadbirkor" insonlar haqida aytilgan.

**Qattiq qishdan mol qolsa — o'lja,
Qattiq og'riqdan jon qolsa — o'lja.**

Ushbu maqolda "qattiq og'riq" birikmasi "bedavo dard" ma'nosida kelgan. Sizga kelgan og'ir dardni yenga oldingizmi, joningiz omon qoldimi, demak, siz katta o'ljani qo'lga kiritdingiz, bu sizning yutug'ingiz, deya aytilmoqda.

**Og'riqsiz bosh bosh emas.
Oh tortmasang, soch oqarmas.**

Ushbu maqolda qarilik darakchisi hisoblangan soch oqarishiga faqat yillar zarbi sabab emas, balki bosh og'rigiga sababchi bo'ladigan turli omillar ham sabab ekanligi juda go'zal tarzda ifodalangan.

Xalq donishmandligi mahsuli bo'lmish maqollarda "**dard**" semasini birlashtirgan tibbiy birliklar ham talaygina. Ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

Toza havo – dardga davo

Har kuni o'z ustida ishlash, badantarbiya qilish, toza havodan nafas olish har bir insonning salomatligi uchun garovdir. Ushbu maqolda ham toza havodan nafas olish turli dardlarga davoligi aytilgan.

**Asrayman desa balo yo'q,
O'laman desa – davo.**

Dardni ham, davosini ham Olloh beradi. Har kim peshanasidagini ko'radi. Taqdirimizga bari yozilgan. Ushbu maqolda ham shu falsafa aks etgan holda ba'zi kasalliklarga faqatgina o'lim davo bo'lishi aytilgan.

O'zbek xalqi – dono xalq. Har ishda ziyraklikni, hushyorlikni qadrlaydi. Dangasa, gap uqmaydigan, anqov insonlarni esa xush ko'rmaydi. Quyidagi maqollarda "**Anqov**" semasi qatnashgan xalq maqollari tahlilga tortilgan.

**Kasalga davo topilsa ham,
Anqovga davo topilmas.**

Xalqimizda Olloh bergan har qanday kasallikka davo topish mumkin, ammo farosatdan qisgan bo'lsa bedavo, degan gap ham mavjud. Odamlar orasida shunday insonlar borki, ularga qancha tarbiya bersang ham, gap uqtirsang ham befoyda, baribir yuzingga qarab angrayib, nima qilishini bilmay turadi. Ushbu maqol shu kabi kimsalarga atab aytilgan.

**Anqov o'yin buzar,
Tentak – uyin.**

Hech narsani tushunmay "qovun" tushiradigan insonlar yaxshigina ketayotgan o'yinni buzishlari, tentak esa axmoqligidan uyini ham buzib yuborishi mumkinligi mazkur maqolda aks etgan.

**Yer yuzini baxmal olsa ham,
Anqovga taqiyalik tegmas.**

Anqov, tentak kabi insonlar oldida turgan bir dunyo imkoniyatlardan ham foydalana olmaydi. Go'yoki, yer yuzini baxmal olsa ham u kabi insonlar tangadek joyini ololmasligi kabi. Ushbu maqolda sergak bo'l, imkoniyatlardan foydalan, anqovga o'xshab qolma, degan fikr yoritilgan.

**Yolg‘onga yo yalqov inonar,
Yo – anqov.**

Xalqimizda “yolg‘onga bola ishonadi”, “aldagani bola yaxshi” kabi iboralar mavjud. Yana shunday toifadagi insonlar borki, ularni aldash oson. Ular anqov va tentaklardir. Maqolda ehtiyotkor bo‘lish lozimligi, har narsaga ishonish kerak emasligi aytilgan.

Quyidagi maqollarda “Pes” kasalligi qatnashgan xalq maqollari tahlil etilgan.

Pes pes bilan qorong‘uda topishar

Ushbu maqolda “Ko‘r ko‘rni qorong‘uda topadi” degan mazmun ham bor. Har kim o‘ziga mos odam bilan do‘stlashadi. Ularning, nafaqat dunyoqarashlari, balki ko‘rinishlari ham birxillik kasb etishi haqida so‘z boradi.

**Pes pesni topar,
Suv – pastni**

Ushbu maqolda ham yuqoridagi fikr o‘z ifodasini topgan. Insonning qanday do‘st tanlashi uning o‘z xarakter-xususiyatidan kelib chiqib amalga oshishi haqida aytilgan.

O‘zbek xalqi kamdan-kam tilga oladigan kasallik nomlaridan biri bo‘lgan “moxov” kasalligi ham xalq maqollarida uchraydi.

Pesning chekiga moxov tushibdi

Ushbu maqolda har kim o‘ziga o‘xshagan inson bilan do‘st tutinadi, u bilan munosabatga kirishishni hayotning o‘zi taqazo etadi, degan fikr o‘z ifodasini topgan.

**Moxov qoshdan gapirar,
Mechkay oshdan gapirar**

Har bir inson bu dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Tabiiyki, u aytayotgan fikrda ham uning tafakkuri aks etadi. Yuqoridagi maqolda ham shu fikr aks etgan.

Nutqda maqollardan foydalanish so‘zlovchining yuksak tafakkuridan dalolat beradi. O‘zining boy tarixi va yuzlab maqollariga ega o‘zbek xalqi ilm-ma‘rifatda benazir ekanligini bundan bir necha asr oldin isbotlagan. Yuqoridagi maqollar ham xalqimizning o‘z turmush tarzi va boshidan kechirgan voqealarga asoslanib yaratilgan. Yuqorida zikr qilingan maqollardagi tibbiy birliklar bugungi kunda yaratilgan yangiliklar emas, balki avvaldan mavjud bo‘lgan kasalliklar va ularga aloqador semalar ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

XXI asr tibbiyoti va tibbiy madaniyati jadal rivojlanayotgan ekan, soha lingvistikasining alohida ko'rinishi sifatida tibbiy lingvistika ham o'sishda davom etadi. Bugungi kunda shifokor nutqini o'rganish, tibbiy muolaja jarayonida qo'llaniladigan so'z va iboralar, dori-darmon nomlari, inson tana a'zolarini o'zbek adabiy tili va nutq madaniyatiga mos ravishda tartibga solish tilshunoslikning tibbiyot bilan aloqadorlikda ish ko'rishini belgilaydi. Tibbiy terminlarning shakllanishida tasviriy vositalarning o'rni beqiyos. Metafora, tasviriy ifoda, jonlantirish badiiy adabiyotning asosiy mexanizmi bo'lishiga qaramay, tibbiyotga oid nutqda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi//<https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
2. Кожин А.Н. Перифрастические построения в языке советской эпохи// Русский язык в школе.1977.-№4. – С.89-94.
3. Қўнғуров Р.Қ. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 172 б.
4. "Hamshira" jurnali, 2011.-№1(53). –В.19-20.

4-SHO`BA

TIBBIY BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TADQIQI

Тилшуносликда эвфемизм ҳодисаси талқини

(Х.Худойбердиева шеърлари асосида)

Юсунова Дилдора Юнус қизи *

Аннотация. Маънавий камолотга эришишда маданий мерос бўлмиш тилдан ўринли, оқилона ва самарали фойдаланиш, уни чуқур ўрганиш ва

* * Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси докторанти

ундан баҳраманд бўлиш зарур. Зеро, исталган кишининг ўзи яшаб турган муҳитидаги одамлар билан алоқа-аралашуви, эътиқоди, урф-одатларга риоя этиши, интилишлари, миллий қадриятлари унинг шахс сифатида шаклланишини таъминлайди. Бу жараённинг ҳар бир жиҳати тил билан боғланади ёки тил ҳар қандай вазиятда восита вазифасини бажаради.

Тил тизимларининг турли тавсифларини фақат назарий жиҳатдан аниқлаш кифоя эмас. Лисоний бирликларнинг нутқий воқеланишини мулоқот системаси таркибида ўрганиш инсон омилига эътиборни кучайтиришини инобатга олиб, куйида ўзбекона нутқий эвфемизмларнинг хусусиятлари ҳақида мулоҳаза юритамиз. Чунки миллий, маданий ўзига хослик ўша халқнинг хулқи, маданияти ва мулоқот жараёнида ўз аксини топади.

Калит сўзлар: *эвфемик маъно, умумистеъмол эвфемизмлари, тиббий эвфемизмлар, Ҳалима Худойбердиева шеърларида окказионал ҳамда тиббий эвфемизмлар*

Жаҳон тилшунослигида ҳам, ўзбек тилшунослигида ҳам эвфемизм ҳодисасини ўрганишга қизиқиш кучли. Жаҳон тилшунослигида эвфемизмлар тадқиқи, асосан, В.З.Санников, В.П.Москвин, Е.П.Сеничкина, Л.А.Булаховский, Б.А.Ларын, Л.П.Крысин, Ж.С.Нимен, Ж.Сильвер, А.В.Осипов, Е.Н.Малыгина, С.А.Агаджанян, А.Н.Кудряшова, Г.А.Абрамова, Е.В.Пикаловалар тадқиқотлари билан боғлиқ [2].

Ўзбек тилшунослигида Н.Исматуллаев эвфемизмларни 7 турга бўлиб ўрганган. ўзининг номзодлик диссертациясида масаланинг қўйилиши даражасида, А.Омонтурдиев эвфемик ифодаларнинг услубий хусусиятларини чорвадор нутқи асосида тадқиқ этган. Э.Қиличев эвфемизмларнинг дисфемизмга қарама-қарши турувчи ҳодиса сифатида мавжудлигини эътироф этган. Тилшунос М.Миртожиев эвфемик маънонинг ҳосила маъно сифатида вужудга келиш усулларига эътибор қаратади.

Шунингдек, А.Э.Маматов эвфемизмларга ибораларнинг юзага келиш усули сифатида қарайди. Ҳ.Шамсиддинов эвфемизмни функционал-семантик синонимларни юзага келтирувчи ҳодиса сифатида баҳолайди. Олима З.Холманова асарда қўлланган эвфемизмларни 2 турга ажратиб тадқиқ этади. Х.Қодирова эвфемизмларни ижодкор нутқи асосида таҳлилга торади [5]. Бу тадқиқотларда эвфемизмлар тилнинг муайян бир сатҳига тегишли бирлик сифатида ўрганилди.

“Ўзбек тили стилистикаси” ўқув қўлланмасида муаллифлар жамоаси томонидан эвфемизм ҳамда кокофемизм (дисфемизм) хусусида айрим умумий маълумотлар берилган. Мазкур қўлланмада, хусусан, эвфемизмлар ва уларнинг стилистик роли ҳақида алоҳида тўхтаб ўтилган. Қўлланмада айтиш ноқулай ёки ноўрин бўлган сўз ёки ибора ўрнига ишлатиладиган “пардали” сўз ёки ибора эвфемизм сифатида баҳоланган. Эвфемизмлар бадиий адабиётда, асосан, айтиш уят, ноқулай ва похуш вазиятлардан қутулишнинг бирдан-бир стилистик воситаси сифатида ишлатилиши, бундан ташқари, бадиий асарда образ ва персонажлар путқида ишлатилган эвфемизмлар ҳар бир образ ҳамда персонажнинг мақсади, дунёқараши ва савиясини ифодалашдек муайян стилистик мақсадни ҳам кўзда тутиши таъкидланган

[4].

Лингвистик адабиётларда эвфемизмнинг антоними сифатида дисфемизм, какофемизм ва кучли сўзлар деб берилмоқда [1]. Биринчи ва иккинчи термин ҳақоратомуз ва озроқ юмористик мазмунга эга, улардан бирон нарса мақсад қилинганда олдиндан режалаштирилган ҳақоратли сўз сифатида фойдаланилади. Охиргиси эса, асосан, баҳс-мунозара, тортишувларда қўлланилади.

Тилшунос М.Миртожиевнинг “Ўзбек тили семасиологияси” монографиясида эвфемизмга махсус ўрин ажратилган. Олим монографиясида табу ва эвфемизм ҳодисаси муносабати, ўрганилиш тарихи масалаларига алоҳида эътибор қаратади. Олим эвфемик маънонинг ҳосила маъно эканлигини, бу ҳосила маъно метафорик, метонимик усулда вужудга келишини, улардан, айниқса, метафора эвфемик маъно ҳосил бўлишида катта аҳамият касб этишини таъкидлайди. Масалан, *чаён* сўзи лексик маъноси *эшак* сўзи билан вокеланган. Чунки чаён думини гажак қилиб туриши жиҳатидан эшакка ўхшайди. Мана шу ўхшашлик *эшак* сўзида эвфемистик метафорик маъно ҳосил бўлиши учун сабаб бўлади. Метафора ҳосил қилувчи ва ҳосила маъно референти ўхшаш бўлиши билан боғлиқ ҳолда содир бўлади. Олим синекдохик ва вазифадошлик асосида эвфемик маъно пайдо бўлмаслигини таъкидлайди [1].

Н.Ғайбуллаева эса тиббий эвфемизмларни даврий нашр материаллари асосида ўрганган бўлса [5], Ш.Ғуломова эътиборни эвфемизмларнинг гендер ҳосланишига қаратди [2]. Мазкур ишларда эвфемик ҳодиса инсон омили билан боғлиқ ҳолда тадқиқ этилганлигини алоҳида эътироф этиш жоиз.

Эвфемизмлар миллий-ментал муносабатнинг борлиқни акс эттиришида намоён бўлади, у маданий қадриятларнинг тилда намоён бўлишини кўрсатади, эвфемизмда аниқлик ва таъсирчанлик, жозибadorлик билан бирга мавҳум муносабат ҳам кузатилади. Шуниси муҳимки, нутқий эвфемизмлар шахснинг қандай лингвомаданий муҳитга дахлдорлиги, тафаккур тарзи, дунёқараши, сўзнинг нозик қирраларини ҳис этиши ва тилдан фойдалана олиш маҳоратига боғлиқ ҳолда содир бўлади. Эвфемистик ифодалар асосий ахборот мазмуни ва унинг устида қаватланган коннотатив маъно ҳамда муносабатдан ташкил топади. Ахборот эвфемистик коннотатив маъно билан мураккаблашади, коннотатив маънолар сирасида метафорик образга асос бўлган салбий ёки ижобий муносабатдан бири етакчилик қилади. «Коннотатив маънонинг кучайиши денотатив ва функционал маънонинг кучсизланишига кўра вужудга келади» [1;3].

Айтиш мумкинки, ахлоқий ва маданий жиҳатдан қўлланилиши мумкин бўлмаган ёки ноқулай деб топилган тушунчаларни анча юмшоқ тарздаги баъзан сўз ёрдамида, кўпроқ бирикмалар билан ифодалаш эҳтиёжи эвфемизмларни юзага келтиради ва ижтимоий қатлам эгаларининг ҳар бири нутқида ҳар доим нутқий шароитга мос янги топилма сифатида яратилаверади. Нутқда эвфемизмларнинг қийматини уларнинг ноодатийлиги, фавқулоддалиги, инсон тафаккури ифодаланиши зарур бўлган нарса ва ҳодисалар орасидаги уйғунликларни метафорик тарзда кўра олиши, тил

сезгирлиги, ички сезимнинг кучи билан характерлаш мумкин. Демак, эвфемизм – идрокий топилма.

Умумхалқ тафаккурига мос эвфемистик бирликлар тезда сийқалашади, оммалашади ва кўпчиликнинг нутқидан ўрин олади. Аслида эвфемизм анъанавий семантик-синтактик қолипларга мос тушмаслиги билан ҳам алоҳидалик касб этади. У нутқда қўллаш ноқулайлик туғдирувчи воқеликка (предмет, ҳаракат, белги, хусусият кабиларга) тўғридан-тўғри боғланмайди, балки айланма йўллар билан келади. Ана шу “айланма йўл” эвфемистик нутқ эгасининг идроки ҳамда эвфемаланувчи ҳодисанинг тегишли сифатини қай даражада илғай олиши билан боғлиқ бўлади. Масалан, ўзбек нутқидаги кўйидаги эвфемизмлар аллақачон умумистеъмол эвфемизмларига айланган:

феъл сўз туркуми доирасида: *ҳақиқатдан узоқлашмоқ* (ёлғон гапирмоқ), *оламдан ўтмоқ* (ўлмоқ), *енгил бўлмоқ* (туғмоқ), *бегона бўлмоқ* (ажрашмоқ), *номусига тегмоқ* (зўрламоқ), *уйли бўлмоқ*, *бошини иккита қилмоқ*, *турмуш қурмоқ* (уйланмоқ) ва б.;

от сўз туркуми доирасида: *умр йўлдоши*, *жуфти ҳалол* (эр ёки хотин), *олий жазо* (ўлим), *белдан паст* (аврат), *қўш кабутар* (сийна) ва б.;

сифат сўз туркуми доирасида: *ёши улуг* (қари), *ўйламай гапирадиган* (бефаросат), *ақли ноқис* (жинни), *имконияти чекланган* (мажруҳ), *кўзи ожиз* (кўр), *айби бор* (хезалак), *суюқоёқ* (фоҳиша) ва б.

Нутқий (динамик) эвфемизм турғунлашмаган ва ижтимоийлашмаган, вужудга келишидан жараён билан боғланган, бунда унинг ҳосил қилиниши ва қўлланиши фақат якка шахс билан боғлиқ, статиклашмаганлиги эса унинг асосий белгиловчи хусусияти ҳисобланади. Бундай эвфемизмларнинг энг гўзал намуналарини сўз санъаткорлари, сўз усталари, ёзувчи, шоирлар, нотиклар нутқида тез-тез учратиш мумкин. Масалан,

Ел бўлиб бетоқат қоқдим, лекин

Дил хонангни мутлақ очолмадим мен. (Ҳалима Худойбердиева)

Шеърнинг “*Дил хонангни мутлоқ очолмадим*” эвфемик сатри “севилмадим” бирлиги ўрнида қўлланилган. Ҳа, севиш, албатта, севилиш билан тўлақонли. Севилмаслик, ҳамиша инсон қалбига битмас армон, улкан дард, баъзан чексиз нафрат ҳам солади. Ўзбек шоираси Ҳалима Худойбердиева қўллаган “*Дил хонангни мутлоқ очолмадим*” эвфемизми жуда гўзал. Ўз ўрнида ишлатилган. Аммо у ўзбек умумнутқида турғунлашмаган, яъни ижтимоийлашмаган. Ижодкорнинг поэтик нутқидагина хос, умумнутқида турғунлашмаган, ижтимоийлашмаган эвфемик бирликларни окказионал эвфемизмлар сифатида баҳолаш ўринли.

Ўзбек шоираси Ҳалима Худойбердиева ижодида окказионал эвфемизмларнинг ранг-баранг ва бетакрор кўринишлари мавжудлигини кузатиш мумкин. Масалан,

Номард голиб келса мард дилтангу зор

Бош эгиб турганда қанча куч сарфлар.

...Айтинг, яна неча аср солиб из

Бу дўзахий сўздан қуяр тилимиз?!

Шоира эл ҳам, миллат ёки элат ҳам, макон ёки замон ҳам танламайдиган “*айрилиқ*”ни, яъни яқинларимиздан жудо бўлишни англатувчи сўз ўрнида

дўзахий сўз эвфемизмини кўллайди ва ўзига хос оригиналликни юзага келтиради. Ёки

*Сиз, эй, бу дунёнинг ҳисобдонлари,
Тахминан бўлса ҳам қилингиз ҳисоб:
Қанчалик умри бор **сунъий шонларнинг**;
Сунъий кўрк қанчада бўлгуси хароб;
Қанча даволангач паст тушиб ҳар кас
Ўзин алломаи замон санамас*

мисраларида **сунъий шон**, **сунъий кўрк** деганда баъзи инсонларга тегишли манманлик, кибру ҳавони назарда тутлади. Инсон зотига хос иллатлар номини пардалашда эфемик бирликлардан фойдаланади.

Шоира ижодида анъанавий умумистеъмол эвфемизмларидан ҳам жуда ўринли фойдаланилган мисоллар кўп учрайди. Айниқса, тиббий эвфемизмлардан баъзан ўз маъносида, баъзан кўчма маънода фойдаланилган мисоллар эътиборимизни тортади. (Шу ўринда эслатиб ўтишимиз зарурки, биз инсон саломатлиги билан боғлиқ барча эвфемик бирликларни тиббий эвфемизмлар сирасига киритдик):

***Минг дард чеккан** ўзимиз силлиқ,
Минг тош теккан сўзимиз силлиқ,
Қирқ қиррали сўзларимизни
Шудгор қилиб текисладилар.*

Минг дард чеккан тиббий эвфемизми қийналган, азобланган сўзлари ўрнида кўлланилмоқда.

*Йўқ, йўқ, беҳудага ҳеч кўкракларга тушмас доғ,
Шигил мевасин ахир кўтаролмай синар шох.*

*Қатор ўгил-қизини ўстиргунча тик қилиб
Отанинг тик қомати қолгай ахир букилиб.*

Ёки

*Бизнинг **юрак доғлидир**, ким учундир куйдик биз,
Ким учундир **кўкракда оғриқ**, **дардни туйдик** биз.*

*Соғлом, бўм-бўш қалб билан яшамадик бекорга,
Яраланиб бўлса ҳам **малҳам бўлдик беморга!***

***Сўнгги йўлга кетармиз**, шафқатни тишда тишлаб,
Доғли, ярадор, лекин **тоза юракни ушлаб...***

Танланган мисоллардаги **шигил мевасин ахир кўтаролмай синар шох**, **сўнгги йўлга кетмоқ** эвфемалари “ўлмоқ”, **отанинг тик қомати қолгай ахир букилиб** бирлиги “қаримоқ”, **доғли юрак**, **кўкракда оғриқ**, **кўкракда дардни туймоқ** тиббий эвфемизмлари эса юрак касалликлари (масалан, инфаркт ёки ҳ.) номларини атаб келмоқда.

Ҳалима Худойбердиева “Энг тоза мева” шеърида фарзандни **енг тоза мева** деб атайди ва шу шеърнинг шарҳида шундай изоҳ ёзади: “*Бир келинчак тўрт ойлик **хаста чақалогини қайтиб олмаслик шарт**и билан касалхонага*

ташлаб кетди”. Изоҳдаги *хаста чақалоқ* эвфемизми *ногирон* сўзи ўрнида ишлатилган.

Мазкур шеърда яна шундай тиббий эвфемизмлар учрайди:

*Гуноҳ маҳсулидир балки жаҳонда,
Дунёга келтирмиш балки хатолар...
Улар кўкрагига босар қаттиқроқ
Совуган гўдаклар таналарини!*

Гуноҳ маҳсули (ташландик бола), *совуган гўдаклар* (ўлик), *дунёга келтирмиш* (боласидан воз кечган аёл)...

Жаҳон тилшунослари эвфемизмларнинг юзага келиши учун бир қатор, масалан, хушмуомалалик (Г.Грайс, Ж.Лич, Г.А.Вильданова, С.Левинсон, Н.И.Формановская ва б.), назокатлилик (Лакофф, П.Браун ва б.), инжиқлик (Ю.В.Горшунов), хушхулқлик (Ю.В.Горшунов, Е.П.Сеничкина ва б.), нутқ маданиятининг юксак даражага кўтарилиши (В.И.Красик, Е.А.Земская, Ж.Коаст ва б.) каби прагматик сабаблар мавжудлигини санаб ўтадилар.

Таниқли тилшуносларнинг фикрларини қувватлаган ҳолда айтишимиз керакки, жамиятда ўзини билган, ўзлигига интилган ҳар бир шахс, одатда, маданиятий сўзлашга интилади, чиройли нутқи билан суҳбатдошларида яхши таассурот қолдиришга ҳаракат қилади. Демак, мулойим, таъсирли нутқ асоси бўлган эвфемизмлар жамиятда шахс мавқеини оширишга хизмат қилувчи лингвистик восита ҳамдир.

Азалдан ўзбек миллатида ўз фикрини одоб доирасида ифодалаш мерос ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ёндашадиган бўлсак, кўпчилик одамлар билан мунтазам нутқий мулоқотда бўладиган касб эгалари нутқида касбий этикетни сақлаш ва эътиборни қозониш мақсадида ҳам эвфемик бирликлардан кенг фойдаланилади. Айниқса, инсоннинг жисми жони, руҳияти, ҳаёти билан иш кўрувчи шифокорлар мулоқотида эвфемизмлар бошқа касб эгалари нутқидан кўра кўпроқ қўлланилади.

Айтиш мумкинки, эвфемик бирликлар, масалан, тиббий эвфемизмлар соҳа вакиллари нутқидан умумистеъмолга ёки умумистеъмолдан соҳа вакиллари нутқида кўчиб туради. Масалан, *гумона*, *қорнида бори* (ҳомила), *иккиқат*, *огироёқ*, *бўйида бор*, *юкли* (бўғоз, ҳомиладор), *гўдак йиғисига маҳтал*, *бўйида бўлмас*, *бола кўрмаган аёл*, *тирноққа зор* (туғмас) каби эвфемик бирликлар халқ умумистеъмол нутқидан тиббийёт ходимларининг нутқий мулоқотига кўчган бўлса, *дунёга келажак учинчи одам* (ҳомила), *бўлажак она* (ҳомиладор), *бепошт*, *она бўлишдан маҳрум*, *ҳомиладор бўлиши қобилияти йўқ* (туғмас) каби тиббий эвфемизмлар аллақачон шифокорлар нутқидан халқ мулоқот нутқида кўчиб улгурган.

Ўзбекларнинг мулоқот нутқида бу каби мисоллар кўп учрайди.

Адабиётлар:

1. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 б. <https://www.twirpx.com/file/3052388/>
2. Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2020. <http://213.230.96.51:8090/files/ebooks>

3. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>
4. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б. <https://www.twirpx.com/file/1070737/>
5. Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.– Бухоро, 2019. –50 б. <http://library.ziyonet.uz/uzc/book/108708>

«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі
Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"

Қалиев Еркін Мұратұлы*

Annotation. In this article, the drama "The Oath" by the writer-playwright T. Akhtanov was the core of the study. The problems of folklore heritage, patterns in drama, historical searches, and the transformation of historical reality into an artistic solution are studied.

Keywords: *drama, historical reality, artistic solution, historicity, folklore*

Т.Ахтанов драматургиясында «Анттың» орны өзгеше. Шығарма тарихи кезең шындығын тартыс үстінде ашуға жасалған батыл қадам, іргелі ізденіс болды. «Шынында «Ана дауысындағы» драмалық сарын мынау «Антта» анық ауыр трагедияға соғады. Сөз саптау, тілдік ізденіс жөнінен де, тақырып тереңдігі мен кейіпкердің кесек ірілігімен де бұл пьеса өміршең туындылар қатарына жатады», - деп жазды сыншы Т.Тоқбергенов [Тоқбергенов, 191: 29]. «Дағдарған елді тар қиядан алып шығар ұл бар ма? Қайдасың, азамат...» деп аяқталатын трагедияның айтар ойы, меңзер тұсы әріде. Қазақ елі ХVIII ғасырдың басында бодандыққа қандай жағдайда келді? Ата-бабаларымыздың жеке мықты мемлекет болып қалыптасуына ықпал болған қандай жайлар? Міне, осы тәрізді уақыт шындығын ашуға ұмтылыс – «Анттың» негізі.

Халықтық бірлік- шығарманың басты ой қазығы. Мұнда ынтымағы жетпеген елдің ауыр қайғысы, жеке мемлекет бола алмау қасіреті бар. Бұл – өткеннің бүгінге сабағы. Әсіресе, тәуелсіз мемлекет боламыз деген қазіргі кезеңге тарих тағылымы болса керек. Шығармаға уақыттың, қоғамның қатыстылығы туралы кейін жазушы «Егемен Қазақстан» газетіндегі сұхбатында былай дейді: «Мен «Антты» жазғанда оны бір мерекеге арнағаным жоқ. Баяғыдан көңілімде, іште пісіп жүретін 1956-1957 жылдары болу керек бір кітаптарда Әбілқайыр Ресейге қосылып, той жасады дегенді оқығанда Әбілқайырдың кешке қарай төбе басына шығып, осының арты не болар екен- деп жалғыз ойланып қалған бейнесі көз алдыма келеді. Бұл «апырай, сонда не ойлады екен?» деген образ болатын. Жазушының көркем

* ЖОББ «Білім» мектеп-гимназиясының қазақ тілі мен әдебиеті пәні мұғалімі

туынды жазғанда өз ойы, ұсынған түп қазығы болады. Бұл ойды айтып жеткізуді мұрат тұтпай, қолға қалам алмайды. Ал тарихи туындының жөні бүлек. Әбілқайырды алғанда қазақ баласының бірлігі үшін бір ауыз сөз айтқым келеді. Ол кезде атын атап тұрып ұлттық бірлікке шақырсаң ұлтшыл атануың қиын емес. Сол пікірді мен Әбілқайыр, оның ар жағында тұрған халық арқылы айтсам керек. Бұл өзі жай пьеса емес, трагедия ғой. Трагедия деуге болмаған соң драмалық пьеса деп айдар тағуға мәжбүр болдым. Егер уақытында байқай алған, терең мән берген адам болса трагедияның түп қазығы-Төле бидің монологы, толғанысы» [Ахтанов, 1984: 6].

«Бір-біріңе қотыр тушанды қиыспаған ағайын(қотыр туша-малдың ең нашары) ырғын дәулетің жауда қалды. «Жаның шықса да жақынына берме, жиған-тергенің жатқа бұйырсын», -деп құдай тағала қарғап па еді бұл қазақты»-дейді [Ахтанов, 1984: 393]. Бұл трагедияны ұстап тұрған дінгек осы. Бұдан артық қалай айту керек. Ол кезде осылай түсіндірмесең басқа жолы жоқ еді, басты мәселе халық трагедиясын көрсету еді.

Т.Ахтановтың «Ант» трагедиялық дастаны - қазақ халқының XVIII ғасыр басындағы тарихи- әлеуметтік шындығын көрсетуге құрылған. Соның ішінде осы пьесаны жазуына үлкен екі оқиға негіз болды. Біріншісі- Ресей патшалығына Кіші жүз хандығының ант беріп, қол астына кіруі. Екіншісі- осы ірі тарихи актінің зор қиындықпен шешілуі, тіпті шиеленіскен қанды оқиғаға соқтыруы. Мұның түпкі себебі жоңғар мен қазақтың небір замандарға созылған соғысының зардабы. Қазақ халқының бірігіп ел болып, хандық құрғаны 1465 жылдан, Ресейге қосылуы 1731 жылға дейінгі 275 жыл ішінде төңірегіндегі жұртпен әр кез ірілі-уақты қағыс – соғыспен өмір өткізді. Бұл феодалдық қоғамның тағылық заңының салдары.

Үш бөлімнен тұратын драма-дастанда (автор осылай атаған) «Түнгі сыр», «Бопай қыз», «Ақтабан шұбырынды», «Сардар сайлау», «Аңрақай», «Бдырау», «Арпалыс», «Ант» тақырыптарына бөлініп пьесаның композициясы айқындалған. Шығарма нақтылы бір жұмыр сюжетке құрылмағандықтан автор уақыт пен оқиғаны кең қамту ниетінде осындай тәсілге барған. Бұл әдіс жалпы драматургияда жат болмағанымен, қазақта тың. Әр тақырып тарихи жайға жанасып, драманың түпкі идеясына саяды және негізгі қаһарман Әбілқайыр ісінен ажырамай оның характерін толыстыруға септігі тиеді.

Пьесадағы басты тұлға Әбілқайырға автор ел басына күн туып тұрған қиын- қыстау шақтың ауыр жүгін артқан. 1723 жылғы жоңғардың ауыр соққысынан ойсырай жеңілген, бет- бетіне бытырай босып кеткен халықтың есін жиюы оңай болмады. Қазақ жерінің шығысы мен оңтүстігі жау қолында қалды. Жоңғарлар ілгері ентелеп, үнемі шабуылдаумен болды. Әбілқайырдың хандық еткені осындай қиын кез еді. Өз Тәуке дәуіріндегідей емес, елді бөлшектеп әлденеше хан мен сұлтандар биледі. Әбілқайыр бір-ақ жүздің, Кіші жүздің ханы еді. Әр хандық өз бетімен өз тұсына келген жаумен ұрыс жүргізіп отырды. Қазақ елі мен жері бір орталыққа бірікпеді. Осы бытыраңқылық жоңғарға да, басқаға да қолайлы жағдай жасап, қазақты арадай талап, үнемі шығынға ұшырата берді. Халық қасарысып қарсы тұра білді.

Міне, осындай ірі зардаптар сайып келіп халықтың ашу-кегін бір арнаға құюға тиіс еді. Ол солай болды да, қазақ елі «Аңырақай» аталған зор майданда жоңғардың бетін қайтарып, қайрат жасады. Үш жүздің ел болып бас қосып Әбілқайырды қол басы сайлады. Бұл бірігу де оңайға түспей талас-тартыспен шешілген еді. Қайып хан, Сәмеке хан, Барақ сұлтандар Әбілқайырдың бағын арттырып, дәрежесін көтергісі келмеді. Ел қамын ойлаудан гөрі әрқайсысы өз мәртебесінің биік болуына тырысты. Елдің бірігіп жоңғар бетін қайтаруына мұрындық болғандар халықтан шыққан батырлар мен билер еді.

Т.Ахтанов осы бір үлкен істегі қаһарманының қайраткерлігін, өзге хан-сұлтаннан ойының озығын, ел бірлігін тілейтін және билігінің де биік болуын арман ететін құлқын Әбілқайыр образы етіп көрсетеді. Өзге хан-сұлтандарды бұдан қораш, таяз, бақталас етіп суреттейді. Әбілқайырдың түп есебін, ірі есебін Сауран сұлтан жетік білмейді. Сауран мен Керей Бөкенбай батыр Әбілқайырдың ел бірлігін сақтағысы келетін ниетін қолдайды. «Пьесадағы Әбілқайыр, Қайып, Сәмеке, Барақ, Төле би, Бәтимә (Бопай), Бөкенбайлар тарихи белгілі адамдар. Сауран сұлтан автор қосқан персонаж. Біздің ойымызша, Сауранның прототиптері: тарихқа мағлұм Барақ сұлтан мен Жәнібек батыр болса керек- ті. Барақ сұлтан Әбілқайырмен бақталас, бітіспес дұшпан, ал Шашақ Жәнібек ханға жекжат, жаһаттасы, оның жолын қолдаушының бірі. Жазушыға осы екі кереғар характерді өз қалпында пьесасына қабылдауына болатын да еді» [Тебегенов, 2011: 46].

Бұл —«Ант» драмасының тарихи негізі, ал фольклорлық негізі драмада басы ашық тұрған мәселе. Алдымен, драма оқиғасының болған кезеңі тарихи нақты болғанмен, кейінгі дәуірге ауызша дәстүрлер арқылы да жетті. **Кезінде әйгілі Мұхтар Әуезов бір ой сабақтапты: «Қазақ театр өнері біздің заманымызда басталғанына біз қуаныштымыз. Бірақ сол қуанышпен бірге, біз ірі өнердің келешегі үшін жауапты екендігімізді де ұмытпауымыз керек»[80].** Ұлы жазушының осы аманатына адалдық танытқан Тахауи Ахтанов ұлттық драматургияның жанрлық сипатының қанат жаюына аса пейілді болып, әлемдік сахна туындыларының заңдылығына жауап бере алатындай дүниелер жазды. Әрине, бұл ретте біз Т.Ахтановтың ұлттық драматургиямыздың негізін қалаушылардың көш басында тұрған осы Мұхтар Әуезов, Жүсіпбек Аймауытов, Бейімбет Майлин, Ғабит Мүсірепов сынды алыптар шоғырының заңды жалғасы екенін үнемі ескеріп отырамыз.

Жалпы, Т.Ахтанов қаламынан туған дүниелердің барлығына да биіктік пен тереңдік тән екенін айтар едік. Ол өмір-өнерге әкелген жүздеген кейіпкерлер, алуан бейнелер бұл күнде ұлтымыздың асыл қазынасына айналды. Т.Ахтанов есімі бүгінгі ұрпақ үшін әдебиеттегі шыншылдық пен әділдіктің синонимі іспеттес. Тахауи Ахтановтың драматургиядағы алғашқы қадамы өткен ғасырдың алпысыншы жылдарымен тұспа-тұс келді. Бұл кезең — сталиндік тоталитаризмнің солақай саясатының қатаң сынға алынып жатқан жылдары болатын-ды. Сонда да болса, сол кезде де, кейін де кеңестік өнер саласы кеңестік уақыттың идеологиясымен һәм саясатымен тығыз қарым-қатынасын еш үзген жоқ. Өйткені өз уысынан еш нәрсені шығармау,

әр нәрсені «цензуралық» көзбен жіті бақылау идеологияның басты ұстанымы еді.

Алайда қайсар қаламгер Т.Ахтанов өз шығармаларында сол кеңестік идеология айтқызбаған дүниелерді астарлап жеткізді. Оның драмаларында ұлттық құндылықтар мен елдік рухқа қатысты толғамдар ерекше көрініс тапты. Тахауи Ахтанов — шебер драматург. Т.Ахтановтың драматург ретіндегі қарым-қабілеті мен суреткерлік эстетикасын айрықша танытқан сахналық шығармалары ұлттық театрымызды көркемдік пен әлеуметшілдіктің жаңа биіктеріне жеткізді. Т.Ахтановтың «Ант» драмасындағы фольклорлық сарындарды саралау барысында, алдымен, көркем әдебиеттің үш тегінен тарап, өзектесіп жатқандығын байқаймыз. Әдебиеттің эпос, лирика, драма-сынды үш тегіне тән дәстүрлер драманың өн бойында да тұнып тұр. «Эпостық дәстүр – эпикалық шығармалардың басты өзегі. Оларда өмір шындығы көркем тұлғалардың бойына жинақталып, солардың басында болатын қым-қуыт оқиғалар толқыны арқылы ашылады» [Молдаханов, 1999: 18]. Драматург тарихи оқиғаны басты желі етіп ала отырып, фольклорлық сарынының бірегейі эпостық баянның өзіндік үлгісін жасайды. Жырдың драмалық шешім табуында Сауран сұлтан сияқты образдардың енгізілуі де жазушының ескі әдебиетіміздің тұнық бұлағын қана ішіп, жақсы дәстүрлерін игере білгендігі. Халқымыздың бүкіл арман-тілегіне негіз болған қиял дүниесі небір ертек, аңыз, жырларды дүниеге әкелген ғой. Сол кең ойлылық драматург қаламын кең тыныс беріп, эпостық сарынның жаңа түрге ие болуына мол мүмкіндік жасаған.

Қазақ елі «Аңырақай» аталған зор майданда жоңғардың бетін қайтарып, қайрат жасады. Үш жүздің ел болып бас қосып Әбілқайырды қол басы сайлады. Бұл бірігу де оңайға түспей талас- тартыспен шешілген еді. Қайып хан, Сәмеке хан, Барақ сұлтандар Әбілқайырдың бағын арттырып, дәрежесін көтергісі келмеді. Ел қамын ойлаудан гөрі әрқайсысы өз мәртебесінің биік болуына тырысты. Елдің бірігіп жоңғар бетін қайтаруына мұрындық болғандар халықтан шыққан батырлар мен билер еді. Драманың бастан-аяқ сюжеті фольклордағы эпикалық баяндау тәсілімен өрілген.

Ал лирикалық толғаныс фольклордағы басты сарындардың бірі десек, «Ант» драмасында бұл–басы ашық тұрған мәселе. «Лирика –нәзік сезімнің, жан-дүниеде болып жатқан көңіл-күй тебіреністердің көрінісі болғандықтан, кейіпкердің рухани әлемін барлауға, оның ішкі дүниесін танытуға мол мүмкіндік беретін жанр». Сол сияқты аталған драмада екі жастың бір-біріне деген ынтық сезімі, олардың алғаш аттарын естіген, одан кейін кездескен, тіпті мәңгілік ажырасқанға дейінгі барлық сәттері – тұнып тұрған лиризм.

Драмадағы ақ өлеңмен төгілген үзінділерге назар аударсақ, Сауран сұлтан мен Бопай қыздың, Әбілқайыр мен Бопай ханымның махаббат атты аңсардың қай тұстарынан көрініп тұрғаны, олардың сол құдіретке жеткені бар, жетіспей жүргені бар, жетіп айрылғаны бар, әлі дәмеленіп жүргені бар, әлі өкініп жүргені бар, өкінбей жүргені бар екендігі көркем берілген.

Қорыта айтқанда, фольклор қазынасын Ахтановтың пайдалануы түрліше сипатта көрінеді. Кейде түрлендіріп, жаңғыртып, фольклор ұғымының мәнін тереңдете, кеңейтіп алса, кейде бастапқы мағынасының аясында шектеледі.

Бұл ретте мына пікір ойымызды тұғырлай түседі: «Фольклорлық элемент кашан да болсын ақынның шығармашылық мақсатына лайық алынады. Егер автор фольклорлық материалды, фольклорлық форманы шығармашылық електен өткізіп, жаңа шығармасының бойына біте қайнастырып пайдаланбаса, шығарма биік, идеялық көркемдік дәрежеге жете алмайды» [Молдаханов: 1999, 80]. Расымен де, фольклорлық элементтер ақын-жазушылар шығармасымен біте қайнасып, бір жүйеден табылып жатпаса, оның көркемдігі кемшін болар еді. Тахауи Ахтановтың «Ант» драмасы да осындай фольклорлық элементтерге толы және олар драманың көркемдігін одан сайын толыстырып тұрғанына куә боламыз.

Әдебиеттер

1. [Токбергенов Т.](#) Қос қағыс: мақалалар мен портреттер . – Алматы : Жазушы, 1981. - 281 б.
2. Ахтанов Т. Бес томдық шығармалар жинағы . – Алматы: Жазушы, 1984. Т.3 : Пьесалар. - 448 б.
3. [Тебегенов Т.](#) Қазіргі қазақ әдебиетіндегі драматургия// Ақиқат . - 2011. - №10.
4. Молдаханов.Ә. Мұхтар Әуезовтің көркем шығармаларындағы фольклорлық дәстүрлер // Оқу құралы. –Ақтөбе, 1999. - 128 б.

Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirish

Yuldasheva Mashxura Muzafarovna*

Annotation. The article describes the content of the process aimed at developing tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions, ie in the context of the society of Uzbekistan, each student is born in a cultural and national environment with many positive aspects. It is emphasized that the definition of the content of education based on the socio-cultural, religious, national experience and centuries-old civilization of the Uzbek people is important in terms of forming the concept of tolerance in students.

Keywords: *group hostility, educational process, pedagogical situation, national wealth, cultural attitudes, communication skills, interfaith spiritual differentiation, school, family, neighborhood, national*

O‘quv muassasalarida bag‘rikenglik tarbiyasini rivojlantirishning yangidan yangi imkoniyatlarini izlab topish choralari ko‘rilmoqda. Buning uchun barcha o‘quv muassasalari yagona pedagogik majmua sifatida, shu maqsad atrofida birlashishi kerak. 2020 yilgacha bo‘lgan davrda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning konseptual asoslarida ham bag‘rikenglik tarbiyasini jadallashtirishga erishish ustuvor maqsad sifatida nazarda tutilishi lozim. Ta'lim-

* BuxDU o‘qituvchi, mashhuravuldasheva1973@gmail.com

tarbiya sohasida kirib kelayotgan innovasion texnologiyalardan kichik maktab yoshidagi talabalarda bag'rikenglikka oid tushunchalarni shakllantirishda oqilona foydalanish yo'llarini izlash muhim ahamiyatga ega. Borliqqa nisbatan o'xshash munosabatlar, nuqtai nazarlarning shakllanishi hamda axloqiy jihatdan yo'naltirilgan ijtimoiy xulq-atvorning tarkib topishi natijasida bag'rikenglik ko'nikmalari shakllanib mustahkamlanadi va kengayib boradi. Xuddi shu tarzda ijtimoiy xulq-atvor va ongli xatti-harakatlarning asoslari va tamoyillari yoshlar ongida tarkib topa boshlaydi. Bag'rikenglik ko'nikmalarini egallashga yo'naltirilgan intellektual kuch va intilish ortib boradi. Bu davrda talabalar haqqoniy ong deganda o'zlarini o'rab turgan muhitni tushunishadi. Ularni o'rab turgan muhitda bag'rikenglik tarbiyasining hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida shaxs o'z xulq-atvoridagi xato- kamchiliklarni sezib, his etib, imkon darajasida bartaraf qilib boradi. Bolalar ulg'aygan sari ularda tez-tez injiqlik, qaysarlik, salbiy hamda noaniq kayfiyat va holatlar kuzatiladi. Bunday paytlarda ularda hosil qilingan atrof-muhitdagilarga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, bardoshlilik ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Aks holda bunday vaziyatlarda qarama- qarshiliklar, kelishmovchiliklar kelib chiqib, ba'zan ular hatto kengroq ko'lam kasb etishi mumkin. Shuning uchun ham talabalarda ilk maktab ta'limi davridayoq bunday kayfiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan ta'limiy choralarni ko'rish kerak.

Kuzatishlarimiz natijasida aniqlangan bunday qarama-qarshiliklar talabalarni ilk maktab davridan boshlab bag'rikenglikka oid tushunchalar bilan qurollantirish, bu siradagi tushunchalarni ular ongiga singdirishning qulay shakl, vosita, usul va metodlarini izlab topish, ilmiy jihatdan asoslash zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Albatta taklif qilinayotgan shakl, vosita, usul va metodlar ta'lim jarayoni, uning mazmunini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi.

Birinchi navbatda bag'rikenglik tarbiyasini amalga oshirish prinsiplari va vositalari ilmiy jihatdan asoslanishi lozim. Bag'rikenglik tarbiyasini amalga oshirish jarayonining tahlili shuni ko'rsatdiki, bu dolzarb masalaga talabalar va o'qituvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida bag'rikenglik tarbiyasining samarali metod va vositalarini izlab topish lozim. Shuningdek, bag'rikenglik tarbiyasining shakllari va texnologik o'ziga xosliklarini ham aniqlash talab etilmoqda.

Bag'rikenglik tuyg'usini tarbiyalash shuning uchun ham dolzarbki, bugungi kunda jamiyat hayoti va kishilarning turmush tarzini yaxshilash va mustaqil rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy tushuncha va qadriyatlarni talabalarga ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab singdirish mumkin. U quyidagilardan iboratdir:

- talabani u yoki bu tushuncha, qarash, qadriyatlarni egallashga majburlamaslik axloqini o'zlashtirishga;

- boshqa xalqlar madaniyati, dini, qadriyatlariga nisbatan bardoshli, oqilona munosabatda bo'lishni qaror toptirish;

- talabani ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab atrofdagilar bilan o'zaro ongli bir-birini tushunuvchanlik shartlariga asoslangan muloqotga o'rgatishga erishish;

- talabalarda o'zgaralar fikrini bardosh bilan tinglash, muammolarni o'zaro murosa asosida hal qilishga undash ko'nikmasini tarkib toptirish.

Talabalarda bag'rikenglik tushunchalarini shakllantirishda tinchliksevarlik, etnik, diniy, siyosiy, konfessional (izohi) va shaxslararo kelishmovchiliklarga nisbatan chidamlilik, tenghuquqlilik kabilarning tub mohiyatini o'rgatish.

Bag'rikenglik oliy darajadagi insoniy fazilat ekanligini ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab talaba ongiga singdirishga erishish lozim. Talabani jamiyat hayotiga tayyorlash maqsadida ko'p millatli xalqlar turmush tarzi mavjud bo'lgan O'zbekiston Respublikasida turlicha kishi va g'oyalar dunyosida yashash mahorati, boshqa kishilarning huquq va erkinliklarini buzmaganda o'z huquq va erkinliklariga ega bo'lishga odatlantirish nihoyatda zarurdir.

Bag'rikenglik insonning ortga chekinishi, ikkiyuzlamachiligi, laganbardorlikka qarama-qarshi qo'yiladigan tushuncha ekanligini talabalar tushunib yetishlariga erishish kerak. Bolalar o'zgalarning mavjudligini tan olishdek, ob'ektiv nuqtai nazarni egallashlari lozim. Yuqoridagilar asosida shuni ta'kidlash kerakki, bag'rikenglik ta'lim jarayonida shakllantiriladigan tarbiyaviy hodisadir.

Bag'rikenglikni shakllantirishda muomala madaniyatini qaror toptirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Jamiyatdagi ko'pgina kelishmovchilik- larning asosini kishilarda madaniy muomalaning shakllanmaganligi tashkil etadi. Ko'pincha kishilar bir-birlarini tabiiy tarzda qabul qilish o'rniga o'zlarini noto'g'ri tutadilar. Bir-birlari bilan qo'pol muomalada bo'ladilar. Aksariyat hollarda bunday muomala diniy va milliy nizolarga sabab bo'ladi. Talabalarda maktabdayoq bir-birlariga nisbatan chidamli bo'lish ko'nikmasini izchil shakllantirib borish kerak.

O'qituvchi bilan talaba orasidagi «Hamkorlik pedagogikasi» va bag'rikenglik tushunchalarini qo'llamay turib, ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni kamol toptirish mumkin emas.

Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta'lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limning yuqori bosqichlarigacha bo'lgan bo'g'inlar zimmasiga yuklatilgan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida mavjud o'quv dasturlarini yangi pedagogik texnologiya va zamonaviy usullarni qo'llagan holda takomillashtirish eng birinchi vazifa hisoblanadi. Takomillashtirilgan o'quv dasturlarida o'g'il va qiz bolalar tengligi, qolaversa, barcha fanlar bo'yicha o'quv materiallarining gender tenglik va farqlar asosida belgilab berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, istiqbolda talabalarning bilim,

ko'nikma va malakalarini nazorat qilish nafaqat o'zlashtirish, balki o'g'il va qiz bolalarning har biriga xos bo'lgan tushunish, bilimlarni amaliy qo'llash va ijod ko'nikmalarini aniqlash asosida ham amalga oshirilishi lozim. Bu holat talabalarning bilim darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, yangi sifatga ega bo'lgan aql-zakovat egasini tarbiyalaydi, ya'ni u o'ziga xos shaxsni shakllantirib, ular ongini o'stirish, shuningdek, dunyoning ijtimoiy, informasion, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlariga moslashishlariga katta yordam beradi.

Talabalarni tarbiyalash va ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda umummehnat ko'nikmalari katta o'rin tutadi, tibbiy pedagogik yo'nalish talabalariga mehnat ta'limi berishning asosiy maqsadi, ularni bo'lajak hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Keng ma'noda bag'rikenglik tushunchalarining poydevori individual darajadan tashkil topgan. Zero, individual fazilatlar o'z ichiga bag'rikenglikning barcha qirralarini oladi.

Bizningcha, har bir kishida «o'zga»ni hurmat qilish hissini tarbiyalash bag'rikenglik muammosini yechishni osonlashtiradi.

O'zga millat vakilini tan olish unda o'zi uchun aziz bo'lgan boshqacha qadriyat, mantiqiy fikrlash, turmush tarzi, madaniyat mavjudligini anglab yetishdan iboratdir.

qabul qilish – bu o'zga din va millat vakilining bizga nisbatan farqli jihatlariga ijobiy munosabatda bo'lish demakdir.

Tushunish esa o'zga din va millat vakilining ichki dunyosini ko'ra olish, unga o'zi va o'zgalar nuqtai nazaridan yondashish demakdir.

O'qituvchi va talaba orasidagi sub'ekt- sub'ekt darajasidagi munosabatning asosini bag'rikenglik tashkil qiladi. Mazkur munosabat orqali talabalarda o'zining «men»i, g'urur va shaxsiyat madaniyati qaror topa boshlaydi.

Noto'g'ri javob berishdan qo'rqish hissi yo'qolib, tushunish, anglab yetish hissi paydo bo'la boshlaydi.

XXI asrda turli millat va dinlarga mansub shaxslararo bag'rikenglik– bu, insoniyatning tinch-totuv yashashi uchun asosiy vosita, insonparvar jamiyat va turmush tarzini barpo etishning muhim shartidir.

Bag'rikenglikni ifodalovchi muhim vositalardan biri o'zaro dialog, ya'ni muloqotdir. Bunday muloqot asosan ikki kishi, ya'ni o'qituvchi va talaba orasida amalga oshiriladi.

Bag'rikenglik tarbiyasi talabalarni ijtimoiy hayotda chidamlilik, bardosh, o'zaro muloqot, toqatli bo'lish kabilarga o'rgatadi.

tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida bag'rikenglik tushunchalarini shakllantirish chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarni jamiyatdagi barcha din va millat vakillarining qadr- qimmatini himoya qilish tamoyillari bilan tanishtirish;

- har bir shaxs tabiat va jamiyatning noyob takrorlanmas mo'jizasi ekanligini anglab yetishiga pedagogik ko'mak berish;

- millatlar va dinlararo ma'naviy va madaniy farqlanishning asosini o'zaro uyg'unlashtiruvchi tamoyildan iborat ekanligini anglash;

- hamkorlik harakatining asosi sub'ekt- sub'ekt munosabatlarini tashkil etishga ko'maklashish. Bu o'rinda talaba topshiriq bajarayotgan paytda yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal etish va mehnatni to'g'ri taqsimlashga o'rgatish kerak. Talabalar bir-birlarini to'ldiruvchi element ekanligi, ularning har biri ushbu guruh uchun o'ziga xos topilma ekanligini to'la-to'kis his etishlari maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tamoyillarga amal qilish natijasida talabalar asta-sekin tinchlik madaniyati elementlarini egallab boradilar. Boshqalarni hurmat qilish, ularning qadriyatlariga toqat bilan munosabatda bo'lish kabi ko'nikmalarni egallagan talaba istiqbolda jamiyat hayotida tinchlikni barpo qilish, turli millat va din vakillari bilan hamjihatlikda yashash ko'nikmasini ham egallaydi.

Oila, maktab, mahalla va atrof-muhitdagi kishilar hamjihatligi uchun harakat qilish talabaga xotirjamlik, quvonch, o'z ishidan qoniqish bag'ishlaydi. Uni katta-katta ishlarga ruhlantiradi.

Ta'kidlab o'tilganidek, bag'rikenglik tarbiyasining asosiy maqsadi talabalarda bag'rikenglik, o'zga din va millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e'zozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, do'stlik, birodarlik, hurfikrlilik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, o'zgalarga hurmat nazari bilan qarash, o'zaro madaniy munosabat va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bag'rikenglikni tarbiyalash natijasida quyidagilar nazarda tutiladi:

- maktab va sinf jamoasida o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni amalga oshiruvchi talabani tarbiyalash;

- bag'rikenglikka yot bo'lgan munosabatlarga qarshi chiqadigan talabani tarbiyalash.

Talabalarda bag'rikenglikni qaror toptirishga yordam beradigan tadbirlar quyidagi izchillikda amalga oshirilishi lozim:

1. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida ularni o'zaro hamjihatlikka asoslangan harakatga jalb etish orqali empatiya, hamdardlik tuyg'ularini tarbiyalash.

2. Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida bahs yuritish, munozara qilish va kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etish, ochiq muloqot asosida bag'rikenglik ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Shu bilan bir qatorda interfaol o'qitish metodlari orqali talabaning ota-onalari, sinfdoshlar, atrof-muhitdagilar, o'qituvchilar bilan muloqoti asosida ham bag'rikenglik tarbiyasi amalga oshiriladi.

Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida bag'rikenglik tushunchalarini shakllantirish maqsadlari bizningcha quyidagilardan iboratdir:

- o'qituvchilar, ota-onalar, atrof-muhitdagi kishilar hamda talabalarda empatik qobiliyatlarni rivojlantirish, boshqalarning fikrlari va qarashlariga nisbatan bardoshli bo'lishga odatlantirish;

- bag'rikenglik ko'nikmalarini bir qadar egallagan talabalarda kommunikativ, ya'ni muloqot madaniyati elementlarini shakllantirish;

- tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarini tabiat, jamiyat a'zolari hamda atrof-muhitga nisbatan tajovuzkorlikka qarshi kurashga tarbiyalash.

Talabalarda hosil bo'lgan bag'rikenglikka oid tushunchalarni aniqlash natijasida ularda uchraydigan xavotir, hayot maktabiga moslasha olmaslik, yuqori darajadagi qo'rquvning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim talabalarini bag'rikenglik ruhida tarbiyalashning muhim vazifalari sifatida bag'rikenglik tushunchalarini shakllantirishning muhim va mahsuldor usul va metodlarini aniqlash lozim.

Xilma-xillik – insoniyat taraqqiyotini boyituvchi muhim omil hisoblanib, aynan chidamsizlik uning yo'lida to'siq bo'ladi. Ta'lim jarayonida bu to'siqlarni bartaraf etish yo'llari va vositalari haqida talabalarni muntazam xabardor qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi: YNESKO 1995-y. 16-noyabr, Parij, 1999.-15 b.
2. Inson huquqlari. Umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar. T.: Adolat. 1999.
3. Islom va mazhablar.-T.: Ma'naviyat.2000.-27 b.
4. Islom ziyosi O'zbekim siymosida.-T.: Toshkent Islom un-ti, 2001.- 240 b.

5-SHO`BA

AMALIY FILOLOGIYANI RIVOJLANTIRISH - DAVR TALABI

Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati

Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy madaniyatning nechog`lik muhimligi va bu tushunchani ona tili fani vobastaligida ta`lim jaroyoniga tadbiiq qilishning bir necha samarali vositalari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: *tibbiy madaniyat, ona tili, metodlar, kasallik, o`zbek leksikografiyasi, tibbiyot*

XXI asr insoniyat hayotiga misli ko`rilmagan kashfiyotlar va mukammal texnikalar bilan ko`pgina qulayliklarni olib kirgan bo`lsa-da, bu muvoffaqiyatlar barobarida ulkan muammolar kirib keldiki, o`z yechimini kutish jarayonida

* Buxoro davlat tibbiyot institute assistenti ruqiya.qahhorova@mail.ru

insoniyat hayotiga ham xavf solgani va solayotgani barchaga ayon. Shunday global muammolardan biri – COVID kasalligi va uning salbiy oqibatlarini hisoblanadi. To'g'ri, bugungi kunda bu kasallik o'rganildi va uning oldini olish uchun bir qancha samarali usullar olib borilmoqda. Bunday samarali usullar sirasiga, kasalliklarning yengishning muhim omili sifatida – TIBBIY MADANIYATning rivojlanishi sanaladi. Bu borada esa dastlabki bilimlar muhim va bir umr xotirada muhrlanib qoluvchi, unitilmas bilim va ko'nikmalardir. Bunda maktab davrida, o'quvchining dunyoqarashi shakllana boshlanish jarayonidayoq tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Maktab ta'lim jarayonida ona tili darslarini “integratsiya”, ya'ni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda, jumladan, tibbiyot fani bilan vobasta o'tkazish bugungi zamon va davr talabi! Insoniyatning eng buyuk vazifasi bo'lmish - yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ta'lim oluvchilarni tubbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish zaruriyatdir. Tibbiyot faning asoschisi, dunyo tan olgan Avitsenna ta'limoti 3 muhim asosni ilgari suradi: insonni davolashda eng avvalo So'z, keyin Giyoh, iloji qolmaganida Tig'... (jarrohlik) davolash usulidan foydalanish mumkinligi aytiladi. Ajdodlarimizning dono o'g'itlari mana oradan ming yillar o'tganidan keyin ham o'zini oqlamoqda. Bugun birlamchi tibbiy-sanitariya profiliktikasidagi eng birinchi qadam ya'ni tushuntirish va ogoh etish tajribasi hamma narsadan ustun qo'yilmoqda[3].

Bunda esa ona tilining o'zini alohida ahamiyat kasb etadi. So'z qiymati, so'z qudrati ona tili fanidagina o'z aksini topadi. Zero, so'z bilan inson salomatligiga mustahkam poydevor qo'yiladi. Amaldagi 5-sinf ona tili darsligida shunday jummalarni uchratamiz:

❖ *Assalomu alaykum, akajon! Avvalo, inson uchun suv va havo- dek zarur bo'lgan sog'liqlaringiz yaxshimi? Yigitlik burchingizni hormay ado etyapsizmi? Bizdan so'rasangiz, rahmat! Hammamiz sog'-salomatmiz... (442-mashq.)*

yoki,

❖ *“Tibbiyot qomusiy lug'ati” dan olingan parcha asosida bolalarda uchraydigan kasalliklar to'g'risida suhbatlashing.*

ASTMA – kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, o'tkir rivojlangan bo'g'ilish xurujlarining umumiy nomi

(nafas siqishi).(396-mashq.)

❖ *Tabriknoma*

Hurmatli do'stim Javohir! Sizni “Xalqaro yosh robototexniklar” tanlovidagi yutuqlaringiz bilan tabriklayman. Siz ixtiro qilgan robotlar, albatta, tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishiga ishonaman. Butun maktabimiz siz bilan faxrlanadi.

Sizga hurmat bilan sinfdoshingiz Ulug'bek (130-dars.)

Yuqorida keltirilgan salomatlik haqidagi fikrlar o'ziga xos tibbiy madaniyat namunasi bilan birgalikda ona tili fanidan berilgan grammatik mavzularni o'tilishida va mustahkamlanishida asosiy manba hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, sezgi negizida idrok shakllanadi. Sezgi bizni o'rab turgan muhitdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa, idrok esa xilma-

xil xossalarni tartibga solib, birlashtirib ongimizda aks ettiradi, narsa va hodisalarning yaxlit obrazini yaratadi. Ta`lim oluvchilarda sezgi vositasida idrok qilish ko`nikmalarini rivojlantirishda, ona tili dasrlarida tibbiyot bilan integrativ tarzda quyida berilgan metodlardan foydalanilsa, o`zining ijobiy natijasini beradi[1].

✓ **“Shifokor kundaligi”** – bu metod tibbiyotga doir dastlabki bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo`lib, ona tili darslarida aynan, 5-sinf ona tili darsligining LUG`ATSHUNOSLIK mavzusini takrorlashda qo`llaniladi. Bunda ma`lum kasallik turi aytiladi va shu kasllikning belgilari, kelib chiqish sabablari va davolash usullari haqida o`quvchilarning dastlabki bilimlari so`raladi, bildirilgan fikrlar o`qituvchi tomonidan umumlashtirib, quyida berilgan “Shifokor kundaligi” deb nomlangan jadvalga joylashtiriladi. Jadvlada berilgan ma`lumotlardan iborat matn ustida ish olib boriladi. Har bir so`zga izoh berish jarayonida o`zbek leksikografiyasi doir o`tilgan mavzular takrorlanadi. Bu metod orqali ta`lim oluvchida ham tibbiyot ham o`zbek leksikografiyasiga doir bilimlari mustahkamlanadi.

SHIFOKOR KUNDALIGI				
KASALLIK NOMI	KASALLIK BELGILARI	KASALLIK KELIB CHIQISH SABABLARI	KASALLIKNI DAVOLASH USULLARI	IZOH

- **Kasallikning nomi: COVID-19**
- **Kasallik belgilari:** Isitma, lanjlik va quruq yo`tal. Yana ba`zan burun bitishi, tumov, mushak og`riqlari, tomoq og`rig`i va ich surishi [4].
- **Kasallikning kelib chiqish sabablari:** **Viruslar** aksirish yoki yo`talish paytida havoga chiqariladigan juda mayda tupuk tomchilari orqali yuqadi. Bundan tashqari, koronavirusni qattiq yuza – masalan, eshik tutqichi yuqtirishdan mumkin.
- **Kasallikni davolash usullari:** Yengil COVID-19ni o`tkazayotgan bemorlarga davolash yoki profilaktik maqsadlarda antibiotiklar tavsiya etilmaydi. Antibiotiklardan keng foydalanishga yo`l qo`yilmasligi kerak. Bemorlarni alohida, havo yaxshi aylanadigan xonada izolyatsiya qilish tavsiya etiladi. Bemorga surunkali kasalliklari yo`q, nisbatan sog`lom oila a`zosi qarashi mumkin. Bemor va uning xonasiga kirgan oila a`zolari ham niqob kiyishlari va qo`llar gigiyenasiga rioya qilishlari kerak. Bemorga alohida choyshab va idishlar ajratish kerak. Bemorning kiyimlari 60–90 daraja haroratda yuvilishi kerak[5].
- **Izoh:**

Matn ustida ishlash:

Viruslar - (lot.virus –o`simlik shirasi; zahar) Faqat tirik hujayralarda ko`payib, odam, hayvon, o`simlikda yuqumlikasalliklar qo`zg`atuvchi

mikroorganizmlar, Gripp virusi – Viruslar ma`lum filtrlardan o`tib ketadigan bakteriyalar bo`lib, ular bakteriyadan kichik bo`ladi. .Oripov, Ko`z ilg`amas dunyo. Vilson Smitning aniqlashicha, grippni bakteriyalar emas, balki nihoyatda mayda-mayda, ko`z ilg`amas viruslar vujudga keltirar ekan. “Fan va turmush”

Antibiotiklar (anti-qarshi va bios–hayot) – ba`zi mikro-organizmlar (zamburug`lar, bakteriyalar), hayvon to`qimalari va ayrim yuksak o`simliklar hayot faoliyati natijasida hosil bo`ladigan va turli xil mikro-blarning o`sishi hamda rivojlanishini to`xtatadigan organik moddalar[6].


“Sherigingni top” o`yin-topshirig`i. «Sherigingni top» o`yin-topshirig`i, ta`lim oluvchilarda diqqatni, topqirlik va til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta`lim oluvchilar alohida guruhlariga bo`linmasdan, ammo hamkorlikda faoliyat ko`rsatadilar.

O`qituvchi mazkur o`yin-topshiriq uchun xalq maqollaridan, topishmoqlar yoki hikmatli so`zlardan foydalanishi ham mumkin. Buning uchun o`qituvchi o`yin-topshiriqni avvaldan quyidagi tartibda tayyorlab qo`yadi:

Sinf o`quvchilari soniga qarab tarqatmalar tayyorlanadi va ular teng ikki bo`lakka ajratiladi [2].

Xalq maqollaridan, topishmoqlar yoki hikmatli so`zlardan darsning ta`limiy maqsadiga muvofiq saralab olinganlarining har biri ikki bo`lakka bo`linib, yarmi birinchi kartochkaga, davomi esa ikkinchisiga yoziladi va bu o`yinidan foydalanib, tabobatga doir ota-bobolarimiz tomonidan qo`llanilgan maqollar ikkinchi yarmi topish asnosida to`liq gap shakliga keltiriladi.

“Sherigingni top”



Shuningdek, tafakkurga chorlovchi quyidagi “Mulohaza va munosabatlar” jadvalidan foydalanib, tibbiyotga doir bilimlarni ona tili vositasida bilimlarni mustahkamlab olamiz.

MULOHAZALAR	MUNOSABATLAR
<p><i>“Agar dunyoda chang va g`am bo`lmaganda edi insonlar 100 yil yashagan bo`lur edi” (Ibn Sino)</i></p>	

<i>Tabobat hamma san`atlar ichida eng oliyjanob san`atdir. (Gippokrat)</i>	
<i>“Sog`lom tanda, sog` aql” (Xalq maqoli)</i>	

Xulosa shuki, Ibn Sino psixogigiyena deb ataluvchi fanga asos solar ekan, kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyatini o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi va “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”[1], degan edi. Shunday ekan bu tarbiyani bevosita ona tili vobastaligi, yuqorida korsatilgan interaktiv metodlar asosida yosh avlodning tibbiy madaniyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Yuqorida taklif qilingan integrativ tamoyilga asoslangan metodlar orqali ta`lim oluvchida:

- tibbiy nutqi shakllanadi;
- tibbiy madaniyat rivojlanadi;
- tibbiyotga doir zaruriy atama va tushunchalar borasida o`ziga xos dunyoqarashiga ega bo`ladi;
- global zamonda o`z salomatligiga befarq bo`lmagan shaxs sifatida kamol topishida yetarlicha ma`lumotlarga ega bo`ladi. Zero, ta`lim oluvchi fikrlash, idrok qilish, nutqini ravon va savodli yetkaza olishi orqali jahon andozalariga mos, raqobatbardosh mutaxassis bo`lib yetishadi.

Adabiyotlar:

1. Ibodullayev I. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: Yangi avlod, 2009.
2. Yo`ldosheva D. N., Ashurbayeva R.Q. Ona tili ta`limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Metodik qo`llanma.– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2018.
3. ziyonet.uz O`zbek tilining izohli lug`ati. Toshkent, O`zbekiston. 2021.

Taqlid so`zlarning tibbiyotda qo`llanilishi

Istamova Sohiba Izatillo qizi*

Annotatsiya: mazkur maqolada tilshunoslik va tibbiyot sohasining aloqadorligi, taqlid so`zlarning tibbiyot sohasida qo`llanilish doirasi va ahamiyati tibbiy lug`atlar asosida o`rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: *tabobat, farmatsiya, hiqichoq. qaltirama, xurrak, yo`tal turlari, qu-qu yo`tal, xirillash, alomatlar*

Bugungi kunda tilni lingvistik nuqtayi nazardan emas, balki boshqa fanlar, jumladan, psixologiya, mantiq, sotsiologiya, matematika, fizika, informatika va axborot texnologiyalari, dasturlash, san`at, tibbiyot sohalari bilan bog`liqlikda o`rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Natijada tilshunosligimizda psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi, tibbiy lingvistika kabi bir qancha sohalar shakllandi va rivojlandi.

Tibbiyot va tilshunoslik o`rtasidagi munosabatlarning chuqur tahlil qilinishi bu ikki sohaning bir-biri bilan naqadar uzviy bog`liq ekanligini yana bir bor ko`rsatib berdi. Shifokor tibbiy bilimlarni chuqur o`rganish bilan bir qatorda tilshunoslik sohasidagi bilimlarga ega bo`lishi katta ahamiyatga ega. Bemor bilan

* Buxdu I bosqich magistranti

nutqiy munosabatga kirishar ekan, bevosita uning ongiga ta'sir o'tkazadi. Xasta kishining ko'zlarida sog'ayib, salomatligi tiklanishi, oyoqqa turishiga bo'lgan ishonch hosil bo'lishi shifo topishning kalitidir. Bu ishonchni bemorlarda hosil qilish esa shifokorning nutqiga, mahoratiga bog'liqdir.

Bundan tashqari, tibbiyot xodimi insonlar bilan muloqot jarayonida tibbiy atama, tibbiy terminlardan emas, iloji boricha, tibbiy perifrazalardan unumli foydalanishi, kasalliklarni tushuntirish, kasalliklar haqida axborot berishda esa oddiy, tibbiy atamalardan xabardor bo'lmagan insonlarga xalq tiliga yaqin, tushunarli muqobillarini qo'llash lozim.

Tibbiyotda turli kasalliklarni nomlash va ular haqida ma'lumot berish, kasallik alomatlarini izohlashda taqlidlar va ulardan hosil qilingan so'zlarning qo'llanilishi unumli. Tibbiy lug'atlarda taqlid so'zlardan kelib chiqqan terminlar anchagina:

Hiqichoq – beixtiyoriy, odatda, bir tekisda takrorlanuvchi nafas olish bo'lib, o'ziga xos tarzda ovoz chiqadi, diafragma – ko'krak va qorin bo'shliqlarini ajratib turuvchi mushak pardasining to'satdan qisqarishi sabab bo'ladi [1]. **Qaltiroq** (sin. qaltirash) butun gavdaning yoki uning bir qizmining, masalan, ko'krakdan yuqori qismining ixtiyorsiz, bir maromda, bir xil tebranma harakati; giperkinez. **Qarilik qaltirog'i** – asosan bosh, pastli jag', qo'l barmoqlarining aralash qaltirashi; harakat aktlarigasezilarli ta'sir ko'rsatmaydi; aksariyat kekxa va qariyalarda uchraydi.

Xurрак kasalligi - uyqu vaqtida toraygan nafas yo'llari orqali havo oqimlari o'tishi barobarida halqum yumshoq tuzilmalarining bir-biriga urilishi chog'ida yuzaga keluvchi xurullagan, chiyillagan ovozlar bilan kechadi. Ba'zan xurрак mutlaqo sog'lom odamlarda ham bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda **xurрак xavfli kasallik** – **uyqu apnoye sindromining** alomatlardan biri sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xalq tiliga yaqin bo'lishi, tibbiyot tilidan bexabar odamlarga ham tushunarli bo'lishi uchun ayrim kasallikka oid atamalarni tushunarli atamalar bilan ifodalash holatlari ham uchraydi. Bunday tibbiy atamalar ham leksikamizda uchraydi. Aksariyat lug'atlarda bunday terminlar izohi berilayotganda “xalq tabobatida”, “sinonimi” kabi izohlari beriladi, yoki aksincha, “tibbiy farmatsiyada”, “tibbiyotda”, “tibbiy texnikada”, “farmatsiyada” kabi izohlar orqali ularning ilmiy muqobili ko'rsatiladi :

Qaltirama – xalq tabobatida – gavda biror qismi (ayniqsa, qo'lpanja)ning to'xtovsiz, muttasil qaltirab, titrab turish kasalligi; ilmiy tibbiyotda **Parkinson kasalligining** belgisi sifatida qaraladi.


Dovdirash – 1.Koordinatsiyasi buzilgan holatda yurish; gandraklash, alpon-talpon harakatlar qilish.2.Fikrlar oqimi buzilgan, nutq ravonligi izdan chiqqan holat; telba-teskari, chalkash-chulkash gaplar gapirish kabi sindromlar bilan yuzaga chiqadi.3.Uyquda valdirash.

Xirillash (-lar) – nafas yo'llarining torayishidan yoki ularda patologikajralmalar mavjudligidan yuzaga keladigan nafas shovqinlari; ular o'z tabiatiga ko'ra, asosan: nam xirillashlar, quruq xirillashlar va charsillovchi xirillashlarga tafovut qilinadi [2].

Afoniya – (gr. A- - yo'q + gr. phōnē – tovush) – shivirlab gaplashish saqlanib qolgan holda ovoz jarangdorligining yo'qolishi [3].

Taqlid so'zlar turli xil kasalliklarning izohini berishda, ularni tavsiflashda ham keng qo'llaniladi. Yo'tal - ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz (reflektor) ravishda kuchli zarb bilan yuzaga chiqadigan tovushli turtkisimon nafas chiqarish; nafas yo'llaridagi patologik jarayonlar.

“Tibbiy terminlarning izohli lug'ati”da yo'talning 2 xil tuzi mavjudligi ko'rsatilgan:



Quruq yo'tal (sin. balg'amsiz yo'tal) – yo'talganda balg'am ajralim cjiqmaydigan yo'tal. Nam yo'tal (sin. balg'amli yo'tal) – yo'talganda balg'am ajralib chiqadigan yo'tal.

Bu ikki turning ham bir necha xil ko'rinishlari mavjudligi haqida ma'lumot berilar ekan, quruq yo'talning ko'rinishlaridan biri sifatida “Qu-qu” yo'tal turi ham keltiriladi. Bu nomlanish kasallikning kechish jarayonidagi yo'talning davomiyligi, kuchliligi bilan bog'liq bo'lib, shu jarayonda yuzaga keladigan qu-qu tovushga taqlidi ushbu yo'tal turini nomlashda asos qilingan va unga quyidagicha izoh beriladi:

“Qu-qu” yo'tal – uzuq-yuluq, qisqa-qisqa, qattiq quruq yo'tal; hiqildoq yoki kekirdak sohasida patologik jarayon kechganda yuzaga chiqadi.

Lug'atlarda, odatda, tibbiy terminologiyaga oid ilmiy ommabop matnlarda taqlidlar va ulardan hosil qilingan so'zlar keng qo'llanilishi orqali bemorlarning turli kasalliklar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi osonlashadi, tushunarli bo'ladi. Bunday hollarda ko'pincha qu-qu, xur-xur, qalt-qalt kabi taqlid so'zlar, qaltiramoq, xirillamoq, lo'qillamoq, g'uvillamoq, shang'illamoq singari taqlid so'z asosli fe'llardan foydalaniladi. Masalan, arterial gipertenziya kasalligi alomatlarini tavsiflashda shu kabi so'zlardan foydalanilgan:

Goho bemor bosh aylanishi, quloq shang'illashi, (g'uvullagan yo jaranglagan tovush), ko'z oldida uchqunlar paydo bo'lishi, ko'zning xiralashishidan bezovta bo'ladi.

Yoki:

Hiqichoqda ko'pincha xiyqillagan ovoz chiqishi yoki kekirik kelishi mumkin; goho kishi qusib ham yuboradi, chunki bu paytda oshqozon shillig'i va uning chidamli spazmasi joyidan qo'zg'alishi mumkin.

Adneksit (bachadon o'simtalari yallig'lanishi), aritmiya (yurak urishining chastotasi, maromi va izchilligining buzilishi), ateroskleroz (yirik va o'rta arteriyalarning surunkali kasalligi), meningit (miya pardalari yallig'lanishi), gripp, panaritsiy (xasmol) kabi kasalliklarning alomatlarini keltirishda ham qaltirash, dukullab urish, lo`qillab og`rish, zirqirab og`rish kabi so`zlar qo`llaniladi.

Taqlid so`zlar asosida hosil qilingan **organ nomlari** ham tilimizda mavjud bo`lib, bunday nomlanish organ va u orqali hosil qilinadigan tovush bog`liqligi asosida yuzaga kelgan:

Hiqildoq (sin.bo`g`iz) – IV – VI bo`yin umurtqalarining ro`parasida halqum (q.) oralig`ida joylashgan, tog`ay, boylam va mushaklardan tarkib topgan nafas o`zosi; ovoz shu a`zoda hosil bo`ladi; nafas yo`lining burun bo`shlig`idan keyingi qismi.

Bag`baqa (sin. baqbaqa) – iyak ostidagi osilinqirab turgan so`ldim et.

Yosh davrlarini izohlashda, bolalarning ma`lum davrdagi nutqiy faoliyati bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni izohlashda, shu davrga nom berishda ham taqlid so`zlardan unumli foydalanilgan:

Bildiroq – (sin. qaqajon) – tibbiyotda – endilikda tili chiqib biyrongina bo`lib qolgan bola.

Bildiroqlik – bolalarning tilga bo`lgan qobiliyatidan xabar beruvchi darakchi.

Til nafaqat muammola vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixini ko`rsatuvchi oynadir. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir davrda, tilimizni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, tilshunosligimizni boshqa sohalar bilan bog`liq holda tadqiq qilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tilimizni tibbiyot sohasi bilan birga tadqiq qilar ekanmiz, meditsina sohasidagi international terminlar bilan bir qatorda ularning xalqona variantlarini faollashtirishga harakat qilishimiz lozim. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`birlari bilan aytganda, “Bugungi kunda biz yangi O`zbekistonni, yangi Rennans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асраров А., Усмонходжаев А., Садикова З., Билолов Э., Ахматов А., Маткулиев Ў., Асроров Ў., Омаров Х., Сафаева С. Табобат олами – касалликлар ва уларни даволаш йўллари. – Т.: “NOSHIR”, 2012.
2. Қосимов А. Тиббий терминларнинг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003.
3. Қосимов А. Тиббий терминларнинг изоҳли луғати. II жилд. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003.
4. Abuzalova M., Qobilova A. www.uzmuxabarlari.uz
5. Abuzalova M., Sobirova D., Ahmadova U. <https://www.psychosocial.com/article-category/issue-3-volume-24>
6. Abuzalova M., G`aybullayeva N. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021, Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. https://cibg.org.au/article_7795.html

Ўзбек ва инглиз тили тиббий перифразаларининг когнитив-морфологик хусусиятлари

Кобилова Азиза Бахриддиновна*

Annotation: The article is devoted to the study of cognitive-morphological features of Uzbek and English periphrases. The article analyzes formation of periphrases according to the parts of speech. The article also distinguishes the use of periphrases in two unrelated languages.

Keywords: *periphrasis, morphology, cognitive, formation, analyses, distinguish, parts of speech, language*

Ўзбек ҳамда инглиз тилшунослигида перифразаларнинг грамматик хусусиятлари бирмунча тадқиқ этилган [Опахина, 2006: 22]. Жумладан, тилшунос олим И.Умиров номзодлик диссертациясининг иккинчи бобини перифразаларнинг морфологик ва синтактик хусусиятларини ёритишга бағишлайди. Олимнинг фикрига кўра: «Нутқда от туркуми, феъл каби, бошқа сўз туркумларига нисбатан фаол қўлланади. Айниқса, парафразаларни ўрганиш жараёнида бу фикрнинг тўғри эканлиги яна бир қарра исботланди. Аниқроғи, шахс, предмет, нарса-ходисаларнинг тасвирий номи бўлган парафразалар морфологик жиҳатдан, асосан, от туркумидан ташкил топади [Умиров, 1996: 14].

Бизнингча, перифразаларнинг у ёки бу сўз туркумига мансублиги уларнинг қайси сўз туркумидаги сўз билан синонимик муносабатга киришиши (ёки перифразанинг қайси сўз туркумидаги сўзни қайта номлаши)га қараб белгиланади [Кобилова, 2021: 1637].

Тадқиқ жараёнида тиббий перифразаларнинг асосан от сўз туркумига мансуб сўзлар ўрнида қўлланганига гувоҳ бўлдик: *Стевия – «ўзбеклашган гиёҳ»* («Шифо-инфо» газетаси, 2018. 2-сон.); *Салмонеллэз –иссиқ-совуққа чидамли бактерия»*(«Даракчи» газетаси, 2019. 9-сон.); *Ўпка – кислород ташувчи аъзо қандай тузилган?* («Шифо-инфо» газетаси, 2017. 127-сон.); *Баҳор меваси – тут* («Даракчи»газетаси, 2019. 17-сон.); Иммуניתет –*ҳимоя воситалари*. Асаби бузилган тананинг *ҳимоя воситалари* заифлашиб, қон босимининг ошиши (гипертония), кўкрак қисиши (стенокардия) каби касалликларга осонгина дучор бўлади («Саломатлик тақвими», 2019. №7. – Б.4). каби.

Инглиз тилида ҳам тиббий перифразалар асосан от сўз туркумига мансуб сўзлар ўрнида қўлланганига гувоҳ бўлдик: *Salmonellosis is a food-borne illness typically caused by consumption of contaminated foods; Food poisoning (A Salmonella bacterial infection) causes gastrointestinal symptoms.* (<https://bit.ly/3xCFryv>); *Hepatitis A – gradual liver failure*(www.healthline.com); *Conjunctivitis is often called pink eye.*[Antimicrobial Chemotherapy,7E 2015]; *Indigestion, also known as dyspepsia or upset stomach, is a condition of "impaired digestion".* (Dorland's Medical Dictionary)

От сўз туркуми исмларга мансуб. Перифразалар, асосан, от сўз туркуми ўрнида қўлланар экан, уларда исмларга хос грамматик категорияларнинг

* БухДУ Инглиз тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси

воқеланиши табиий. Масалан, Мохов –*энг қўрқинчли касалликнинг* давоси борми? («Даракчи» газетаси, 2018. 40-сон.). Агар нонушта қилиш истаги бор бўлса, бирор ширин кулча ёки шоколад еб, ишга отланишингиз мумкин. Чунки булар таркиби қандга бой, енгил ҳазм бўлувчи ва белга *ёғ йиғувчи душманимиз* –енгил углеводлар тезда одамга қувват беради. («Сўғдиёна» газетаси, 2019. 16-сон. «*Олтин сўт*»нинг бўғим ва асаб тизимига фойдаси. («Даракчи» газетаси, 2018. 30-сон.). Оксоқлик – «*Ўрдак юриши*»нинг давоси борми? («Шифо-инфо» газетаси, 2014. 3-сон.). Демак, юқорида келтирилган жумлаларда *қўрқинчли касалликнинг, ёғ йиғувчи душманимиз, «олтин сўт»нинг, «ўрдак юриши»нинг* каби тиббий перифразалар эгалик ва келишик категориялари билан шаклланди.

Инглиз тилида AIDS – *the plague of the century, cancer – incurable disease, Ischemia – lack of blood supply* каби мисолларни таҳлил этар эканмиз, инглиз тили аналитик тиллар гуруҳига мансуб бўлганлиги учун перифразаларнинг ҳосил бўлишида асосан предлог ҳамда сўз тартибининг аҳамияти катта эканлигига гувоҳ бўламиз [Кобилова, 2021: 256].

Тиббий перифразалар от туркумидан ташқари сифат билан ҳам ифодаланиши мумкин. Масалан: «*Шакарпараст*» (*саратон*). *Инсон организмнинг асосий душмани бўлган саратоннинг энг яхши кўрадиган маҳсулоти шакар эканлиги аниқланди.* («Шифо-инфо» газетаси, 2019. 12-сон.).

Тилшунос И.Умиров яқка сўз ҳолида келувчи перифразаларни асосан, от, айрим ўринларда сифат, равиш ва олмош билан ифодаланиши мумкинлигини қайд этади. Кузатишларимиз давомида биз ўзбек тилида фақат от ва сифат сўз туркумига оид яқка сўз ҳолидаги тиббий перифразалар, инглиз тилида эса фақат от сўз туркумига оид яқка сўз ҳолидаги тиббий перифразалар миқдори кенглигига гувоҳ бўлдик.

Тиббий перифразаларнинг салмоқли қисмини бирикмали ҳолдаги перифразалар ташкил этади [Кобилова, 2020: 215]. Ўзбек тилидаги бирикмали тиббий перифразаларнинг қайси сўз туркумларидан ташкил топганлиги қуйидаги қолипларда намоён бўлади:

Сифат+от. Ушбу қолипдаги тиббий перифразалар нутқда жуда кўп қўлланади. *ТИА (Транзистор ишемик атака) – сезилмас хасталик, елбўғоз-ёлгон ҳомиладорлик, салмонеллез – айёр касаллик, ошқовоқ – сариқ олтин, қовоқ – табиий дорихона, катаракта – маккор касаллик, Қрим-Конго геморрогик иситма касаллиги – қора ўлим; иммунитет–беминнат тансоқчи;*

Сифат (ортгирма даража) +от. *Мохов – энг қўрқинчли касаллик. Саратон– энг хавфли касаллик*

От+от. Ушбу қолипдаги тиббий перифразалар тез-тез нутқда учраб туради. *Мононуклеоз – бўса инфекцияси, женшен – ҳаёт илдизи, ўрик – юрак малҳами, мойчечак – шифо чечак, мия – тана қўмондони, нерв – муаммолар сабабчиси; микроинсульт – организм сигнали* каби.

Сифат+от+от. Инсульт –*семиз кишилар касаллиги, мини-насос – хаста юрак халоскори, дизентерия – ифлос қўллар касаллиги, гепатит А – кир қўллар касаллиги, рахит –катта бош касаллиги* каби.

Сон+от+от. *Сабзи – минг дардга даво, ҳомиладорлик – тўққиз ойлик сафар, грип – уч-тўрт кунлик касаллик, юрак-қон томир касаллиги – биринчи рақамли оммавий қотил каби.*

От+фёъл+от. *Стенокардия – юракни гижимлайдиган дард, косметолог – гўзаллик яратувчи инсон, ўпка – кислород ташувчи аъзо, энгил углеводлар – ёғ йиғувчи душман, сепкил – юзда очилган баҳор гуллари*

Фёъл+от+от. *Елка-курак периартрити – «музлаган елка» касаллиги.*

Инглиз тилидаги бирикмали тиббий перифразалар эса қуйидаги қолипларда намоён бўлади:

Сифат+от. Ушбу қолипдаги тиббий перифразалар инглиз тилида ҳам жуда кўп қўлланади: *foetus – unborn child, Bubonic Plague – The Black Death, COVID19 – invisible enemy, Conjunctivitis – pink eye, Amblyopia – «lazy eye, Indigestion – upset stomach, tachycardia – rapid heartbeat, spinach - miracle vegetable.*

От+от. Икки от сўз туркуми бирикувидан ташкил топган тиббий перифразалар ҳам нутқда тез-тез учраб туради: *abortion – pregnancy termination, Borborygmi – stomach rumbling.*

Сифат+от+от. *hypertension – high blood pressure, The mutated virus – ticking time bomb, hypertension – the silent killer, Hepatitis A – gradual liver failure.*

Сон+от+от. *AIDS – 21st century plague.*

Фёъл+сифат+от: *pain – causing intense suffering.*

Сифат+сифат+от: бу турдаги қолипда перифразалар ҳам кенг қўлланилади: *COVID19 – fatal viral disease, tomatoes- beautiful red fruits.*

Артикль+сифат+от: *an excruciating noise, the silent killer.*

Артикль+от+от: *brain - the master organ.*

От+предлог+от: *preeclampsia -Toxemia of pregnancy, rosemary - herb of remembrance, basil - king of herbs, Pepper - enemy of bacteria, mangosteen - Queen of fruits.*

Артикль+от+от: *vein thrombosis - a blood clot.*

От+сифат+от: *Equine serum hepatitis - life-threatening disease.*

От+сифат: *Salmonellosis - food poisoning.*

Артикль+от+фёъл+от: *Tongue – a tool to taste food.*

Эвфемизмларни грамматик-когнитив асосларда қуйидаги турларга ажратамиз:

1) сўзлар:

отлар - *death* (ўлим) ўрнида, *mental hospital* (руҳий касалхона) ўрнида, *hairstylist* (соч турмаги) *hairdresser* (сартарош) ўрнида, *hek* (жин) *hell* (жаҳаннам) ўрнида;

сифатлар - *visually challenged* (кўзи ожиз) *blind* (кўр) ўрнида, *mature* (етук) *old* (қари) ўрнида, *unkind* (меҳрсиз) *evil* (ёвуз) ўрнида, *not clever* (ақлли эмас) *stupid* (ахмоқ) ўрнида, *overweight* (ортикча вазн) *fat* (семиз) ўрнига;

фёъллар - *to decease* (тугамоқ) *die* (ўлмоқ) ўрнида, *to glow* (исиб кетмоқ) *to sweat* (терламоқ) ўрнида.

2) иборалар - *to be eating for two* (икки киши учун овқатланиш) *to be pregnant* (ҳомиладор бўлиш) ўрнида, *bad time in life* (хаётдаги ёмон давр)

ўрнида, financially embarrassed (молиявий қийинчилик) being poor (камбағал бўлмоқ) ўрнида. Шунингдек, эвфемизмларнинг бутун нутқни камраб олиш имконияти ҳам бор.

Хуллас, ўзбек тили агглютинатив тиллар гуруҳига мансуб бўлганлиги учун лексемага синтактик шакллар бирикканда сўзнинг ўзак ёки негизи ўзгармайди. Бу морфологик-когнитив хусусият перифразалар учун ҳам хос. Ўзбек тилида перифразалар, асосан, от сўз туркуми ўрнида қўлланар экан, уларда исмларга хос грамматик категорияларнинг воқеланишини тиббий перифразаларнинг эгалик ва келишик категориялари билан шаклланганлигида кўриш мумкин. Инглиз тили эса аналитик тиллар гуруҳига мансуб бўлганлиги учун перифразаларнинг ҳосил бўлишида асосан предлог ҳамда сўз тартибининг аҳамияти катталигига ишонч ҳосил қилиш мумкин.

Шунингдек, иккала тилда ҳам тиббий перифразалар бирикма ҳолда хилма-хил морфологик моделлар асосида намоён бўлади. Перифразаларнинг от туркуми билан ифодаланишини эса уларнинг асосан шахс, предмет, воқеа-ҳодисаларга нисбатан тасвирий ифода бўлиб келиши билан изоҳлаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Е.В. Опахина. Глагольные перифразы в старофранцузском языке: Автореферат дисс. ...кандидата филол. наук. - Санкт-Петербург, 2006. – С.22
2. Умиров И.Э. Ўзбек тили парафразалари: филол. фан. номз. дисс. автореф.– Тошкент, 1996. – Б. 14.
3. Kobilova A.B. Periphrasis – as a stylistic device. Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference. Hosted from London, U.K., December, 28th 2020. – Page: 215-216. <https://conferencepublication.com>
4. Kobilova A.B. Some considerations about periphrases. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – Page: 1637-1640.

Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari Toshtemirova Sitora*

Annotation. The article describes the factors that led to the emergence of medical linguistics, the current relevance of the field, its goals and objectives, the role of achievements of medical linguistics in linguistics and medicine.

Key words: *medical linguistics, human factor, concept, medical speech culture, iatrogenia, egrotogeny*

Hozirgi davr tilshunosligida antroposentrizm katta o‘rinni egallaydi. Unga ko‘ra tilshunoslik markazida inson turib, til o‘z egasi bo‘lgan inson omili bilan bog‘liqlikda, undan ajratilmagan holda o‘rganiladi. Tilni inson omili bilan bog‘lab o‘rganish tilshunoslik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Z.R.Polyutina ta‘biri bilan aytganda, butun jahon tilshunosligining zamonaviy muammolari

* Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti sherzodarabov7@gmail.com

inson omili bilan birgalikda o'rganilib, o'z yechimini topmoqda [Полютина, 2013:1]. Endilikda inson faoliyatini tahlil qilish, uning til bilan aloqasi va nutqda tilning qay tarzda namoyon bo'lishi bugungi kun tadqiqotlarining markazida turibdi. Bu esa tilshunoslikning o'zi bilan bog'liq bo'lgan fanlar qatorida bog'liq bo'lmaganlari bilan ham aloqa o'rnatishiga sabab boldi. Natijada turli sohalar vujudga kela boshladi. Tibbiyot lingvistikasi ham ana shunday sohalardan biri hisoblanadi.

Yevropa tilshunosligida tibbiyot lingvistikasiga e'tibor o'zbek tilshunosligiga nisbatan ertaroq boshlandi. Buni biz I.V.Semenchuk, A.N.Tovstko, O.D.Vishnyakova, Z.R.Polyutina, B.Juganova, Y.L.Viktorova [5], G.Alekseyeva [6] kabilarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Tilni inson omili bilan bog'lab o'rganish bu sohaning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida rivoj topishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan ishlab chiqilgan, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Konsepsiya asos bo'lib xizmat qildi. Konsepsiyada milliy tilimizning sofligini saqlash, lug'at boyligini oshirish, zamonaviy atamalar o'rniga uning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xilda qo'llanishini ta'minlash, turli sohalar bo'yicha yangi lug'atlar yaratish, mavjud lug'atlarni boyitish kabilari qat'iy belgilab qo'yildi.[2]

Tibbiyot lingvistikasi tilshunoslik uchun ham, tibbiyot uchun ham birdek amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, shu sohadagi izlanishlar asosan o'zbek tili leksikografiyasi, terminologiyasi, sun'iy intellekt rivojlangan bir davrda kompyuter lingvistikasi rivoji uchun katta hissa qo'shadi. Shu jumladan, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan milliy til korpusini yaratish uchun ham muhim manbalardan biri vazifasini ham o'taydi. Bundan tashqari, tibbiyot tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining boshqa bo'limlarida ham o'z izini qoldirmoqda. Tibbiy terminlar semantikasi, sintaksisi, kelib chiqish tarixi, frazeologiyasi, tibbiyot tilini bezovchi tasviriy vositalar kabilardagi izlanishlar shular jumlasidandir.

Tibbiyot sohasi hozirgi kunda juda katta tezlik bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U qanchalik darajada tez rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa sohalarga nisbatan odamlarning kundalik hayotiga ham shunchalik yuqori darajada kirib bormoqda. Kundan kunga tibbiy-biologik, tibbiy-profilaktik, tibbiy-kimyoviy, tibbiy-texnik tushuncha va atamalar soni ham tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ayniqsa, ular orasida og'zaki ifodani talab qiladigan terminlar juda ko'p. Tibbiy terminlarni ommaga bir xil tarzda, tushunarli qilib yetkazib berish esa anchayin qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Chunki bemorlarning ba'zilar tibbiyotga yaqin, uni tushunadigan bo'lsa, ba'zilar esa bundan juda yiroq. Bu esa aholi orasida kasalliklarni noto'g'ri tushinishga olib kelmoqda, ayrimlar kasallik nomidan qo'rquvga tushib qolayotgan bo'lsalar, ayrimlar "oddiy kasallik ekan" deya e'tiborsizlikka yo'l qo'ymoqdalar. Bu esa bemorlar sonining oshishiga, tuzalishi mumkin bo'lgan bemorlarning ham vaqtida davolanmagani uchun kasallikning avj olib ketishiga sabab bo'lmoqda. Mana shunday hollarda tibbiyot lingvistikasi yordamga keladi.

Tibbiyot lingvistikasi bugungi kunda quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi:

- zamonaviy tibbiyotni tashkil etuvchi soʻzlar va iboralarning toʻliq variantini yigʻish;
- ular orasidan eng munosib va neytrallarini ajratib olish;
- yigʻilgan manbalar asosida yangi lugʻatlar yaratish;
- tibbiy terminlarning elektron lugʻatini tuzish;
- zamonaviy terminlarni oʻzbekcha muqobiliga almashtirish, ularni aholi orasida bir xilda qoʻllanilishini taʼminlash;
- bemor hayoti uchun xavf tugʻdirishi mumkin boʻlgan soʻzlar oʻrniga xalq orasidan muqobillarini izlab topish;
- gender jihatdan aytilishi uyatli boʻlgan soʻzlar oʻrnini evfemizmlar bilan toʻldirish, kerakli oʻrinlarda yangicha evfemizmlar yaratish;
- shifokorning nutq madaniyatiga katta eʼtibor qaratish, tibbiy nutq madaniyatining sofliqi, taʼsirchanligini taʼminlovchi tasviriy vositalarni topish.

Bular orasida, ayniqsa, tibbiy nutq madaniyatiga eʼtibor asosiy oʻrinda turadi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, shifokor va hamshiralarning bemorlar bilan notoʻgʻri munosabatlari natijasida vujudga keladigan kasalliklar umumiy kasalliklarning 10%ini tashkil etmoqda [Qosimov, 2007:39-40] Bu umumiy holda yatrogeniya deb nomlanadi. Yatrogeniya yunoncha *iatros* –shifokor, *gennao* –yaratadi soʻzlaridan olingan boʻlib, shifokor tomonidan oʻzi bilmagan holda yaratiladigan psixologik xastaliklardir. [8] Shifokor bemorlar hayotini asrash uchun shu kasbni tanlasa-da, oʻzi ham bemorlar hayoti uchun baʼzi hollarda xavf tugʻdirib qoʻymoqda. Bemor hayoti shifokor qoʻlida ekan, u oʻziga xos muloqot sanʼatiga ega boʻlishi, bemor bilan toʻgʻri va oʻrinli soʻzlasha olishi kerak. Doimo bemor bilan muloqatda boʻlganida uning kasalik darajasi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishini inobatga olishi zarur. Ijtimoiy kelib chiqish deganda, baʼzilariga yaxshi, baʼzilariga yomon emas, u qanday fikrlasa, shunday fikrlab, kasbi, yashash doirasiga yaqin holda, kasalliklarni ham shu doiraga mos tarzda tushintirib, maslahatlar berishi kerak. Biz buni Oʻtkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asari misolida koʻrib chiqishimiz mumkin. Bunda asar qahramoni Sherzod bilan boʻlgan ikki holatni kuzatamiz:

“Sherzodlarning palatasiga Doktor opa degan vrach qaraydi. Bemorlar ham, hamshiralar ham – hamma uni shunday ataydi. Hech kim otini aytib chaqirmaydi. Sochlari duv oqargan, ammo koʻz qarashlari tiyrak Doktor opa har kuni Sherzoddan qandoq ovqatlangani, qandoq uxlagani-yu hatto nima tush koʻrganigacha sinchiklab soʻraydi. Sherzod uning tiyrak koʻzlariga qarab yotadi-yu, koʻnglida minnatdorchilik aralash allanechuk bir iymanish hissi uygʻonadi. Xuddi restoranga kirib birovning hisobidan ovqatlangan odamdek qarzdor boʻlib qolayotganga oʻxshayveradi”. [Hoshimov, 2018:6]

Bu holatda tibbiyot xodimi (Doktor opa) bemorga gʻamxoʻrlik bilan munosabatda boʻlganligi, doʻstona muloqot qilishga intilganligi anglashiladi. Tabiiyki, mehribonlik meʼyoridan oshsa, bemorda qarzdorlik hissini uygʻotadi. Keyingi matnlarga murojaat qilamiz:

“Professor tasmadagi egri-bugri chiziqlarni diqqat bilan koʻzdan kechira boshladi. “Boshlandi, –deb oʻyladi Sherzod professorning har bir harakatini kuzatib yotarkan. –Birinchi savol: hozir sizni nima bezovta qilyapti? Ikkinchi

savol: bolaligingizda qanaqa kasallarga chalingansiz? Uchinchi savol: ko‘pdan beri yuragingiz sanchardimi? Chekasizmi va hokazo, va hokazo...”

Professor kasallik varaqasidan bosh ko‘tardi-da, negadir jilmaydi. Shunda burnining usti tirishib, teran ko‘zlarida samimiy bir nur porlab ketdi. Uning tabassumi shu qadar dilkash, shu qadar “yuqumli” ediki, Sherzodning o‘zi ham beixtiyor jilmaydi.

–Vrachlar psixologiyasini ancha yaxshi bilarkansiz, Samandarov! – dedi professor hamon jilmayib turarkan.

Sherzod esankirab qoldi. “Qiziq, bu odam nimani o‘ylayotganligimni qayoqdan bildi” degan fikr xayolidan lip etib o‘tdi. Beixtiyor ko‘zini olib qochdi.

– “Operatsiya” degan hikoyangiz menga maqbul bo‘ldi. – Professor Sherzodning qo‘lini yumshoq kafti orasiga olib, qon tomiriga barmog‘ini bosdi. – Operatsiya paytida xirurg eng yaqin odamini ham begona hisoblaydi, deganingiz to‘g‘ri. Shunaqa qilmasa, ikkilanib qolishi mumkin. “Meditzinada ikkilanish – mag‘lubiyat” degan so‘z.

“O‘qigan ekan-da– Sherzodning ko‘nglini birdan quvonch chulg‘adi. –Vaqt topganini qarang-a”. Sherzodning bu hikoyasi jurnalda chiqqan, har kim har xil fikr bildirgan edi. Hozir u shifokorning o‘zidan shunday gap eshitganiga quvonib ketdi.

– Yana bir gapingizga to‘la qo‘shilaman, –dedi professor hamon tomir urishini sanarkan. –Meditzina sohasida kadrlar tayyorlashga ayniqsa ehtiyot bo‘lish kerak. Yomon shifokorning qotildan farqi yo‘q. Rosti, uquvsiz doktorlar ko‘payib ketmoqda.

– Bunaqalar hamma sohada bor, – dedi Sherzod jilmayib.

–Meditzinada bo‘lmasligi kerak! –Professor qoshini chimirdi. – Menga qolsa, medik bo‘lishni havas qiladiganlar avval bir-ikki yil kasalxonada ishlashlari kerak. Murdani ko‘rsa, labiga uchuq toshadigan chalamulla vrachlarni ko‘rgani ko‘zim yo‘q!

– Endi, do‘xtir, hozir qaysi institutga borsangiz, tanish-bilishlarning bolasi kiradi, –Sayfi Soqiyivich yotgan joyda karavotni g‘irchillatib o‘nglanib oldi. –Shunaqa bo‘lganidan keyin iloj qancha.

Professor unga vazmin nazar tashladi-yu, Sherzodga imladi:

– Qani, o‘ttiring-chi, yurakni eshitib ko‘raylik. – Uning ko‘zlarida yana o‘sha samimiy o‘t porladi. – Yozuvchilarning qalbi nozik bo‘ladi, deyishadi. Yo tanqid qilib pishitib qo‘yishganmi?

Sherzod jilmayib yelkasini qisibqo‘ydi.

“Nahotki tanqidiy maqolalarni ham o‘qisa bu odam?” –deb o‘yladi hayron bo‘lib. U aniq fan mutaxassisleri ko‘pincha adabiyot, san‘atni chuqur tushinishini bilar, ammo bunchalik deb o‘ylamagan edi. Kuragiga fonendaskopning muzdek halqasi tegishi bilan vujudiga xushnud bir yengillik sezdi.

Qiziq, har gal Doktor opani ko‘rganida uyg‘onadigan qarzidorlik hissi hozir uni qiynamas, professor bilan o‘zining o‘rtasida qandaydir tabiiy yaqinlik paydo bo‘lganidan shod edi. Shunda u professor gapni bekorga boshlamaganini, o‘rtada yaqinlik tug‘dirish uchun shunday qilganini birdan tushindi-yu, ko‘nglida hayrat aralash quvonchli bir xitob yangradi. “Obbo, professor-ey! Ustaligini qarang”.”
[Hoshimov,2018:19-21]

Yuqoridagi matnlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Doktor opa oldida paydo bo'lgan qarzdorlik hissi professor oldida yo'qoldi. Chunki professor tekshiruvni har doimgi so'roqlar bilan emas, bemor hayotiga, kasbiga kirib borgan holda boshladi. Bemorday o'ylab, bemor kabi fikrladi. Bu esa bemorga ruhiy erkinlik bag'ishladi. Shifokor bemorning ijodkorligidan xabardorligini sezdirmay, uning ijodi haqida suhbatlashar ekan, tekshiruvni ham to'xtatmadi. Yuragi nima sababdan xastalanganligini ham uning yashash tarzidan, ochiq-oydin so'ramagan holda bilib olishga harakat qildi. Muloqotda bu shaklan so'roq, ammo mazmunan tasdiq, ta'kidni ifodalagan "Yozuvchilarning qalbi nozik bo'ladi, deyishadi. Yo tanqid qilaverib pishitib qo'yishganmi?" jumlasidan anglashiladi. Shu bilan birga, adresant "beparvoroq bo'ling" demoqchi. O'z navbatida, bemor (Sherzod) ham professorning nutqiy mahorati va madaniyatiga qoyil qoldi. Tibbiy nutq yoki muloqotda so'zlash mahorati, nutq odobi, muomala madaniyatiga e'tibor qaratish shifokorning bemorga to'g'ri tashxis qo'ya olishi, uni tezroq davolay olishi uchun juda muhimdir.

Tibbiy nutq madaniyati va tibbiy deontologiya masalalarida faqat shifokor bilan bemor munosabati emas, balki bemor bilan bemorning munosabati ham muhim o'rin tutadi. Bir bemorga boshqa bemor so'zining salbiy ta'siri ham kasallikning zo'rayishi, yangi alomatlarining yuzaga kelishi yoki boshqa xastalikning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu tibbiyotda *egrotogeniya* deb nomlanadi. Egrotogeniya lotincha *aegrotus* –kasallik, yunoncha *genes* – sababchi so'zlaridan olingan bo'lib, "kasallikka sabab bo'luvchi" degan ma'noni anglatadi. Lekin tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, egrotogeniya kasalliklari yatrogeniya kasalliklariga nisbatan yengilroq kechadi.[7]

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, tibbiyot lingvistikasi bugungi kunda fanlarning integratsiyalashuvi natijasida kelib chiqqan va zamonaviy o'zbek tilshunosligi yangi rivojlanish bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beruvchi navqiron sohadir. Bu sohani rivojlantirish esa tibbiy nutq madaniyati masalalari bilan cheklanmay, tibbiy terminologiya masalalarini o'rganish, tibbiy atamalar lug'atlarini ko'paytirish, o'zbek tilidagi tibbiy termin va atamalar korpusini yaratish vazifalarini amalga oshiruvchi istiqbolli tadqiqotlarga bog'liq. Zero, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot va amaliy ishlar natijasi ko'plab insonlar hayotini saqlab qolish, xavfli kasalliklar, ularning oqibatidan ogohlantirish, sohada malakali kadrlarni tayyorlash, umuman, soha lingvistikasi taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Полютина З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития /Медицинский вестник Башкортостана. Том 8, 2013. – 132 с.
2. 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Qosimov E.Y. Shifokor nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. –163 b.
4. Hoshimov O'. Nur borki, soya bor. –Toshkent, 2018.– 283 b.

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Mўratbek B.Q.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтапым негиздери (Q.Jўbanov сөзтапымындаг ы лексикология мәселелери)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O`zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho’ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g’oyalari tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o`zbek tillarida so`zlarning o`zaro tobe bog`lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po`latova S.M.</i>	<i>O`zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o`zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O`zbek tili milliy korpusi uchun so`zlashuv uslubiga xos so`zlarni teglash masalasi oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo`rayeva D.R. Qo`shayeva N.E.</i>	<i>O`quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg`iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o`rni</i>	79
<i>Mўratбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы танып білу(Аймақтық лексика негізінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84

<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88
<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A. Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindeki dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R. Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon – o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N. Chullieva G.T.</i>	<i>Тишина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh. Bozorova G.Z. Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazalar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мўқағали Мақатаев аңгімелеріндегі психологизм Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T. Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiblar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy”</i>	214

<i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning qo'llanilishi</i>	218
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248